



POLISH SCIENCE JOURNAL

INTERNATIONAL SCIENCE JOURNAL

Issue 6(27)
Part 1



POLISH SCIENCE JOURNAL

ISSUE 6 (27)
Part 1

INTERNATIONAL SCIENCE JOURNAL

WARSAW, POLAND
Wydawnictwo Naukowe "iScience"
2020

ISBN 978-83-949403-4-8

POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 6(27), 2020) - Warsaw: Sp. z o. o. "iScience", 2020. Part 1 - 180 p.

Editorial board:

Bakhtiyor Amonov, Doctor of Political Sciences, Associate Professor of Tashkent University of Information Technologies

Bugajewski K. A., doktor nauk medycznych, profesor nadzwyczajny

Czarnomorski Państwowy Uniwersytet imienia Piotra Mohyły

Temirbek Ametov, PhD

Marina Berdina, PhD

Hurshida Ustadjalilova, PhD

Oleh Vodianyi, PhD

Languages of publication: українська, русский, english, polski, беларуская, казакша, o'zbek, limba română, кыргыз тили, ჯუღრღუ

Science journal are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees.

The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

ISBN 978-83-949403-4-8

© Sp. z o. o. "iScience", 2020

© Authors, 2020

TABLE OF CONTENTS

SECTION: PEDAGOGY

Abduqodirov Abdullo, Bobokalonova Halovat, Malikova Nazokat, Malikova Nodira (Surxondaryo, O'zbekiston) O'QUVCHILARNI MATEMATIK SAVODXONLIK BO'YICHA PISA TADQIQOTLARIGA TAYYORLASHGA DOIR USLUBIY TAVSIYALAR.....	7
Akromov Alisher Temirovich, Mamatov Usmon Eshonqulovich (Muzrabot, O'zbekiston) INTERFAOL METODLARNI MASHG'ULOT MAQSADIGA MUVOFIQ TANLASH.....	10
Ashurova O'g'ilshod Xolliyevna (Termiz, O'zbekiston) XALQARO BAHOLASH TIZIMI, TIMSS DASTURIDA G'AZAL VA UNING TAHLILI.....	18
Atajonova Anorgul Jumaniyazovna, Mavlanova Charos Erkinbay qizi (Urganch, O'zbekiston) BOLALAR NUTQINI O'STIRISHDA O'ZBEK VA JAHON ADABIYOTI NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING METODIK JIHATLARI.....	22
Babadjanova Masturakhon Mukhammadiyevna (Surkhandarya, Uzbekistan) MODERN APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES.....	26
Djumayeva Gulsara Musurmanovna, Ergasheva Dilafuz Yo'ldosh qizi, Sattarova Zamira Temirovna, Choriyev Soatmumin Jo'rayevich (Qumqo'rg'on, O'zbekiston) XALQARO BAHOLASH DASTURINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI.....	28
Donaboyev Sherzod Eshmuratovich (Jarqo'rg'on, O'zbekiston) GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH AHAMIYATI VA NATIJAVIYLIGI.....	31
Dusmetova Maksuda Matnazarovna (Urgench, Uzbekistan) HOZIRGI ZAMON O'QITUVCHISI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR	36
Egamberdiyeva Dilbar Abdunazarovna (Jarqo'rg'on, O'zbekiston) O'QITUVCHINING DARSGA TAYYORLANISH SSENARIYSI.....	38
Eshmuratova Sevara Ro'zimurotovna, Boynazarova Muxayyoxon Baxtiyorovna (Jarqo'rg'on, O'zbekiston) BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INNOVASION TA'LIMNING AFZALLIKLARI HAMDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	43
Eshqurbonova XadichaAbsamatovna, Sattorova Mavluda Ismoilovna, Berdiyeva Mavluda Ibodullayevna (Sariosiyo, O'zbekiston) DARSLARNI INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI.....	47
Jurayeva Dilnoza Raxmatullayevna, Begaliyeva Matluba Ismoil qizi, Abrayev Suyun Djanbutayevich, Xayitova Fazilat Narziqulovna (Surxondaryo, O'zbekiston) BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR QO'LLASHNING AHAMIYAT.....	51

Kutlimuratova Nargiza Rustamovna (Urganch, O'zbekiston) HAMKORLIK PEDAGOGIKASI VA UNING ASOSIY MASALALARI.....	55
Makhmadiyarova Ruzigul Nurmukhamedovna, Ismoilova Sanobar Mamadamin kizi (Jarkurgan, Uzbekistan) APPLICATION OF MODERN WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING.....	58
Muhammadiyeva Matlyuba Madjitovna (Termiz, O'zbekiston) BOSHLANG'ICH SINIF O'QITISHDA INNOVATSIYON TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING AHAMIYATI.....	61
Normurodova Nargiza Uralovna (Angor, Uzbekiston) BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH ASOSLARI.....	64
Nuriyeva Saltanat Ozodovna, Butayeva Dilfuza Tuxtayevna (Termiz, O'zbekiston) INGLIZ TILI DARSLARINI INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISH USULLARI.....	74
Saidova Nodira (Termez, Uzbekistan) USE OF NEW PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH LESSONS.....	78
Wan Yuezhi (Kharkiv, Ukraine) MUSIC AS «A THERAPY» OF INTEGRATIVE LESSONS IN THE WALDORF SCHOOL OF UKRAINE.....	81
Илҳомова Моҳинур Илҳомовна (Sho'rchi, O'zbekiston) ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРНИНГ ЎҚУВЧИ ЁШЛАРНИ ЭРКИН ФИКРЛАШНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ.....	87
Kutlimuratova Nargiza Rustamovna (Urganch, O'zbekiston) O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	89
Қурбонова Моҳигул Шониёзовна (Қарши, Узбекистон) ХОРИЖ АДАБИЁТЛАРИДА ФОЛЬКЛОР ЖАНРИ АСОСИДА БОЛА ҚАБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МУАММОСИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ.....	92
Олтибоева Зулфия Даврановна, Алтибоева Юлдуз Даврановна (Джаркургон, Узбекистан) ИНТЕРАКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ НА УРОКЕ РУССКОГО ЯЗЫКА.....	97
Очилова Насиба Нематовна (Самарканд, Узбекистан) ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ХХІ ВЕКА ПРЕПОДАВАНИЕ И ОБУЧЕНИЕ ЗНАНИЯМ И НАУКЕ.....	104
Раҳматова Салима (Термиз, Ўзбекистон), Маллаева Қундуз Абдимўминовна, Абдуллаева Махфуза Жабборовна (Жарқўрғон, Ўзбекистон) ТАБИИЙ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ЎҚУВЧИЛАР ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТ ТАЖРИБАЛАРИНИ ТАРКИБ ТОПТИРИШДА ЛОЙИҲАЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	108
Чжан Ян (Харків, Україна) ПРОБЛЕМА РОЗВИТКУ МУЗИЧНИХ ЗДІБНОСТЕЙ ОСОБИСТОСТІ В ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГІЧНІЙ ЛІТЕРАТУРІ.....	112

Эшчанова Гавҳар Отажоновна, Ўразова Нафиса Гулиметовна (Урганч, Ўзбекистон) БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИШ ДАРСЛАРИДА ТОПИШМОҚЛАРНИ ЎРГАТИШНИНГ ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРИ.....	118
---	-----

SECTION: PHILOLOGY AND LINGUISTICS

Alikulova Nurijakhon, Jurayeva Guli, Rakhmatov Sanjarbek (Kizirik, Uzbekistan) FEATURES OF TEACHING ENGLISH VOCABULARY TO PRIMARY SCHOOL CHILDREN.....	124
Divanova Iqboloy (Urganch, O'zbekiston) NAVOIYNING "SAB'AI SAYYOR" DOSTONIDA RAMZLAR.....	128
Kholliyeva Gulora Kholmuratovna, Kholliyeva Khurram Ochilovna, Kholliyev Chori Boymatovich (Kizirik, Uzbekistan) LANGUAGE LEARNING AND DIDACTIC ACTIVITIES FOR SCHOOL CHILDREN.....	131
Kurbonova Ozoda Ravshanova (Tashkent, Uzbekistan) LEXICO-SEMANTIC FEATURES OF UZBEK-ENGLISH ANTHROPONYMS.....	134
Madraximova Nazira Yaqubovna (Urganch, O'zbekiston) OG'ZAKI ADABIYOTDAGI HOMIY OBRAZI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	138
Normurodova Sodat Uralovna, Shernazarova Zarifa Yusupovna, Khaydarov Soatmurod Shapulatovich (Angor, Uzbekistan) PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC DEVELOPMENT IN THE XXI CENTURY AND INNOVATION IN THEIR POSITION.....	141
Yokubjonova Dilfuza Olimjonovna (Sariasiya, Uzbekistan) SOME WAYS OF IMPROVING SPEAKING SKILLS.....	144
Қурбонова Моҳигул Шониезовна (Қарши, Ўзбекистон) ХОРИЖ АДАБИЁТЛАРИДА ФОЛЬКЛОР ЖАНРИ АСОСИДА БОЛА ҚАБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МУАММОСИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ.....	146
Ляхмотова Юлія Валеріївна (Харків, Україна) ОСОБЛИВОСТІ ЛЕКСИЧНИХ РОЗБІЖНОСТЕЙ В НОРМАТИЧНОМУ ПУТУНХУА І ДІАЛЕКТНИХ ГРУПАХ КИТАЙСЬКОЇ МОВИ.....	151
Холикулова Юлдуз Шодиевна (Самарканд, Ўзбекистон) РОЛЬ ЯЗЫКА В СОЦИАЛЬНОМ РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕКА.....	156

SECTION: PHILOSOPHY

Абдумажидова Ҳамида (Самарқанд, Ўзбекистон) САМАРҚАНД ШАРҚ МАЪНАВИЯТИ БЕШИГИ ВА ДУНЁ ИЛМ-ФАНИ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ БЕБАҲО МЕРОСИ СИФАТИДА.....	160
Маматов Мамаджан Аҳмаджанович (Фарғона, Ўзбекистон) ТАСАВВУФ ВА СИНЕРГЕТИКА: ДУНЁҚАРАШЛАР ЧОРРАҲАСИ.....	165

Мирзаева Моҳира Қурбановна, Яздонова Соҳиба Қурановна (Самарқанд, Ўзбекистан) ШАРҚ ВА ҒАРБ ИЖТИМОИЙ-МАДАНИЙ АЛОҚАЛАРИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШУВИДА БУЮК ИПАК ЙЎЛИНИНГ РОЛИ.....	170
Муҳитдинова Бадиа Муслиҳиддиновна (Самарқанд, Ўзбекистан) ВАСЛИЙ САМАРҚАНДИЙНИНГ “ТУҲФАТУЛ-АҲБОБ” АСАРИДА АХЛОҚИЙ ВА МАЪРИФИЙ ҒОЯЛАР ТАЛҚИНИ.....	175

SECTION: PEDAGOGY

**Abduqodirov Abdullo, Bobokalonova Halovat,
Malikova Nazokat, Malikova Nodira
(Surxondaryo, O'zbekiston)**

O'QUVCHILARNI MATEMATIK SAVODXONLIK BO'YICHA PISA TADQIQOTLARIGA TAYYORLASHGA DOIR USLUBIY TAVSIYALAR

PISA – o'quvchilar yutuqlarini xalqaro baholash dasturi doirasida ko'p yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar natijasi o'laroq, quyidagi xulosalarga kelingan:

– Dunyoning aksariyat o'quvchi yoshlari XXI asrda yashashga tayyor emaslar, ya'ni zamonaviy jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan kompetensiyalariga to'liq ega emaslar;

– maktab ta'limi ko'p jihatdan bu kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilmagan;

– o'quvchilar egallagan bilim va ko'nikmalarini qayerda ishlatilishini bilishmaydi;

– hali ham ko'p maktablarda eskicha usullarda ta'lim berilayapti, ya'ni tayyor bilimlar berilayapti. Aslida maktab o'quvchilarni "o'rganishga o'rgatish" ya'ni mustaqil bilim olishga o'rgatishi kerak bo'ladi;

– darsliklar va undagi o'quv topshiriqlari mazmuni ham bunday vazifani bajarishga mo'ljallanmagan. Yuqoridagi bu xulosalardan kelib chiqib, mamlakatimizda 2021-yilda o'tkazilishi mo'ljallanayotgan PISA tadqiqotlari doirasida matematik savodxonlikni baholashda quyidagi muammolarga duch kelishimiz mumkin:

– darsliklarda PISA topshiriqlariga o'xshash masalalarning yo'qligi yoki kamligi sababli, o'quvchilarda bunday amaliy faoliyatlarni amalga oshirish tajribasining yetishmasligi oqibatida PISA tadqiqotlarida ularning natijalari past bo'lishi mumkin;

– PISA topshiriqlari odatda uzundan-uzun matnlar yordamida tasvirlanib, ulardagi real vaziyat va muammolarni hal qilish usulini tanlash uchun matematikaning qaysi bo'limiga murojaat qilish haqida ko'rsatmalar yo'q;

– PISA topshiriqlari (matnli, rasmi, diagramma va jadvallar, real bog'lanishlar grafiklari kabi) turli shakllarda taklif qilinadi. Ularni matematik tilga o'girish va yechim topilgandan so'ng uni yana real sharoit bilan bog'lab baholash va talqin qilish talab qilinadi.

– odatda matematika darsliklarida standart masalalar beriladi va ular standart usullar yordamida yechiladi, ya'ni o'quvchilar muayyan turdagi masalalarni ma'lum algoritmlar asosida yechishga o'rgatiladi. PISA topshiriqlarida esa unday emas. Odatda matematika darsliklaridagi masalalar muayyan bobda beriladi va bu bilan ularni yechish usullari ham shu bobda ko'rilgan usullarga bog'langan holda beriladi, ya'ni muayyan bo'limining masalalari qanday yechilishi haqida ko'rsatma beriladi;

– bundan tashqari, darslikdagi masalalar sof matematik masalaning tavsifidan iborat bo'lib, odatda ularning mazmuni hayotdagi real vaziyatlardan ancha uzoqda bo'ladi;

– darsliklarimizda PISA topshiriqlariga o'xshash masalalar juda kam yoki umuman yo'q. Masalalarda ko'rilayotgan vaziyatni tavsiflovchi juda katta hajmdagi axborot berilib, ularda juda ko'p yangi matnli ma'lumotlarning borligi

– masalani tushunish va uni yechishni yanada og'irlashtiradi;

– ma'lumot turli: matn, raqam va tasvirli shakllarda taqdim etilad. Masalani yechish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar matnning turli qismlaridan olinishi kerak bo'ladi. Ba'zi masalalarda "aylana" so'zi topshiriq matnida qayd etilmasada, o'quvchilarning o'zlari ob'ektning aylana shaklida ekanligini topishlari kerak bo'ladi.

– mamlakatimiz maktablari matematika fani o'quv dasturi PISA tadqiqotlarining matematik savodxonlikni baholash dasturi mazmuni va ketma-ketligidan farq qiladi. PISA sinovlarida hali o'tilmagan mavzular bo'yicha topshiriqlar ham berilishi mumkin;

– PISA topshiriqlarining berilishi va unga javob berishning o'zgachaligi ham o'quvchilarda ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi. Sinovning kompyuter asosida o'tkazilishi esa kompyuterda ishlash va ba'zi maxsus ilovalardan foydalanish ko'nikmalarini ham talab etadi. Ba'zi intraktiv topshiriqlarni bajarish oldindan bunday topshiriqlar bilan tanish bo'lish va ularda ishlash dasturidan foydalanish ko'nikmalrining shakllanganligiga ham bog'liq bo'ladi.

Bu va shunga o'xshash muammolar borki, PISA tadqiqotlarida ilk bor qatnashayotgan mamlakatimiz ta'lim tizimi oldida bir qator qo'shimcha vazifalarni ko'ndalang qilib qo'yadi. Bu muammolarni oldindan 19 bilish va ularni hal qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar grafigi va rejasini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Shundan kelib chiqib, sinovlarga tayyorlanish ishlarini tashkil qilishda quyidagi jihatlariga e'tibor qaratilishini tavsiya qilamiz:

- barcha tadqiqot yo'nalishlari doirasidagi umumta'lim fanlari o'qituvchilarning maqsadli malakasini oshirish, PISA tadqiqotlari bilan tanishtirish, topshiriqlar mazmuni va tuzilishi haqida ma'lumot berish, ularni tahlil qilishga qaratilgan seminar-treninglar tashkil qilish;

- Seminar qatnashchilarini tegishli o'quv materiallari bilan ta'minlash, turli o'quv-uslubiy adabiyotlarni chop ettirib, joylarga yetkazish;

- Matematika fani o'qituvchilarini nafaqat matematik savodxonlik bo'yicha, balki kreativ fikrlash bo'yicha ham tadqiqotlarni o'tkazishga tayyorlash;

- Malaka oshirishdan o'tgan o'qituvchilar maktabda to'garak soatlari hisobidan "PISA-2021 tadqiqotlariga tayyorlanamiz" deb nomlangan fakultativ kurslarni 7-, 8- va 9- sinf o'quvchilari uchun haftasiga 2 soat hajmida tashkil qilish tavsiya etiladi. Asosiy e'tiborni 2021-yilda sinovdan o'tadigan 8-sinf o'quvchilariga qaratish;

- Respublikadagi matematikani o'qitishga tayanch maktab sifatida belgilangan maktablarning PISA2021 tadqiqotlariga tayyorlanishga mas'ul markaz sifatidagi faoliyatini tashkil qilish va ularga har tomonlama uslubiy yordam ko'rsatish;

- Televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalarida keng targ'ibot ishlarini olib borish, "Ma'naviyat va ma'rifat" kanalida har haftada berib boriladigan

turkum ko'rsatuvini tashkil qilish. Bu ko'rsatuv orqali ochiq PISA topshiriqlarini tahlil qilish va o'qituvchilarga yil bo'yi tegishli uslubiy tavsiyalarni berib borish;

- Xalq talimi vazirligi portalida va Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb-saytida "PISA-2021 tadqiqotlariga tayyorlanamiz" deb nomlangan alohida interaktiv rukn tashkil qilish va ularga tadqiqotlar bilan bog'liq barcha ma'lumot, xabar va materiallarni joylashtirib borish. Onlayn maslahat olish imkoniyatlarini yaratish. Ma'lumki, PISA topshiriqlari matematika fanining quyidagi mazmun sohalari (bo'limlari) ga doir tuziladi: Miqdorlar (arifmetika);

O'zgarishlar va munosabatlar (algebra); Fazo va shakl (geometriya);

Ma'lumotlar va aniqmasliklar (ehtimollar nazariyasi va matematik statistika elementlari). Shundan kelib chiqib, o'quvchilarni PISA tadqiqotlariga 5- sinfdan boshlab tayyorlab borish lozim bo'ladi. Chunki, aynan 5-6- sinflarda matematikaning asosiy hisob-kitob, ya'ni arifmetik ko'nikmalarini tizimli ravishda shakllantirish boshlanadi. Shuningdek, PISA topshiriqlarining ko'pchiligi aynan sonlar ustida arifmetik amallarni bajarish, hisoblash texnikalaridan foydalanishni taqozo qiladi.

7- 9- sinflarda esa algebra va geometriya fanlarini tizimli o'rganish boshlanadi. O'rta umumiy ta'lim maktablari uchun matematika fanidan yangilangan o'quv dasturi aynan PISA tadqiqotlarida matematik savodxonlik mazmunidan kelib chiqib qayta tuzilgan. Undagi ba'zi mavzularning oldingi sinflarga surilgani, dasturga kombinatorika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika elementlarining 5- sinfdan boshlab erta qo'shilganining boisi ham shu bilan bog'liq. Shuningdek, 5-6- sinflarda planimetriya elementlari va fazoyiy shakllarni o'rganishga ko'proq e'tibor berilgani, hamda 7-9- sinf geometriya kursida stereometriyaning boshlang'ich tushunchalarining ham kiritilishi PISA topshiriqlari bilan bog'liq amalga oshirilgan.

Shu bilan birga, boshqa umumta'lim fanlarida bu mavzularga ehtiyoj bo'lgani uchun ham bunday qarorga kelingan. Dasturni yangilash jahonda matematika fanini o'qitishga bo'layotgan innovatsion yondashunlarga javoban amalga oshirildi. Shu bilan birga, dasturni yaratishda matematika fanini o'qitishning ming yillar davomida shakllanib kelgan jahon va yurtimizdagi ilg'or an'analar va fanning nazariy asoslangan mazmuni, hajmi, ketma-ketligi va uzviyiligi ta'minlagan holda va unga putur yetkazmagan holda ish tutildi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, PISA topshiriqlarini yechish uchun matematikada chuqur bilim va ko'nikmalarni talab qilinmaydi. Lekin, o'zlashtirilgan muayyan bilim va ko'nikmalarni hayotiy vaziyatlarga qo'llashga juda katta e'tibor beriladi. Ularni fakultativ kurs (to'garak) mashg'ulotlarida ham muhokama qilish tavsiya etiladi. Shuningdek, matematika o'quv dasturiga yangi kiritilgan loyiha ishlariga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Bu loyiha ishlariga mavzu sifatida PISA topshiriqlari yoki ularga o'xshash kichik ilmiy ishlanishlarni talab qiladigan topshiriqlarni berish tavsiya etiladi.

**Akromov Alisher Temirovich, Mamatov Usmon Eshonqulovich
(Muzrabot, O'zbekiston)**

INTERFAOL METODLARNI MASHG'ULOT MAQSADIGA MUVOFIQ TANLASH

*Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo'lsa ham, ikkisi bir- biridan
ayrilmaydurgan, birining vujudiga biriga boylangan jon ila tan kabitur.
Abdulla Avloniy*

Istiqol yillarida ta'lim sohasi davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami va salmog'i bunga misoldir. Qisqa fursat ichida ta'lim rivoji yo'lida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, keng ko'lamlil o'zgarishlar zamirida hukumatimizning mazkur sohaga nisbatan yuksak e'tibori mujassam. "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", uning mantiqiy davomi sifatida qabul qilingan "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi" hamda qator ta'lim sohasiga tegishli prezident farmonlari, farmoyishlari va hukumat qarorlari qabul qilinib, yurtimizda keng miqyosda tadbir qilinmoqda.

Davlat mustaqilligini mustahkamlashning eng asosiy shartlaridan biri – mustaqil shaxsni shakllantirishdir. Mustaqil fikrlash, ishlash va yashash madaniyatiga ega bo'lgan fuqarolar soni qancha ko'p bo'lsa, davlatimiz qudrati shuncha tez mustahkamlanadi.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, «... erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. Boshqacha aytganda, biz o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondoshadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak» (Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- T. 1999, 17-18-b.)

Bunday umumdavlat, umumjamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan murakkab vazifani uddalash eng avvalo ta'lim muassasalariga, shu jumladan umumiy o'rta ta'lim maktablari zimmasiga tushadi. Shunday sharoitda yoshlardagi iqtidor va qobiliyatni yanada o'stirish, ularda ilmiy izlanish ko'nikmalarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini kengaytirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika ilmi va amaliyotdan ma'lumki, nazariyadan yo'naltirilgan ta'limga qarab borish o'quvchining ijtimoiy hayotda o'z bilimi va qobiliyatini namoyish etish imkoniyatini yaratadi.

Ta'limni isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan hukumat qarorlarining negizida barkamol avlod tarbiyasi asosiy vazifa sifatida qaralmoqda. Umumiy dunyoqarashni belgilab beruvchi faol hayotiy pozitsiya ko'nikmasi yetarli darajada shakllantirilmasa, mustaqil davlatning talab va ehtiyojlariga mos keladigan komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish muammosi to'liq hal bo'lmaydi.

Yosh avlodni o'qitishning o'zak nuqtasini darslar tashkil qiladi. Ayni mana shu jarayonda o'qituvchi va o'quvchi muloqotlarining oliy nuqtasiga ko'z tashlanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarning

mazmuni qanday bo'lishi kerak, mavzu maqsadini qo'yishda nimalarga e'tibor qaratish kerak, darsining samaradorligi nimalarga bog'liq kabi qator savollar tug'iladi.

XX asrda psixologiya-pedagogika fani bu savollarga o'zgacha yondashgan holda munosabat bildirdi. Oldingi qarashlarni tubdan o'zgartirdi. Bola shaxsini shakllantirishda turli ijtimoiy va psixologik omillarning roli aniqlandi.

O'sish va rivojlantirish jarayonida bola har xil ta'sir va munosabatlar ishtirokchisi (sub'yekti va ob'yekti)ga aylanadi. Shunga ko'ra, bugungi kunda pedagogika va metodikada darsga nisbatan ikki xil yondashuv mavjud.

Birinchi yondashuvga ko'ra, dars –bu o'qituvchining o'quvchilarga bilim berish va shu asosida ularda ko'nikma, malaka shakllantirish, ularni tarbiyalash jarayoni. O'qituvchining asosiy vazifasi – “o'quvchini chuqur va puxta bilim bilan qurollantirish, tushunib, o'zlashtirib borish orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash”.

Ikkinchi yondashuvga ko'ra, dars – chegaralangan vaqt ichida belgilangan mavzu va maqsad asosida o'qituvchi va o'quvchilarning teng huquqli hamkorligiga asoslangan bilim, ko'nikma, malaka hosil qilish jarayoni. O'qituvchining asosiy vazifasi-o'quvchilarda bilim olish ehtiyojini tarbiyalash.

I. S. Yakimanskayaning fikricha “shaxsga yo'naltirilgan darsning maqsadi o'quvchilarning biluv faolligini namoyon etishlari uchun shart – sharoit yaratishdan iborat”

Ta'lim jarayonining sub'yekti – o'quvchi

Ob'yekt – o'quv mavzusi

O'qituvchi – o'quvchi mavzu o'rtasidagi ko'prik

Bugungi kunda biz an'anaviy dars va noan'anaviy dars terminlaridan foydalanamiz. An'anaviy, noan'anaviy darslar xususida to'xtaladigan bo'lsak, an'ana- o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida o'z o'rnini topgan, avloddan avlodga o'tadigan, takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida (umuman yoki ma'lum guruh tomonidan) qabul qilingan tartib va qoidalar.

Ma'lum urf –odatlarning o'zgarishi, yo'qolishi va o'rniga yangisining paydo bo'lishi an'ananing buzilishiga olib keladi. Noan'anaviy darsda ham xuddi shunday: dars bosqichlari ketma-ketligining o'zgarishi barcha o'rgangan odatiy darsdan o'zgacha – noan'anaviy dars sifatida qabul qilinadi.

Kim uchundir noan'aviy bo'lgan dars boshqalar uchun an'anaga aylangan bo'lishi mumkin. Har bir darsga “noan'anaviylik” elementlari qo'shilishi, har bir darsda o'quvchilarga “shakar choy” berilishi zarur.

Har bir noan'anaviy dars an'anaviyga aylanishi va yangi noan'anaviy darslar paydo bo'lishi kerak.

Barcha fanlardan darslarning shakllari ko'p. Eng ko'p tarqalgan turlari sifatida ma'ruza, suhbat, konferensiya, bahs – munozara, musobaqa va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Darslarning tarkibiy qismlari va bu qismlarning o'zaro munosabatlari alohida e'tiborga molik. An'anaviy darslarda odatda dastlab uy vazifasi o'quvchilarning ko'pchiligidan so'rab chiqiladi, keyin yangi mavzu o'tiladi, u mustahkamlanadi, o'quvchilarga uy vazifasi topshiriladi. Bu jarayonlarni tashkil etish va amalga oshirishda yetakchi shaxs sifatida o'qituvchi maydonga chiqadi. Uzoq yillar davomida hukmronlik qilib kelgan mazkur shakl bugungi kunda zamonaviy talablarga javob bermay qoldi. Shuning uchun ham uning o'rniga yangicha shakl va

usullar kirib keldi, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar davri boshlandi, deb ayta olamiz. Shu o'rinda, ta'lim sohasiga jadallik bilan kirib kelgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida ham to'xtalib o'tamiz.

Pedagogik texnologiyaning maqsadi aniq masalalar qo'yish orqali o'quvchini o'ylashga, mustaqil fikrlashga odatlantirishga qaratilgandir, zero, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr- qimmatini anglaydigan, immoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz.

Zamonaviy darsni o'tkazish bo'yicha o'qituvchiga tavsiyalar

Har bir dars tashkiliy qismdan boshlanadi: bu davrda o'qituvchi o'quvchilarni, sinf xonasini, ta'lim vositalarini darsga tayyorlaydi. Ayniqsa o'quvchini psixologik jihatdan darsga tayyorlash muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar avvalgi dars yoki tanaffusda bo'lgan biror voqea – hodisa ta'sirida bo'ladilar. Shuning uchun ham o'qituvchi o'quvchilarni e'tiborini, diqqatini, xayolini fikriy faolligini o'z darsiga burishi lozim.

Darsning tuzilishi yoki dars bosqichlari

Darsning tuzilishi, ya'ni uning bo'linadigan bosqichlari va ularning izchilligi o'qitish uslubiga, ta'lim bosqichiga, darsning maqsadi va mazmuniga bog'liq. Odatda o'rta maktablardagi darslarning tarkibiy qismlari yoki bosqichlari quyidagilardan iborat.

1. Tashkiliy qism.(o'tilgan materialni esga solish)
2. Yangi material bilan ishlash.
3. Yangi materialni mustahkamlash.
4. O'tilgan materialni so'rash
5. Baholash
6. Umumlashtiruvchi qayta aloqa (yangi va o'tilgan mavzu yuzasidan mustahkamlovchi so'rov).
7. Uyga vazifa berish.

O'quvchilarda darsga ichki tayyorgarlikni ta'minlash eng dolzarb vazifadir. Odatda bu davrda quyidagi usullar keng qo'llaniladi, jumladan: O'qituvchi darsga kiradi, sinfni ko'zdan kechiradi, boshqa ish bilan band bo'lgan o'quvchi yoki o'quvchilar tayyor bo'lgunlariga qadar ularni kuzatgan holda kutib turadi, so'ngra salomlashadi. Bu o'rinda o'qituvchi sinfning tozaligi, doska, latta, bo'r kabi vositalarni darsga tayyorligi, o'quvchilarning kiyimlari ko'rinishlari, bosh kiyimlarning yechilganligi va boshqalarga qoniqqanidan so'ng salomlashsa va bu har darsda takrorlansa, ushbu o'qituvchining darsiga o'quvchilarning talab darajasida tayyorgarlik ko'rinishlari odat tusiga kirib qoladi.

Tashkiliy qismda tashkiliy savollardan tashqari o'tilgan mavzu yoki yangi o'tiladigan mavzu yuzasidan motivatsion (qiziqiruvchi) savollar berilsa, o'quvchi doimo darsga nisbatan tayyor bo'lish ma'suliyatini his qiladi.

1. Ma'lum o'quvchining shaxsiga tegmagan holda tanbeh berish usuli bilan sinfni, xonani darsga tayyorlash va jimlikni ta'minlash mumkin.

2. O'quvchilarni avvalgi taassurotlaridan chalg'itish, ulardan ichki faollikni ta'minlash maqsadida barcha o'quvchilar biladigan va ushbu darsga aloqasi bo'lgan voqeani eslatish mumkin.

3. O'quvchilar diqqat e'tiborini jalb qilish niyatida o'qituvchini o'zi namuna ko'rsatishi, qog'ozlarni terishi, stol oldiga kelib turishi, kitob daftarini stol ustiga qo'yishi va o'quvchilardan ham xuddi shunday munosabatni talab qilishi mumkin.

Bularning hammasi o'qituvchining muomala madaniyatiga, o'quvchilarga bo'lgan samimiy munosabatiga va uning kollektivdagi obro' e'tiboriga, qat'iyatiga, o'zini tutishi va bir so'z bilan aytganda pedagogik mahoratiga bog'liq.

Darsni boshlashdan avval ehtiyotsizlik bilan qilingan har qanday harakat yoki aytilgan so'z o'quvchilarni ranjitishi, darsdagi psixologik holatni, vaziyatni buzishi va o'quvchilar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xonada o'quvchilar e'tiborini tortadigan narsalarni o'quvchilar e'tiboridan chetda saqlash lozim. Shuning uchun ham yangi darsga tegishli bo'lgan ko'rgazmali qurollar, jadval va rasmlarni avvaldan ilib qo'yish tavsiya qilinmaydi. Shu bilan birga darsdan avval turli tadbirlar haqida xabar berish yaramaydi.

Tashkiliy davr ko'p vaqt olmasligi lozim. Pedagogikada bu davr uchun bir necha sekunddan bir minutgacha vaqt beriladi. Buni ta'minlash uchun o'qituvchi avvalgi darslarida bunga ko'p vaqt ajratishi lozim. Toki sinfni darsga tayyor turishi o'qituvchi va o'quvchilar odat tusiga kirib qolsin. «U domlamiz indamaydi», «Domlamizga baribir», «Tezroq bo'linglar domla kelyapti, yana tanbeh eshitamiz» degan jummalarni har bir o'quvchidan eshitish mumkin. Qaysi jumlani aytirish o'qituvchining o'ziga bog'liq. Shuni unutmaslik kerakki, bilimdon, talabchan o'qituvchini aksariyat o'quvchilar hurmat qiladilar. Tashkiliy davr o'quvchilarga ham ruhiy, ham jismoniy kuch-quvvat berishi lozim. Bu ko'pincha o'qituvchining mahorati: ovozi, salomlashishi, kayfiyati, o'zini tutishi, tashqi ko'rinishi, samimiyligi, (yumorga) boyliligi bilan belgilanadi.

Siz samarali muloqot qilishda o'quvchilarning yoshi, ma'lumoti, ma'naviy olami va madaniyati, shuningdek, suhbat vaqti va vaziyat muhim ahamiyatga egaligini bilasiz. Quyida samarali muloqot qilishda qo'l keladigan ayrim qoidalar va tavsiyalar berilgan. Bu foydali ma'lumot ish faoliyatingizga yordam beradi deb umid qilamiz.

Marhamat, ular bilan tanishing.

Dars davomida o'quvchilar signal (xabar)lar yuboradilar.

Agar insonlarning kayfiyatlari yaxshi bo'lsa:

- Ko'z orqali kontakt (aloqa) qidirishadi

- Oldinga egilishadi

- Qo'lini uzatishadi

- Tabiiy jilmayishadi

- Erkin turishadi va o'tirishadi

Agar insonlarning kayfiyatlari yomon bo'lsa:

- Ko'z kontaktidan qochishadi

- Orqaga tisanishadi

- Oyoqlarini stol tagiga yashiradilar (stol tagida chalishtiradilar)

- Qo'llarini ko'ksilarida qovushtiradilar

- Jiddiy holatda turadilar

O'quvchilar guruh bo'lib yuboradigan signallar

1. Notinch harakat

O'quvchilar u joydan bu joyga suriladilar, bir – birlari bilan gaplashadiular, bir – birlariga varaqlar uzatadilar, keraksiz ishlarni qiladilar. Demak, Siz o'z

o`quvchilaringizni yo`qotayapsiz. Darsingiz juda zerikarli yoki ular axborot qabul qila olmaydigan darajada charchadilar.

2. Motamsaro sukunat

Material haddan tashqari oddiy va sinfda na savollar va na izohlar paydo bo`lmayapti. Shunday muhit vujudga kelganki, o`quvchilar o`z fikrlarini aytishdan qo`rqadilar, o`z mulohazalaridan uyaladilar.

3. Siz gapirayotganingizda ular sizga qarashadimi?

Agar qarashsa, demak, o`quvchilar o`zlarini har jihatdam qulay his qilishadi va Sizning gapingiz ularni jalb qiladi. Agarda ular ko`zlarini olib qochishsa, demak, nimadir joyida emas.

4. O`quvchilar suhbat chog`ida bir – birlarining ko`zlariga qarashadimi?

Agarda qarashsa, demak, o`quvchilar o`zlarini yaxshi his qilyaptilar, ochiq suhbat va muloqotga tayyordirlar, agar ikki yoki undan ortiq o`quvchi suhbat chog`ida bir – birlariga qarashmasa, demak, sinfda muammolar yuzaga kelgan.

5. Holatlar

O`quvchilar, odatda, nimadir aytmochi bo`lganlarida oldinga egilib, holatlarini o`zgartiradilar. Bu holat o`quvchilarning taranglashuvi yoki bo`shashganliklarini bildiradi. Holatning charchash va hushyorlik signali bo`lishi mumkinligi tabiiydir.

Savollar berib o`z farazlaringizni tekshirib olsangiz, muammolarni yechish oson bo`ladi.

O`z farazlaringizni tekshiring. O`quvchilar bilan aloqangizni yaxshilang. O`zingizni tutishingiz va uslubingiz mashg`ulotning yo`nalishini belgilaydi - ruxsat beradi yoki ta`qiqlaydi.

O`qituvchi ham sinf o`quvchilariga noverbal signallar yuboradi.

Kongruentlik (ustma- ust tushadigan) – inson tomonidan talaffuz qilingan nutq va noverbal signallarning muvofiqligi. So`zlaganda gapingiz va qo`l yoki tana harakatlaringiz, yuz ifodangiz bir xil ma`noni ifoda etishiga alohida e`tibor bering.

Hurmatli hamkasb! Bola ta`limi va tarbiyasi bilan shug`ullanadigan kishilarning asosiy vazifasi nimadan iborat, bilasizmi? Ha, to`g`ri, savol berish ehtiyojini tug`dirish, savollarga vaqtda va qoniqarli javob berishga harakat qilish. Oqituvchilar egallashi lozim bo`lgan muhim ko`nikmalardan biri- savol berish va savollarga javob berish layoqatidir. Quyida e`tiboringizga “savollar” mavzusiga oid ma`lumotlarni keltiramiz. Eng avvalo, savol turlaridan boshlaymiz.

Ochiq savollar

Umumiy ochiq savollar – suhbatni rivojlantirish, davom ettirishga yordam beradi, ularga qisqa javob berib bo`lmaydi:

- Muammoning bunday yechimi ishga qanday yordam beradi?
- Qaror qabul qilinmasa, nima sodir bo`ladi?

Maxsus ochiq savollar:

1. Aniqlashtiruvchi savollar-vaziyatni yoki suhbatdoshning tuyg`ularini yaxshiroq tushunishga yordam beradi:

- O`z vazifalaringiz haqida batafsilroq gapirib bera olasizmi?

2. Ob`yekti o`zgartirilgan savollar- muloqotga sizning suhbatdoshingizni yoki boshqalarni jalb qilishga imkon beradi:

- Sizning fikringiz qanday?
- Lobar bu xususida nima deb o`ylaydi?

3. Tanlash huquqini beruvchi savollar – suhbatdoshga javobning turli xil (chegaralanmagan) variantlarini aytish imkonini beradi:

- Qachon uchrasha olamiz? Men seshanba kechqurun yoki yakshanba ertalab bo`shman. Yoki...

- Balki jamoaning fikrini so`rash maqsadga muvofiqdir?Yoki...

Yopiq savollar

Umumiy yopiq savollar- bunday savollarga “ha” yoki “yo`q” deb yoki qisqa to`g`ri javob berish mumkin:

- Siz bunday xulosalarga qo`shilasizmi?

- Soat necha bo`ldi?

Maxsus yopiq savollar:

1. Aniqlashtiruvchi savollar- yaxshiroq tushunishga yordam beradi, olingan axborotni boshqa jumalalarda qaytarishni nazarda tutadi:

- Men to`g`ri tushungan bo`lsam, ... mi?

2. Tenglash huquqini beruvchi savollar- suhbatdoshga javobning turli xil (2-3 variant bilan chegaralangan) variantlarini aytish imkonini beradi:

- Siz stolni oynaning tagiga qo`ymoqchimisiz yoki devor yonigami?

- Biz bugun kechqurun uchrashamizmi yoki ertaga ertalabmi?

3. Baholovchi savollar – natija, inson, buyumlarga nisbatan bahoni qamrab oladi:

-Nahotki siz shu oddiy narslarni bilmasangiz?

- Hammaga tushunarli, shundaymi?

4. Ko`rsatmaviy savollar – harakatga chorlaydi:

- Ushbu hujjatlarning nusxasini menga faks orqali jo`nata olasizmi?

- Biroz sukut saqlay olasizmi?

5. Qayd etuvchi savollar- muammo, dalil (asos), kelishuvlar, natijani qayd etadi:

- Demak, biz ...ga kelishdik-a?

Darsni baholash maqsadida qo`llanadigan qayta bog`lanish usullari

Ko`pincha dars oxirida o`qituvchi xulosa chiqarish, uyga vazifa berish bilan kifoyalanadi. Ayrim hollarda “Dars sizga yoqdimi?” deb so`rashi mumkin.Quyida qayta bo`g`lanishning ba`zi bir usullarini namuna sifatida keltiramiz.

Debriefing- ingliz askarlarining asirlardan barcha axborotni siqib so`rab olguncha bo`lgan jarayon, savol- javob orqali kerakli axborotni olish usuli. Aynan debriefing jarayonida bajarilgan ishlarning mohiyati aniqlashtiriladi, maqsadga erishganlik darajasi tahlil qilinadi, xulosa qilinadi, o`quvchilar bilib olganlari va yana o`rganishlari lozim bo`lgan material orasidagi munosabat o`rnatiladi, keyingi harakatlar rejasi belgilanadi.

Debriefing bosqichlari:

1. bosqich:faktlarni aniqlash(Nima sodir bo`ldi?)

2. bosqich:sabablar tahlili (Nega shunday bo`ldi?)

3. bosqich: harakatlarni rejalashtirish (Endi nima qilamiz?)

Birinchi bosqichda sodir bo`lgan voqealar qayd etiladi, hosil bo`lgan his – tuyg`ular oshkor etiladi, nima sodir bo`lishi mumkinligi to`g`risida emas, haqiqatdan amalga oshgan voqea haqida fikr yuritiladi.

Ikkinchi bosqichda voqeani keltirib chiqargan sabablar tahlil qilinadi, muqobil nazariyalar muhokama etiladi, misollar keltiriladi.

Uchinchi bosqichda keyingi qadamlar aniqlashtiriladi.

Gamburger

Qayta bogʻlanishning samarali usullaridan biri. Dars yakunida oʻquvchi uchun foydali maʼlumot olishga yordam beradi. Eslatib oʻtamiz: gamburger (inglizcha soʻz, oʻzbek tilida muqobili yoʻq, hozir turkcha kabobga oʻxshaydi)- ichiga choʻgʻ da pishgan, qovurilgan goʻsht qoʻyilgan non.Mazali boʻlishi uchun salat bargi, sabzi salati, mayonez, ketchup solinadi. “Gamburger” usulini qoʻllaganda oʻqituvchi soʻzini quyidagicha boshlashi mumkin:

- Hurmatli oʻquvchilar, koʻpchiligimiz gamburger nima ekanligini bilamiz, uni sevib isteʼmol qilamiz. Ayting-chi, uning kaloriya jihatidan qimmatli qismini nima tashkil etadi?(goʻsht).Siz uchun dars davomida nima qimmatli boʻldi?

Barcha oʻquvchilar oʻz fikrlarini bildiradilar. Keyin oʻqituvchi davom etadi:

- Gamburgerning mazasini nima buzdi?

- Gamburgeringizga nimalar yetishmayapti?

Fikrlar umumlashtiriladi, oqituvchi ham hamma qatori oʻz fikrini bildiradi.

Qiyofalar

Har bir ishtirokchi uchta (xursand, neytral, xafa) qiyofa chizilgan kartochka oladi va unda oʻzining, guruhning ishtirokini hamda dars mazmunini baholaydi. Doskaga konvert ilib qoʻyiladi. Ishtirokchilar baholash varaqalarini shu konvert ichiga soladilar.

Oltita shlyapa

Amalda undan har qanday ijodiy jarayonni tartibga solish, mantiqni emotsiyadan ajratib, yangi betakror gʻoyalar yaratish uchun foydalanish mumkin.

Bunda oʻqituvchi 6 xil rangdagi kichik qogʻozlardan ishtirokchilar soniga mos ravishda shlyapalar yasaydi.Bu shlyapalar dars boshlanishida kichik guruhlariga boʻlish uchun qoʻllanishi mumkin.Mashgʻulot yakunida har bir guruhga oʻz rangidagi boshga kiyish mumkin boʻlgan qogʻoz shlyapalar taqdim etiladi va muhokama olib boriladi.

Oq shlyapa: raqam va faktlar. Axborot. Savollar. Sodir boʻlgan voqea – hodisalar, guruh ishini xolis qayd (bayon) etish.Qanday axborotga egamiz? Yana qanday axborot zarur?

Qizil shlyapa: emotsiyalar,kuchi intuitsiya, his- tuygʻular. Hislarni asoslash talab etilmaydi.Taʼlim jarayonida oʻquvchilarda qanday hislar tugʻildi?

Qora shlyapa: ehtiyotkorlik. Jarayondagi salbiy holatlat. Kamchiliklar nimalardan iborat? Qanday xatolarga yoʻl qoʻyildi?

Sariq shlyapa: afzalliklar. Jarayonda qanday yutuqlarga erishildi. Ijodiy xulosalar chiqarish.Nima uchun bunday qilish maʼqul? Afzalliklari qanday? Nima uchun bu amalga oshadi?

Zangori shlyapa: ijodkorlik.Turli gʻoyalar. Yangi gʻoyalar. Takliflar. Yechimning turli variantlari.Qanday muqobillari mavjud?Jarayonni takomillashtirish yoʻllari.

Koʻk shlyapa: tahlil, mulohaza. Mulohaza haqida mulohaza. Qaror qabul qilish.Nimaga erishdik? Keyin nima qilish kerak?

Taʼlim – tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish kelgusi taraqqiyotimizning asosi ekanligi maʼlum. Bu haqda Prezidentimizning quyidagi soʻzlari ibratlidir:

Xulosa, Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim

dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.

Buning uchun har qaysi ota – ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo, shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan keib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T: O'zbekiston.
2. Hamjihatlik muhitini yaratish. Maktab bazasida malaka oshirish. Trenerlar uchun qo'llanma.
3. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, 2012 - yil, 4-son.

ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI:

1. www.ziyo.uz.
2. www.mail.ru
3. www.nationalsecurity.ru
4. alq so'zi gazetasi – www.infoxs.Uz
5. a'rifat jurnali – www.ma'rifat-inform.uz
6. <http://www.iste'dod.uz> - "Iste'dod" jamg'armasi sayti.

Ashurova O'g'ilshod Xolliyevna
(Termiz, O'zbekiston)

XALQARO BAHOLASH TIZIMI, TIMSS DASTURIDA G'AZAL VA UNING TAHLILI

Xalqaro baholash dasturlari – PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS yurtimizda olib borilayotgan yoshlar siyosatiga ham sezilarli darajada o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chunonchi, yoshlarimizni ko'proq o'qibo'rganishga, erkin va ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Bugungi kun ta'labi bilan aytadigan bo'lsak, yoshlarga bo'lgan e'tibor dunyo miqyosidagi talablar bilan tenglashtiriladi.

2020-yil 25-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham "Biz bu yil ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash masalasini yangi bosqichga olib chiqamiz" degan tantanavor fikri ham biz ayollar va yoshlarga o'zgacha ruh, o'zgacha shijoat berdi.

Bunga esa, eski baholash tizimi bilan erishib bo'lmaydi. Rivojlangan xorijiy davlatlarda baholash tizimi biznikiga umuman o'xshamaydi, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim. Ularning ko'pchiligida boshlang'ich sinflarda o'quvchilar baholanmaydi, faqat og'zaki rag'batlantirilib boriladi, o'quv yili yakunida test yoki yozma ish o'tkaziladi. O'quvchining ta'lim faoliyati natijalarini baholash har doim va barcha turdagi maktablarda mavjud bo'lgan.

O'quvchi faolligini baholash albatta aniq shaklda va ma'lum algoritmgga muvofiq ifoda etilishi kerak. O'quv jarayonining tarkibiy qismlaridan biri o'quvchilarning yutuqlarini baholash va qayd etish tizimidir. Baholash tizimining ta'lim tizimini rivojlantirishdagi o'rni beqiyosdir, chunki bu maktabdagi ta'lim sohasidagi eng aniq birlashtiruvchi omil, o'quv muammolarini tashhislash va fikr-mulohazalarni bildirish vositasi.

Bunday holda, baholash tizimi deganda nafaqat markalashda foydalaniladigan o'lchov va odatda belgilanadigan ballar belgilanadi, balki umuman o'qituvchi, o'quvchi va ota-onalar o'rtasidagi nazorat-diaagnostik munosabatlarni amalga oshirish mexanizmi, shuningdek, o'quv jarayonining muvaffaqiyati to'g'risida tushuniladi.

Bolani muvaffaqiyatli o'quv faoliyatiga undash uchun psixologik jihatdan qulay o'quv muhitini yaratish lozim:

- Baholashning sub'ektivligi, ayniqsa, past ko'rsatkich, ko'pincha bolalar, o'qituvchilar va ota-onalarning bezovtalanishi va asabiylikni kuchaytiradigan, ularni sherik emas, balki o'quv jarayonidagi raqibga aylantiradigan ishonchsizlik va nizoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi.

- Amaliy baholash amaliyoti o'quvchilarni bilimlarni emas, balki baholar olishga undaydi. Baho, siz bilganingizdek, nafaqat baholash shakli, balki maktabdan tashqarida jazolash va rag'batlantirishning kuchli vositasidir. Shu munosabat bilan vaziyatni konstruktiv tahlil qilish va muammoli joylarni yo'q qilish usullarini izlash lozim.

- Faoliyat natijasini jarayonning yetarlicha aks etmasdan baholashga qaratish o'quvchilarning o'zini o'zi hurmatini shakllantirishga salbiy ta'sir qiladi.

Xalqaro baholash dasturlari mezoni asosida baholash faoliyatini amalga oshirishning umumiy vositalari va shakllarini ishlab chiqish. O'quvchining

muvaqqiyat darajasi o'qituvchi va o'quvchining shaxsiy munosabatlariga, shuningdek, o'qituvchining natijalarini subyektiv baholashiga bog'liq bo'lmasligi kerak. Maktab o'quvchilarining bilimlari, ko'nikmalari va qobiliyatlarining o'sishi, ular uchun yetarli qadriyatlar tizimini shakllantirish, ba'zi bir shartlar bilan o'qituvchining faoliyati natijasi deb hisoblanishi mumkin. Yuqorida biz o'quvchining bahosi o'qituvchi samaradorligining ko'rsatkichi bo'lishi mumkin emas degan xulosaga keldik, ya'ni o'quv faoliyati sifati to'g'risidagi hisobot o'qituvchilarni attestatsiyadan o'tkazishda ob'ektiv ko'rsatkich hisoblanmaydi.

Baholash tizimidagi islohotlar, agar yangi vositalar va ish shakllarini eskilar, o'qituvchilar, bolalar va ularning ota-onalari o'zlari 5 ball dan foydalanishni rad qilsalargina, o'zlarining pedagogik vazifalarini bajaradilar. Masalan, o'quvchi savolga mukammal javob berdi, barcha materiallarni taqdim etdi, o'z nuqtai nazarini bildirdi. U "5" deb baholandi.

Boshqa bir o'quvchi matnni aniq takrorladi va bir xil "5" oldi. Bu esa noto'g'ri chunki, tekshirish uchun yetarli emas. Buni har bir ta'lim fanining yutuqlarini baholashning yanada mazmunli usuli bilan almashtirish muhimdir. Yoki bo'lmasa, xalqaro baholash dasturlari – PISA, TIMSS, PIRLS mezonlari asosida baholashni tatbiq etish, bizni baholash mezonlarimini unga moslashtirishimiz maqsadga muvofiq. Misol uchun, PIRLSda bajarilgan ishlarni sifatli va miqdoriy baholash uchun quyidagi tizim qo'llaniladi: javobni tanlash bilan topshiriqlar 1 ball bilan baholanadi, tadbirlar ketma-ketligini belgilash uchun vazifalar 1 ball bilan 50 baholanadi, erkin javobga ega bo'lgan topshiriqlar vazifaning murakkabligiga qarab 1 ball dan 3 ballgacha baholanadi.

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi TIMSS xalqaro baholash dasturini qo'llashdan oldin o'quvchilarda mustaqil fikr yutirish ko'nikmasini shakllantirish kerak. Bunda mumtoz adabiyotimizning g'azallarini tahlil qilish juda qo'l keladi. Avvalo g'azal o'qituvchi tomonidan maromiga yetkazib (imkon qadar yoddan) o'qib eshittiriladi. Shuningdek, sinfdagi she'rni yaxshi o'qiy oladigan o'quvchilardan biriga yod oldirib o'qitsa ham bo'ladi.

O'qishda albatta aruz vazni qoidalariga rioya qilgan holda she'rda ifodalangan mazmunga muvofiq ohang ham tanlanishi kerak. O'qish texnikasiga ko'ra birinchi misra oxirida ohang ko'tariladi, ikkinchi misra avvalida shu ohang ushlab turiladi va asta-sekin pasayib, bayt oxiri tugallanish ohangi bilan yakunlanadi.

G'azalni tinglagach, birgalikda uning qanday mavzuda yozilganligini aniqlash lozim. O'qituvchi avval boshdan g'azal mavzusini o'zi aytib qo'ymasdan, bolalardan so'rashi maqsadga muvofiq. Ular ishqiy mavzu yozilgan g'azallarni darrov ilg'ay oladilar.

Lekin didaktik, falsafiy, ba'zan peyzaj g'azallar mavzusini belgilashda qiynalib qolishlari mumkin. Shunda muallim she'r mavzusini qanday aniqlash lozirligini uning belgilaridan – bosh qahramon, tasvir ob'ekti yoki kechinmalar bayonidan kelib chiqib, tushuntirmo'g'i kerak.

G'azalda ishtirok etayotgan asosiy obrazlar aniqlanadi. Ishq-muhabbat mavzusida asosiy uch obraz bor: oshiq, ma'shuqa (yor), raqib. Obrazilarga qarab g'azalning tasvirga ko'ra turi aniqlanadi: a) unda oshiqning ichki 355 kechinmalari, oshiqona tuyg'ulari ifodalangan bo'ladi (Lutfiyning "xoh inon, xoh inonma", "bu ko'nguldur, bu ko'ngul", Navoiyning "kelmadi", "bo'ldim sanga" radifli g'azallari va

boshq.); b) agar ma'shuqa (yor) go'zalligi yoki uning xarakter xususiyatlari ifoda etilgan bo'lsa, ma'shuqa vasf qilingan g'azal sanaladi (Lutfiyning "Ayog'ingga tushar har lahza gisu", Ogahiyning "aylansun" radifli, Furqatning "Surmadin ko'zlar qaro..." g'azallari); v) aksar hollarda ushbu ikki xususiyat o'zaro aralashgan yoki uyg'unlashgan holda keladi (Navoiyning "qilg'il", "deyin", Boburning "mushkuldur", "topilmas", Ogahiyning "ustina" radifli g'azallari va b.). Didaktik g'azallarda bosh obraz hayot haqiqatlari, inson hayoti mohiyati to'g'risida fikr yuritayotgan donishmand shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Ko'p hollarda bu shoimong o'y-mulohazalari sifatida olinadi (masalan, Avaz O'tarning "Til", Zavqiyning "Jahonda kamsuxan kim bo'ldi", Furqatning "bormasmiz" g'azallari va boshq.). Peyzaj g'azallarda bosh obraz tabiatdir. Unda biror yilning fasli (qish, bahor, kuz, yoz), tabiat hodisasi (yomg'ir, shamol), daraxt, meva kabilar tasvir ob'ekti sifatida olinadi va lirik qahramon kechinmalari ifodasi uchun vosita bo'lib xizmat qiladi (Ogahiyning "navro'z", "qish" radifli, Furqatning "Fasli navbahor o'ldi..." g'azallari). Ko'p hollarda tabiat timsoli ishqiylar kechinmalar izhori yoki jamiyat voqeiklari talqini bilan uyg'unlashib ketishiga Asosiy obrazlar aniqlab olingach, har bir bosh obraz atrofida guruhlangan ikkilamchi obrazlarni ajratib olmoq kerak.

Ikkilamchi obrazlar bosh obrazning qay jihati, xarakter xususiyatining qaysi qirrasini yoritilayotganini aniq, ravshan his etish, anglash va shoir mahoratini idrok qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Masalan, 8-sinf darsligidagi "ne bo'lursan" radifli g'azali maqta'siga diqqat qilaylik: Ey odamiylar joni, parig'a ne bo'lursan? Bu jism ila gul bargi tarig'a ne bo'lursan? Birinchi misrada yorga qarata "ey odamiylar (oshiqlar) joni" deb murojaat qilinmoqda. Ma'lumki, jon – insonning ruhi, nafi. Ruh ko'zga ko'rinmas latif bir substansiyadir.

Bu yerda "odamiylar joni" birikmasi ikki maqsadga ko'ra qo'llangan: avvalo, yorning odamlar jonidan joy olgani, ko'nglidan urgani, ikkinchidan, jon (ruh) kabi o'zi maftun etgan odamlar (oshiqlar) ko'ziga ko'rinmasligi. Ana shu tasvir mohiyatiga mos ravishda misra davomida pari poetik obrazi qo'llangan.

Parilar Yaratganning g'ayb olami maxluqlari bo'lib, ular odamlar ko'ziga ko'rinmaydigan jinlar jinsidandirlar. Goh-goh ko'zga ko'rinsalar ham g'oyat go'zal, aqini lol qilajak darajada sohibjamol qiyofada namoyon bo'ladilar.

Demak, ma'shuqaning kamdan-kam ko'rinish berishi, qachondir yuz ko'rsatib, oshiqlar jonini olgach, benishon ketganligini ifodalash uchun pari poetik obrazi bu o'rinda shoirga qo'l kelgan. Ishqiylar g'azallarda Yaqub poetik obrazi Yusufdek beqiyos husn sohibi bo'lmish yordan ayriliqdagi xilvatnashin oshiqning ruhiy to'lg'onishlari, cheksiz qiynoqlari ifodasi uchun, Farhod poetik obrazi vasl uchun doimo intilishda, harakatda bo'lgan, ma'shuqa lutfiga qat'iy ishongan, ishqi yo'lida har qanday to'siqlarni bartaraf etishga o'zida kuch topa oladigan shaxs qiyofasini gavalantirish uchun, parvona esa muhabbat o'tida kuyishini, yonib kul bo'lishini bila turib, unga o'zini uradigan sadoqat ramzini talqin etish maqsadida bosh obraz siyomosini to'ldiruvchi vosita sifatida keltiriladi va hokazo.

O'qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida g'azaldagi har bir poetik obrazning qanday badiiy vazifa bilan xoslanganligini aniqlab olishi va tahlili davomida o'quvchilarni ana shu vazifani anglashlari tomon yo'naltirmog'i g'oyat muhim didaktik yumushlardan biri sanaladi. Agar o'qituvchi bungacha aruz vazni to'g'risida o'quvchilarga tushuncha bergan bo'lsa, bu g'azal vaznini topishni topshiriq qilib bersa bo'ladi. Agar bolalar vazni aniqlashga qiynalishsa, o'qituvchining o'zi yordam

berishi kerak. Qiyin va murakkab vaznda yozilgan g'azallarni o'qituvchi faqat qaysi o'lchovda yozilganligini qayd etib qo'yish bilan cheklanishi mumkin. Tahlil tugagach, adabiyot muallimi o'quvchilaridan g'azaldan olgan taassurotlarini so'raydi.

Xulosa, g'azallarni tahlil qilishda davr muhiti, ijodkorning kimligi inobatga olinishi lozim. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish kerak. O'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etishni maqsad etar ekanmiz baholash tizimini tubdan o'zgartirish kerak, deb hisoblayman.

ADABIYOTLAR:

1. Tashkenbayev U. N. va boshqalar. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. – Toshkent, “Sharq”, 2019. 5-bet.
2. O'quvchilari bilimlarini baholashning takomillashtirilgan reyting tizimi to'g'risidagi NIZOM (XTVning 2010 yil 20 iyuldagi 178-sonli buyrug'iga 1-ilova).
3. Башкин М. В. Формирование психологически комфортной и безопасной образовательной среды. Ярославль, ЯрГУ, 2014. 44-45 с.

**Atajonova Anorgul Jumaniyazovna, Mavlanova Charos Erkinbay qizi
(Urganch, O'zbekiston)**

**BOLALAR NUTQINI O`STIRISHDA O`ZBEK VA JAHON ADABIYOTI
NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING METODIK JIHATLARI**

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bola tarbiyasidek o`ta mas`uliyatli vazifani amalga oshirishda, shuningdek, bolalar nutqini o`stirishda badiiy adabiyotning o`rni hamda jahon adabiyoti namunalaridan foydalanishning metodik jihatlari haqida so`z yuritiladi.*

Kalit so`zlar: *badiiy adabiyot, og`zaki ijod, yozma adabiyot, barkamol avlod, intellektual salohiyat, kitobxonlik madaniyati, hikoya qilib berish, badiiy so`z.*

Аннотация: *В данной статье говорится о роли художественной литературы и о методических аспектах использования мировой литературы в развитии речи и воспитании детей.*

Ключевые слова: *художественная литература, устное творчество, письменные источники, гармоничное поколение, интеллектуальные способности, культура чтения, пересказ, художественное слово.*

Annotation: *In this article discusses the role of fiction in the implementation of a very important task, such as raising children, as well as the development of children's speech, as well as methodological aspects of the use of world literature.*

Keywords: *fiction, oral, written literature, harmoniously developed generation, intellectual potential, reading culture, storytelling, fiction*

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimining bosh maqsadi bevosita ijtimoiy-gumanitar fanlarni puxta biladigan, huquqiy savodxonligi yuqori bo'lgan, jahon maydonida o'z bilimi orqali raqobatlasha oladigan, o'zining fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, Vatani hamda millatiga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ularini namoyon eta olish xislatlarini pedagoglarda shakllantirishga yo'naltirilgan.

MTMlarda bolalar tarbiyasida o'zbek va jahon adabiyoti namunalaridan foydalanishdagi muammolardan biri bolalar yoshi va ruhiyatiga mos, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni bolalar ruhiyatiga singdira oladigan adabiyot namunalarini tanlash orqali ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish metodikasini ishlab chiqish, unga mos ishlanmalar yaratish hamda amaliyotga joriy qilish zarurligidir.

Bola tarbiyasidek o`ta mas`uliyatli vazifani amalga oshirishda, shubhasiz, badiiy adabiyotning alohida o`rni bor. Chunki badiiy adabiyotda farzandlarimizni ilk yoshidan boshlab go`zallikka oshno etuvchi, ezgulik, yaxshilikning nurli yo'llari bo`ylab yetaklovchi boy og`zaki ijodi va yozma adabiyot o`z aksini topgan. Xususan, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Sa'diy Sheroziy va Sharqning boshqa buyuk allomalari qalamiga mansub bolalarbop asarlarda; axloq-odobga doir hadislarda, shuningdek, jahon xaqdari bolalar badiiy adabiyoti namunalari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning tarbiyasida diqqatga sazovordir.

Shu bois Respublikamizda barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning

intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni har tomonlama rivojlangan shaxs etib voyaga yetkazishda o'zbek va jahon adabiyoti namunalarining ahamiyati beqiyosdir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi"da ham maktabgacha ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayonida badiiy adabiyot asosida tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish zarurligi ko'zda tutilganki, bular maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida o'zbek va bolalar adabiyoti namunalaridan o'rinni va samarali foydalanish, bolalarda yoshligidanoq badiiy adabiyotga havas uyg'otish, ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ularni badiiy asarlar bilan tanishtirish va maktab ta'limiga tayyorlash dolzarb masalalaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

So'z boyligi bolaga barcha mashg'ulotlarda beriladigan bilimlarni tez va puxta o'zlashtirib olish va bu bilim, tushunchalarni nutq orqali ifodalash imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, bola kamoloti uchun ham keng yo'l ochadi. Bilimlarni puxta egallashga, uni sekin-asta hayotga tatbiq etishga ham o'rgatadi. Ona tili aqliy tarbiyaning manbayi va vositasi hamdir.

K. D. Ushinskiyning fikricha, bolaga ta'lim va tarbiya berishda tilning qimmatli dastlab ijtimoiy hodisaning chuqur xalqchilligi bilan, uning milliy xarakteri bilan belgilanadi. U "... tilda chuqur ma'noli ko'pdan ko'p falsafiy fikrlar, chinakam nafis his-tuyg'ular, nihoyatda to'g'ri, ko'rkam did, fikrni bir yerga to'plab, zo'r diqqat bilan qilingan mehnat izlari, tabiat hodisalarini va ulardagi eng nozik rang-barangliklarni g'oyat darajada ziyraklik bilan his etish, kuzatuvchanlik, zo'r mantiqiylik... bor"¹ deb ta'riflaydi.

Shoira Zulfiya ta'kidlaganidek: "Ona tilini mukammal o'rgangan kishi ona yurtining tarixini to'liq o'rganish baxtiga muassar bo'ladi".

Ona tili bolalarda vatanparvarlik, baynalmilal tuyg'ularni o'stirib borishda, bolalarning madaniy saviyalarini oshirib borishda qudratli vosita bo'lib xizmat qiladi. Demak, ona tili bolalarni axloqiy tomondan tarbiyalash vositasidir.

Ona tilini o'qitish - bolalarning bilish qobiliyatini rejali, aniq maqsadni ko'zlagan holda rivojlantirish, ularning atrof-olam haqidagi eng oddiy bilimlarni va tegishli lug'atni o'zlashtirish, nutqiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishning asosiy shakli – mashg'ulotlardir.

Didaktik maqsadlar bo'yicha quyidagi mashg'ulotlar turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- yangi materialni ma'lum qilish mashg'uloti;
- bilimlar, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlashga oid mashg'ulotlar;
- bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirishga oid mashg'ulotlar;
- yakuniy mashg'ulotlar yoki hisob-tekshiruv (nazorat) mashg'ulotlari.

Bolalarga ona tilini o'qitishga doir mashg'ulotlar har bir guruhda bolalarning yosh imkoniyatlarini va har bir bolaning nutqiy rivojlanganlik darajasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Chunki bilimlar mazmuni, ularning tarkibi, metod va usullarni tanlash, haftasiga o'tkaziladigan mashg'ulotlar soni, har bir mashg'ulotning davomiyligi shunga bog'liq bo'ladi.

To'g'ri ta'lim berilgan taqdirda yetti yoshga kelib bola og'zaki nutqni egallaydi hamda katta yoshli yaqinlari va tengdoshlari bilan erkin muloqotga kirisha oladi;

¹ Ushinskiy K. D. Tanlangan asarlar. O'quvpeddavnashr. - T., 1959, 398- bet.

dialogda tashabbus ko'rsatib fikr bildiradi, suhbatdoshi e'tiborini o'ziga jalb qilish, unga so'z, harakat va so'zsiz usullar bilan javob bera olishni biladi; fikrlarini to'liq va noto'liq oddiy gaplar, qisqa matnlar shaklida ifodalay oladi;

- tanish etaklarni hikoya qilib berish, multfilmlar, kitoblar mazmunini aytib berish hamda biron-bir voqeani to'qib chiqarishga qiziq boshlaydi;

- fikr bildirishlarda nutqning turli qismlarida tashbehlar, qiyoslashlar va sinonimlarni qo'llaydi;

- nutqqa tanqidiy munosabat bildira boshlaydi, grammatik jihatdan to'g'ri so'zlashga intiladi, shu tufayli so'z to'qish barham topadi, agrammatizmlar soni kamayadi; ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz etadi.

Bolalar badiiy adabiyoti bolalarni har tomonlama rivojlantirishning qudrati vositasi bo'lib xizmat qiladi, u bolalar nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar kitoblari she'riy obrazlarda bolaga jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyg'ular va munosabatlar dunyosini ochib beradi hamda tushuntiradi. Badiiy so'z bola nutqini boyitadi, uni obrazli, ifodali qiladi, jaranglayotgan ona tilidagi nutqning go'zalligini tushunishga yordam beradi.

Bolalar badiiy adabiyoti ularga aqliy, axloqiy va estetik tarbiya berishda, nutqini har taraflama rivojlantirishda va boyitishda katta ta'sir etuvchi vosita hisoblanadi. Badiiy adabiyot bolalarga jamiyat hayotini va tabiatni, kishilik dunyosining ichki his-tuyg'ularini va o'zaro munosabatlarini poetik obrazlarda ochib beradi, tushuntiradi. U bolaning his-tuyg'ularini rivojlantiradi, xayolini tarbiyalaydi va o'zbek adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan tanishtiradi. Bu namunalar o'zining ta'siri jihatidan xilma-xildir: hikoya orqali bolalar so'zlarning aniqligini, ma'nodorligini anglab oladilar; she'rlardan esa ularning musiqaviyligini, kuylanuvchanligini, ohangdorligini bilib oladilar, xalq ertaklari bolalarga tilning ifodaliligini, mazmundorligini ochib beradi, nutqning xilma-xilligini, hazil-mutoyibaga boyligini bolalarning ko'z oldida namoyon qiladi. Badiiy adabiyot bolalarga kishilarning hayoti va mehnatlari, ishlari va qahramonliklari, bolalikdagi eng qiziqarli voqealar, ularning o'yinlari, mehnatlari haqida hikoya qilib beradi.

Badiiy adabiyot bolalarga hayotni tushuntiradi va shu orqali bola hayotiy tajribasining ortib borishiga ta'sir etadi. Badiiy adabiyot kishilarning ichki dunyosini, ularning his-tuyg'ularini, xarakterlarini ochib berishi bilan bolalarni hayajonlanishga, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholashga va uni muhokama qilishga o'rgatadi. Badiiy asarning eng yaxshi namunalari bolalarda axloqiy sifatlarni tarkib toptirishga: yaxshi-yomon, haq-nohaq, rost-yolg'on va h.k so'zlarning ma'nosini tushunib olishlariga yordam beradi.

Bolalar tomonidan ona tilini egallash, uning boyligini, jozibadorligini bilib olish vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda yordam beradi. Ijtimoiy-tarixiy hayot voqealari, Navoiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Bobur, Amur Temur, Jaloliddin Manguberdi va hokazolar haqidagi hikoyalar axloqiy tuyg'ular bilan bog'liq bo'lib, ular bolalarni ona-Vatanga muhabbat, baynalmilallik, jamoaviylik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Matchonov S., Qurboniyozov M. Bolalar adabiyoti: ijodiy-uslubiy izlanishlar. O'quv qo'llanma.- Toshkent, 2009.
2. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi.- Toshkent, 1993.
3. Ushinskiy K. D. Tanlangan asarlar.O'quvpeddavnashr.- T., 1959.
4. Boboeva D. R. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining asosiy mezonlari. Pedagogik ta'lim j.-T.; 2001. 2-son.

Babadjanova Masturakhon Mukhammadiyevna
Teacher of school № 83
(Surkhandarya, Uzbekistan)

MODERN APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Every pupil should feel free and be active during the lesson. Many scientists have done researches on this topic as well as John Dewey, one of the most talented researchers in the history of modern educational theory. All the life he supported progressive education where a child-centered approach to education places the emphasis of learning on the needs and interests of the child. In addition, according to his points of view generating professional learning and knowledge reflection can help teachers to become lifelong learners as they can continuously generate and store personal knowledge through engaging in the reflective process. Since reflective process puts teachers at the heart of the learning process, teachers have the responsibility for their own growth and learning. In order to demonstrate how reflection facilitates teachers' professional learning and generates professional knowledge, experiential learning theory will be used as a base for the argument of this paper. It is believed that as a critical step in professional development, reflection is as an important part of this learning theory.

The theoretical conceptualization of experiential learning theory involves Dewey's ideas. Dewey states that growth comes from a "reconstruction of experience". Therefore, experiential learning theory holds the idea that learning is dependent on the integration of experience with reflection. It puts reflection at the center of learning process. Based on this theory, it can be argued that by reflecting on their own experience, teachers as learners can construct their own educational perspectives and gain new insights from that experience and develop new strategies to use in subsequent teaching. Experiential learning theory is based on a four-stage dialectic and cyclical process experience, observation and reflection, abstract reconceptualization, and experimentation.

This is the fact that, the learning begins with a problem, unexpected event or a troublesome complicated experience. Then, the reflective teachers step back to examine their experience and describe the problem by asking themselves "What was the nature of the problem? What were my intentions?" or "What did I do?" The process of observation and reflection requires the teacher to act as a researcher. Teachers are the first monitors and observe the problem and then, collect data about it including beliefs, values, intentions, attitudes, feelings, ideas and actions of both themselves and the students. Then, critically analyses and evaluates this data in order to make decisions and judgements on them. In the third stage of the learning cycle, the teacher considers alternative ways of thinking and acting. It includes an active search for new information, techniques or process to address the problem.

People aim at developing alternative hypothesis to explain the events and guide for her/his action. In the final stage of the learning cycle, the teacher makes a conscious decision to act in a certain way to test these new theories, assumptions and knowledge through experimentation. This stage completes the cycle and starts another. The next cycle starts and profits from the earlier cycle whether it focuses in

a more detailed way on the same problem or another. Therefore, learning and professional development become a progressive and continuing process. This makes teachers lifelong learners. In short, in the process of experiential learning, experience is transferred into improved knowledge and skills, and teachers might become aware of not only what was successful, but also why it was successful. A teacher can gain at least three competencies: empirical competencies which refer planning a research and collecting data; analytical competencies which is about how to interpret the data and evaluative competencies which include making judgements about the educational consequences of the results of a practical inquiry. By using the data, the teacher can analyze the sequence of events to confirm or disconfirm the new hypothesis.

Reflection and developing theory the process of reflection can be considered as a form of educational theorizing because in reflective process, teachers make more conscious and articulate their implicit, practical theories explicit in and subject them to the other's criticism. As a result of engaging in reflective teaching, teachers can gain inquiry skills. They might also become effective teachers because effective teaching requires teachers to have not only a knowledge of subject matter, students and their learning needs, and the use of a variety of teaching techniques but also the investigative or inquiry skills in order to examine continuously their practice, their students' learning problems, and to respond immediate problems occurred while teaching to improve teaching. Otherwise, it seems a little inappropriate to suggest that teachers who have not experienced inquiry in their lives will be able to create classroom settings in order to educate students who are able to question, to pose and solve problems, and self-directed learners. Having inquiry skills can help teachers enhance the understanding and awareness of their practices, beliefs and values. Since teaching often reflects an unquestioned acceptance of values, norms, and practices defined by others about what is in the best interest of students and teachers, and a lack of awareness of alternative practices, teachers mostly act without knowing why they do what they have been doing. In Dewey's view, the teacher should observe the interest of the students, observe the directions they naturally take, and then serve as someone who helps develop problem-solving skills.

In conclusion, teachers may not be aware of the reasons behind their actions. In order to be an effective teacher, teachers should be aware of their values, norms and practices. In addition, reflection and modern approaches demand them to describe specific experiences in their teaching, and subject their own actions to critical assessment while identifying and framing issues of classroom practice.

REFERENCES:

1. John Dewey. 1933. Reconstruction of experience. – Lindop, 24.
2. Osterman and Kottkamp. 1993. Teaching methods. – London, 34-44.
3. Craig A. 1992. A Practical Guide for Educators. – Edinburgh, 56.

**Djumayeva Gulsara Musurmanovna, Ergasheva Dilafuz Yo'ldosh qizi,
Sattarova Zamira Temirovna, Choriyev Soatmumin Jo'rayevich
(Qumqo'rg'on, O'zbekiston)**

XALQARO BAHOLASH DASTURINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning amaldagi tadbiri bugungi kunda ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va jahon andozalariga mos ravishda rivojlantira borishni taqozo etmoqda.

Tabiiyki, ushbu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan barcha turdagi ta'lim muassasalarida ta'limni zamonaviy axborot texnologiyalarining tadbiri etilishi va ulardan samarali foydalanishi bilan bog'liq. Umumta'lim maktablari o'quv-tarbiya jarayonini kompyuterlashtirish, axborot texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha vazifalarni hal etish uchun 2019-yil 9-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligini tashkil etish to'g'risida PF5815 farmonida, shu bilan birga, iqtidorli yoshlar bilan ishlashning yagona va samarali tizimini yaratish, yosh avlodning iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun bunday yoshlarning tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, yuqori darajada munosib ifoda eta oladigan talab yuqori bo'lgan yosh mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifamiz ekanligini ta'kidlab o'tdi.

Demak, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning o'quv-tarbiyaviy jarayoniga ilg'or ta'lim shakllari, pedagogik texnologiyalar va axborot yangiliklarini joriy etish keng yo'lga qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida, davlat va jamiyat ahamiyatiga molik dolzarb masalalar qatorida ta'lim sifatini oshirishga, 2021-yildagi xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko'rish masalasini alohida ta'kidlab o'tdi. Ma'lumki, o'zgarishlar davrida ta'lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi.

Ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod shakllantiriladi. So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalarini rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

Shu qatorda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham ta'lim sifatini yaxshilash, uni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalangan holatda tashkil etishga hozirgi kunda astoydil e'tibor qaratilmoqda. ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda.

Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va

o`qituvchilarning har tomonlama ta`lim tarbiyaga e`tiborini kuchaytirishni talab etadi. Talablarning ta`lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta`lim va fan sohalarini rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta`lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg`or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

Zamonaviy ta`lim nazariyasi o`qituvchini o`quv-biluv jarayonining rahbari sifatida baholaydi. Boshlang`ich sinf o`qituvchisi o`quv jarayoniga to`g`ri rahbarlik qilishi uchun birinchi navbatda chuqur bilim va yuksak kasbiy mahoratga ega bo`lishi kerak. Shu jihatdan ham o`qituchi o`quvchi uchun o`rnakdir. Uning muhim vazifalaridan biri-bolani o`ziga jalb eta olishdir. Buni men o`z darslarim ish faoliyatim jarayonida amalga oshirib borayapman desam mubolag`a bo`lmaydi. Bugungi kunda biz xalqaro baholash dasturiga tayyorgalik ko`rish ishlarini ish jarayonimizda boshlab yubordik.

Qisqach shu haqida to`xtalib o`tsak. Men ko`p ishlarimni o`quvchilarning matematik qobiliyatlarini ochishga harakat qilaman. Bu haqida matematik to`garaklar ham tashkil etganman, sabab ularni TIMSS xalqaro baholash dasturiga tayyorlash. Xo`sh u o`zi nima? TIMSS xalqaro tadqiqotining asosiy vazifasi maktabning matematika va tabiiy fanlar ta`limi sifatiga solishtirma baho berish. Har 4 yil davomida 4- va 8-sinf o`quvchilarining ta`lim yutuqlariga baho berib boriladi va shu bilan birga, nafaqat ularning bilim va ko`nikmasi, balki ularning ushbu fanlarga bo`lgan munosabati, qiziqishi, xamda ta`limga bo`lgan motivatsiyasini solishirishga imkon beradi.

Tadqiqotning asosiy rejasi: 4 yil davomida 4-sinf o`quvchisi 8-sinfga etgunga qadar uning matematika va tabiiy fanlar bilimining natijalari kuzatib boriladi. Shu yo`sinda maktabning boshlang`ich va yuqori sinf o`quvchilarining bilim yutuqlarining monitoringi amalga oshiriladi. 283 Taqqiqot o`tkazuvchi davlatlarda maktabda matematika va tabiiy fanlar ta`limning mazmun mohiyati va o`quv jarayoni, ta`lim muassasasi, o`qituvchilar, o`quvchilar, ularning oilalari bilan bog`liq omillar qo`shimcha o`rganiladi.

Xalqaro testga qo`shimcha bo`lib tadqiqotda ishtirok etuvchi maktab ma`muriyati, o`quvchilar va o`qituvchilar so`rovnomadani o`tkaziladi. Olingan ma`lumotlar test natijalariga ya`ni o`quvchilarning bilimiga ta`sir etuvchi omillarni aniqlashga, tadqiqotda ishtirok etuvchi davlatlarning matematika va tabiiy fanlarning holatini ko`rsatib berishga yordam beradi.

O`quv-tarbiya jarayoniga elektron vositalarini tadbiiq etish, kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish ishlari respublikamizning umumiy o`rta ta`lim maktablarida sezilarli darajada ommalashib bormoqda. Chunki boshlang`ich sinflarning o`quv-tarbiya jarayonida zamonaviy texnologiyalarning tadbiiq etilishi o`quvchilarning o`qish savodxonligi bilan birga mantiqiy fikrlashini, faol bilim olishini ta`minlaydi, ularning individual va intellektual salohiyatini rivojlantirishga imkon yaratadi.

Buning uchun fan o`qituvchilari va har bir o`quvchiga barilgan vazifani bajarish uchun kompyuterdan foydalanilsa o`quvchi o`qiydi, ko`radi, eshitadi va matn bilan ishlashni uddalay olishi va o`quv predmetlarini kompyuter yordamida o`zlashtirish imkoniyatlariga ega bo`lishi talab etiladi.

Umumiy o`rta ta`lim maktablarida ko`pgina fanlarni o`qitish jarayonida ko`rgazmali vositalarga asosiy e`tibor qaratiladi. Chunki o`quv materiallarining tabiiy, jonli va eng muhimi qiziqarli namoyish etilishi o`quvchining bilim olishini

yengillashtiradi, o'rganilgan bilimni uzoq muddat xotirada saqlab qolish va amaliyotda foydalanishga imkon yaratadi. Xalqaro baholash tizimiga faol qatnashish uchun bolaning matematik savodxonligini oshirishda elektron vositalardan unumli foydalanish ayniqsa dasrlarining samarasini oshirishning dolzarb muammosi hisoblanadi.

Chunki darslardagi barcha mavzularni to'liqroq yoritish uchun bir qancha, rasmi jadvallar, yoki slaydlar ega bo'lish talab etiladi. Lekin umumiy o'rta ta'lim maktablari fan o'qituvchilarining bu borada imkoniyatlari cheklangan. Bundan tashqari har bir mashg'ulot uchun o'quv materiallari tayyorlash va ulardan dars jarayonida foydalanish ko'p mehnat va vaqtni talab etadi. O'quv jarayoni zamonaviy axborot vositalari yordamida tashkil etilishi o'quvchilarning o'quv predmetiga qiziqishini, ta'lim samarasini oshiradi. Bunday intilish o'qib, o'rganayotgan o'quvchi yoshlarni yetuk, intellektual salohiyatli bo'lib yetishishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xalqaro baholash dasturlari asosida o'tkaziladigan sinov o'quvchilar mavzuni ne chog'lik tushunganligiga emas, hayotda qay darajada qo'llay olishiga qaratiladi. Topshiriqlar shu tariqa berilsa, o'quvchilar dunyoqarashi ham o'sib borishini kafolatlash mumkin.

Donaboyev Sherzod Eshmuratovich
(Jarqo'rg'on, O'zbekiston)

GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH AHAMIYATI VA NATIJAVIYLIGI

Mamlakatimiz ta'lim tizimida o'quv jarayonini texnologiyalashtirish natijasida uzluksiz ta'lim va davlat standartlarini kafolatli amalga oshirishga zamin yaratildi. Bu imkoniyatlarni hayotga tadbiiq etish ko'p qirrali muammo bo'lib, ta'lim tizimining har bir bosqichida, shu jumladan, umumta'lim maktablarida fanlarning mazmunini talab darajaga yetkazish va o'ziga xos o'qitish metodikasini yaratishni taqozo etadi.

“Interaktiv” degan so'z inglizcha “interact” so'zidan kelib chiqqan. “Inter” - o'zaro, “act” – ish ko'rmoq, ishlamoq degan ma'nolarni anglatadi. Demak interaktiv deganda o'zaro ish ko'rish, faoliyat ko'rsatish yoki suxbat bilan yoki tartibda kim bilandir (inson bilan) dialog (mulokot) xolatida bo'lish tushiniladi. Shunday kilib, interfaol o'qitish - bu, avvalambor muloqotlili o'qitish bo'lib, jarayonning borishida o'qituvchi va o'quvchi orasida o'zaro ta'sir amalga oshiriladi. Interfaol o'qitishning mohiyati o'quv jarayonini shunday tashkil etadiki unda barcha o'quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Darslardagi interfaol faoliyat o'zaro tushunishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga, umumiy, lekin xar bir ishtirokchi uchun ahamiyatli masalalarni birgalikda yechishga olib keladigan diologli aloqani tashkil etish va rivojlantirishni ko'zda tutadi. Interfaol usul bitta so'zga chiquvchining, shuningdek bitta fikrning boshqa fikrlar ustidan dominantlik qilishligini chikarib tashlaydi. Interfaol usullardan foydalanib o'qitishni tashkilotchilari uchun, sof o'quv maqsadlaridan tashkari quyidagi jihatlar ham muhimdir:

- guruhdagi o'quvchilarning o'zaro muloqotlari jarayonida, boshqalarning qobilyatlarini tushinib yetish;
- boshqalar bilan o'zaro muloqotda bo'lish va ularning yordamigamuhtojlik zaruratining shakllanishi;
- o'quvchilarda musobaqa, raqobatchilik kayfiyatlarini rivojlantirish.

Ayniqsa, tabiiy fanlar ya'ni geografiya fanining ma'ruza, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi izlanuvchan pedagoglarga qay darajada qulaylik keltirayotganligi, katta sinf xonalarlarga (o'quvchilar soni 30 tadan ortiq) ham moslashtirilganda o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish mumkin ekanligini keltirib o'tmoqchimiz. Gap yutuqlar haqida ketganda mashg'ulotga interfaol usullarni kiritish orqali erishiladigan muvoffaqiyotlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Masalan: AQSh Milliy trenning markazining ma'lumotiga ko'ra;

Birinchidan, interfaol usul o'quvchining ongiga, tuyg'usiga, irodasiga ta'sir ko'rsatib, tafakkurini oshiradi.

Ikkinchidan, dars usullarida o'zlashtirish quydagicha: Ma'ruza usulida 5%, o'zicha o'qish 10%, audio-video orqali o'qish 20%, ko'rgazma-namoyishlar orqali o'qish 30%, bahs-munozara orqali o'qish 50%, Kichik guruhlarga bo'lib o'qish 60%, o'quv jarayonini amaliyot bilan bog'lash 75%, bir-biri, bola-bolani yakka tartibda o'qitish 90% ekanligini bilgan holda pedagogik texnologiyalarning avfzalik jihatlarini keltirib o'tmoqchimiz.

Har-bir mashg'ulotlarida axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlari, didaktik materiallarini qo'llash bilan birga mavzularga mos holda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan: Aqliy hujum, Bir-biridan so'rash, B/BX/B jadvali - Bilaman/ Bilishni hojlayman/ Bilib oldim, Venn diagrammasi, Insert va boshqa pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. O'qituvchiga, yuqoridagi texnologiyalarning darslarda qo'llanilishi, katta auditoriyalarda o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib faoliyat ko'rsatishlarini nazorat qilish imkonini bersa, o'quvchilarga esa kichik guruhlarda ishlash jarayonida muloqot madaniyatini rivojlanishi, o'zaro fikr almashinish, bir-birini tinglash ko'nikmasini shakllantirmoqda.

Biz quyida umumta'lim maktablarida geografiya darsida foydalanish mumkin bo'lgan zamonaviy interfaol usullarning tatbig'i bilan tanishamiz.

"Blits-so'rov" usuli. Mashg'ulotni o'tkazish tartibi. Ushbu usul bir necha bosqichda o'tkaziladi:

- o'qituvchi hamma o'quvchilarga alohida-alohida tarqatma material beradi vaularidan ushbu materialni sinchiklab o'rganishlarini so'raydi;

- o'qituvchi tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifa (tarqatma materialda berilgan harakatlar ketma-ketligini to'g'ri belgilash, belgini qog'ozda alohida ajratilgan bo'limga raqamlar bilan qo'yish kerakligi)ni tushuntiradi;

- tarqatma materialda berilgan vazifa dastlab yakka tartibda bajarilishini ta'kidlaydi;

- har bir o'quvchi o'zining shaxsiy fikri asosida tarqatma materialdagi - yakka baho bo'limiga berilgan harakatlarning mantiqiy ketma-ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadi;

- barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, o'qituvchi harakatlar ketmaketligi bo'yicha to'g'ri javobni beradi, ya'ni o'quvchilardan ularga tarqatilgan qog'ozlardagi - to'g'ri javob bo'limiga u tomonidan aytilgan harakatlar ketmaketligi raqamlarini yozishni so'raydi;

- o'qiyuvchi - to'g'ri javob bo'limida raqamlar bilan - yakka baho hamda-guruh bahosi bo'limidagi raqamlarni solishtirish va kattasidan kichigini ayirish, ayirmalarni mos holda - yakka xato va - guruh xatosi bo'limlariga yozishlarini so'raydi;

- o'qituvchi -to'g'ri javob bo'limida berilgan raqamlar bilan -yakka baho hamda -guruh bahosi bo'limidagi raqamlarni solishtirish va kattasidan kichigini ayirish, ayirmalarni mos holda - yakka xato va - guruh xatosi bo'limlariga yozishlarini so'raydi;

- o'qituvchi yakka va guruh xatolarining umumiy soni bo'yicha tushuncha beradi va ularni har birini alohida-alohida sharhlab beradi;

- o'qituvchi mashg'ulotni yakunlab, ba'zi guruhlarning mashg'ulot mobaynidagi ish faoliyatlariga o'z fikrini bildiradi va o'quvchilarning bilimini ilovadagi mezonlar asosida baholaydi yoki mos kelgan to'g'ri javoblar soniga qarab har bir o'quvchi o'z bahosini ilovada ko'rsatilgandek aniqlaydi.

- Zilzilalar mavzusini mustahkamlash uchun Blits-so'rov (Ekspert varag'i)

Ballar	Guruh bahosi	Guruh xatosi	To'g'ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Qisqacha ta'rif	Zilzila kuchi
1	Faqat seysmik asboblar bilan qayd etiladi	Sezilarli					
2	Ko'pchilik sezmaydi. Sokin vaziyatdagi odamlargina sezadi	Juda kuchsiz					
3	Bino ichidagi ayrim odamlargina sezadi	Kuchsiz					
4	Bino ichidagi odamlarning ko'pchiligi sezadi. Uydagi jihozlar harakatga keladi	Sezil maydi					
5	Bino va mebel tebranadi. Uyqudagilar iug'onib ketadi	Kuchli					
6	Hamma sezadi, ba'zi uylarda suvoqlar ko'chadi	Kuchsiz					
7	Imoratlar shikastlanadi, g'ishtli devorlar yoriladi	Juda kuchli					
8	Imoratlar kuchli shikastlanadi, tog'larda surilmalar yuz beradi	Vayron qiluvchi					
9	Uylar butunlay buzuladi yoki qisman buziladi	O'ta halokatli					
10	Yer yuzida yoriqlar paydo bo'ladi	Yakson et.					
11	Jarliklar hosil bo'ladi	Halokatli					
12	Yer ko'rinishi - relyefi o'zgaradi	O'ta vayron q.					

7-8 ta tog'ri javob – “Qoniqarli”

9-10 ta to'g'ri javob –“Yaxshi”

11-12 ta to'g'ri javob –“A'lo”

Javoblar varianti

Ballar	Guruh bahosi	Guruh xatosi	To'g'ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Qisqacha ta'rif	Zilzila kuchi
1	4	Faqat seysmik asboblardan bilan qayd etiladi	Sezi larli				
2	2	Ko'pchilik sezmaydi. Sokin vaziyatdagi odamlargina sezadi	Juda kuch siz				
3	3	Bino ichidagi ayrim odamlargina sezadi	Kuch siz				
4	1	Bino ichidagi odamlarning ko'pchiligi sezadi. Uydagi jihozlar harakatga keladi	Sezil maydi				
5	6	Bino va mebel tebranadi. Uyqudagilar iug'onib ketadi	Kuchli				
6	5	Hamma sezadi, ba'zi uylarda suvoqlar ko'chadi	Kuch siz				
7	7	Imoratlar shikastlanadi, g'ishtli devorlar yoriladi	Juda kuchli				
8	8	Imoratlar kuchli shikastlanadi, tog'larda surilmalar yuz beradi	Vay ron qiluv chi				
9	12	Uylar butunlay buzuladi yoki qisman buziladi	O'ta halo katli				
10	10	Yer yuzida yoriqlar paydo bo'ladi	Yak son et.				
11	11	Jarliklar hosil bo'ladi	Halo katli				
12	9	Yer ko'rinishi – relyefi o'zgaradi	O'ta vay ron q.				

Ushbu usul dars jarayoniga tatbiq etilsa, albatta o'zining samarali natijasini beradi.

Yuqoridagi ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo'llanilishi natijasida o'quvchilar mustaqil izlanuvchan, fikrlarini qo'rqmasdan mazmunli ifodalashni, o'zlariga bo'lgan ishonchni ortiribgina qolmasdan ba'lkil ilmiy ijodiyot olib borish ko'nikmasiga tayyorlanadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nishonov A. X. va boshqalar. Ta'limda erkin va ochiq kodli dasturiy ta'minotlar, Axborot texnologiyalari va telekommunikasiya muammolari, respublika ilmiy-texnik konferensiyasi, Toshkent 2012 y.121-123 b.
2. R. Ishmuhamedov., M. YUldashev. Ta'lim va tarbiyada innovasion pedagogik texnologiyalar.-T.: "Nihol nashryoti, 2013 yil 278 bet.

ELEKTRON TA'LIM RESURLARI:

1. www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublika Xalq ta'lim vazirligi rasmiy sayti.
2. www.ziynet.uz - Ziyonet axborot ta'lim portali.

Dusmetova Maksuda Matnazarovna
(Urgench, Uzbekistan)

HOZIRGI ZAMON O`QITUVCHISI VA UNGA QO`YILADIGAN TALABLAR

Annotatsiya: Maqolada hozirgi zamon o`qituvchisi va unga qo`yiladigan talablar xususida gap boradi. Aynan o`qituvchining ijodkorlik, fidoiylilik, vijdonlilik, jonkuyarlik, bolajon bo`lish kabi shaxsiy sifat va kasbiy fazilatlar ulug`lanadi.

Kalit so`zlar: O`qituvchi, talablar, ta`lim, tarbiya, o`quvchi, fidoiy, davlat, qobiliyat, mahorat.

Аннотация: в статье рассматривается современный учитель и требования к нему. Хвалят личные качества и профессиональные качества учителя, такие как креативность, самоотдача, добросовестность, энтузиазм, ребячество.

Ключевые слова: Учитель, требования, образование, воспитание, ученик, преданность, государства, мастерства, навыки.

Annotation: The article deals with the modern teacher and the requirements for him. The teacher's personal qualities and professional qualities are praised, such as creativity, dedication, conscientiousness, enthusiasm, childishness.

Key words: teacher, school, children, education, patriotic, demands, state, competences, skills.

So`z o`qituvchi haqida borar ekan u qanday inson bo`lishi kerak? U nimalarga qodir.

Ma`lumki, hamma kasblarni ham avvalo ustoz-muallim o`rgatadi. Dastlabki saboqni ham o`qituvchi beradi. Shunday ekan dastlabki ona-Vatan so`zlarining ma`nosini, mohiyatini ham o`qituvchi o`rgatadi. Shuning uchun ham barcha kasblar ichida o`qituvchilik-muallimlik kasbi o`ta sharafli va mas`uliyatli hisoblanadi. Mana shu o`rinda tabiiy ravishda savol tug`iladi. Xo`sh, o`qituvchi kim? U qanday sifatlariga ega bo`lmog`i lozim? Xususan, bugungi kun o`qituvchisi qanday malakalar bilan qurollantirilmog`i darkor? va boshqalar. O`qituvchi jamiyatning yosh avlod ta`lim-tarbiyasiga qo`yilgan ijtimoiy buyurtmasining asosiy ishtirokchisidir. Shuning uchun ham I- Prezidentimiz I.A. Karimov "Tarbiyachi-ustoz bo`lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o`stirish, ma`rifiy ziyosidan bahramand etish, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun eng avvalo tarbiyachining o`zi aynan shunday yuksak talablarga javob berishi lozim,"- degan edi. Darhaqiqat, o`qituvchilik kasbida chuqur bilimdonlik, zukkolik o`z kasb mahoratini muntazam shakllantirib borishga ishtiyoq bo`lmas ekan, u yaxshi ustoz-o`qituvchi bo`la olmaydi. Mana shularni e`tiborga olgan holda bu fikrlarni ilmiy-nazariy tahlil qilish shunday xulosalarga olib keladi:

- ___o`qituvchi pedagogik faoliyatga qobiliyati bo`lishi;
- ___pedagog-psixolog;
- ___milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yaxshi anglaydigan;
- ___iymon,e`tiqodi butun;
- ___vatanparvar;
- ___odobli,iboli;

__zamonaviy;

__madaniyatli;

__ijodkor,chet tillarni yaxshi o`zlashtirgan,axborot kommunikasiya texnologiyalaridan unumli foydalana oladigan shaxs sifatida gavdalanishi kerak [2].

Zero, davlatimizning istiqboli, Prezidentimiz tomonidan olg`a surilayotgan barcha islohotlarning ijobiy yechimi va ana shu ko`p mingyillik ziyokorlik ishining samarasi bo`ldi. Shuning uchun ham bugungi mustaqillik sharoitida o`qituvchilik kasbiga bo`lgan e`tibor va ehtiyoj har qachongiga nisbatan ortib bormoqda. Shuning bilan birga o`qituvchi oldiga qo`yiladigan talablar ham o`zgacha bo`lmoqda. Chunki bugun O`zbekiston mustaqil davlat sifatida jahonga yuz tutar ekan, bu borada pedagog o`qituvchilarning o`z o`rni, o`ziga xos mohiyati borligini unutmaslik lozim [1].

Yosh avlod tarbiyalash murakkab va olijanob vazifa bo`lishi bilan birga ayni zamonda u g`oyat darajada murakkab, mas`uliyatli ishdir. Bu vazifani muvaffaqiyat bilan bajarish uchun eng avvalo o`qituvchi o`z ishining shaydosi bo`lishi, bolalarni sevishi, mas`uliyatlarini, burchlarini, hulqlarini anglab yetishlari lozim [4].

Xulosa qilib, aytganda mustaqil O`zbekistonimizda o`zining pedagogik faoliyatini olib borayotgan har bir o`qituvchi o`z ustida tinmay ishlashi, doimiy izlanishda bo`lishi, o`zidan oldingi pedagoglarning ilg`or tajribalari bilan doimiy tanishib borishi va shu yo`llar bilan o`z mahoratining tizimlarini kengaytirishi lozimdir.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O`zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Ibragimov X. I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
3. G`aybullaev va boshqalar. Pedagogika. O`quv qo`llanma. 2012.

Egamberdiyeva Dilbar Abdunazarovna
(Jarqo'rg'on, O'zbekiston)

O'QITUVCHINING DARSGA TAYYORLANISH SSENARIYSI

(Ushbu maqola informatika va axborot texnologilari fani o'qituvchisi Dilbar Egamberdiyeva ish tajribasi asosida tayyorlandi. Ssenariyda o'qituvchining darsgacha bo'lgan tayyorgarliklari hisobga olingan holat ko'riladi)

Darsni mazmunli, sifatli va dars maqsadiga muvofiq holda tashkil etish borasida ko'plab g'oyalar ilgari surilgan. Ya'ni, dars maqsadlarining qo'yilishi, dars jarayonini olib borilishi va hokozalar. Ammo, o'qituvchining dars jarayonigacha bo'lgan tayyorgarlik holatini qanday tashkil etish borasida aniq rejalar yoritilmagan. Ma'lumki, bir sinf o'quvchilariga moslangan dars ishlanmasi, kerakli tarqatma materiallar, didaktik o'yinlar, pedagogik texnologiyalar sinf o'quvchilariga mos kelmay qolishi mumkin. Shuning uchun sinfdagi o'quvchilarning bilim darajalari va qiziqishini hisobga olgan o'qituvchi shu holatga moslab darsga tayyorgarlik ko'rishi kerak bo'ladi. Ushbu ssenariyda o'qituvchining darsga tayyorgarlik ko'rish holatlari yoritilgan.

1-soatlik dars misolida o'qituvchining tayyorgarligi

Darsga tayyorgarlik:

- Dars o'tiladigan sinfdagi o'quvchilarning bilim darajasiga e'tibor berish hamda ularga beriladigan topshiriqlarni moslashtirish, kompetentsiya talablarini dinamik tarzda aniqlab olish (bunda har bir sinfda turlicha darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar borligi, beriladigan topshiriqlarni shu o'quvchilarga moslash, barcha o'quvchilarni dars jarayoniga jalb etish hamda o'quvchilarning jurnaldagi baholarini hisobga olgan holda baholashga e'tibor qaratish);

- Darsning texnologik xaritasi hamda dars bosqichlariga ajratilgan vaqt rejasini (darsning blok-chizmasini) tuzib olish;

- Darsning blok-chizmasiga mos ilg'or pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini tanlash (bunda dars o'tiladigan sinfning kompetentlik darajasini hisobga olish zarur).

Dars jarayoni olib borishga tayyorgarlik:

- O'quvchilarni 2 ta (yoki ko'proq) guruhga ajratish hamda o'qituvchiga yordamchi sifatida har bir guruhdan bittadan sardor tanlab olish (O'quvchilarni guruhlariga tezkor bo'lish uchun otirgan o'rniga yoki jurnaldagi juft va toq sonlarga moslarini qarash mumkin. Yana bir usul bu – o'quvchilarga juft va toq sonlarni ayttirish orqali. Toq son aytdan o'quvchi birinchi guruh, juft sonni aytdan o'quvchi ikkinchi guruhga o'tkaziladi. Baholanishi uchun guruhdagi har bir o'quvchi o'z tartib raqamini bilishi zarur. Guruh sardori tanlash: bir guruh sardori o'g'il va ikkinchisidiki qiz bola bo'lishi maqsadga muvofiq. Agar guruhlar tarkibi bir necha darsda o'zgarmaydigan bo'lsa, u holda masalan, oldingi darsda to'rtinchi o'quvchi guruh sardor bo'lganligi hisobga olib har bir guruhdagi beshinchi o'quvchini sardor etib tayinlash mumkin);

- Proektor ekranida (Excel elektron jadvalida tayyorlash tavsiya etiladi) o'quvchilarni baholash jadvali (proyektor bo'lmasa doska burchagiga chiziladi yoki

jadval plakat shaklida tayyorlanib, ballar qalam bilan yoziladi) hamda umumiy guruh balini ko'rsatib turuvchi jadval. Baholash jadvaliga o'quvchilarning dars jarayonida olgan baholari yozib boriladi. Bunda o'quvchilar o'zlari to'playotgan ballarini hamda guruhning umumiy balini uzluksiz ko'rib borish imkoniga ega bo'ladilar. Jadval o'qituvchiga ham qulay bo'lib, dars yakunida o'qituvchi uchun o'quvchilar tomonidan yig'ilgan ballarni jurnal va kundalikka ko'chirishgina qoladi. Jadval sinfdagi o'quvchi soniga moslanadi. Quyida jadval uchun kerakli formulalar ko'rinishi tavsiya qilingan:

O'quvchining umumiy bali formulasi: = СУММ(B6:F6) / (ЕСЛИ(B6=""; 0;1) + ЕСЛИ(C6=""; 0;1) + ЕСЛИ(D6=""; 0;1) + ЕСЛИ(E6=""; 0;1) + ЕСЛИ(F6=""; 0;1))

Guruhning umumiy bali formulasi: = СУММ(G5:G23) / (ЕСЛИ(G5="";0;1) + ЕСЛИ(G6="";0;1) + ЕСЛИ(G7="";0;1) + ЕСЛИ(G8="";0;1) + ЕСЛИ(G9="";0;1) + ЕСЛИ(G10="";0;1) + ЕСЛИ(G11="";0;1) + ЕСЛИ(G12="";0;1) + ЕСЛИ(G13="";0;1) + ЕСЛИ(G14="";0;1) + ЕСЛИ(G15="";0;1) + ЕСЛИ(G16="";0;1) + ЕСЛИ(G17="";0;1) + ЕСЛИ(G18="";0;1) + ЕСЛИ(G19="";0;1) + ЕСЛИ(G20="";0;1) + ЕСЛИ(G21="";0;1) + ЕСЛИ(G22="";0;1) + ЕСЛИ(G23="";0;1)))

I-GURUHNING BAHOLASH JADVALI

Natijalar						
Topshiriq turlari	Teskor savol-javob	Test	Tarqatma	Ijodkorlik, qo'shimcha topshiriqlar va hokazo	Uy vazifasi	O'quvchilar umumiy bali
1	4	5	3	5		4,3
3	4	5	4	5		4,5
5	5		5			5,0
7	5	3	4			4,0
9	5	4	5	5		4,8
11	5	4	3			4,0
13	5	5	5	4	3	4,4
15	5	4	5			4,7
17	4	5	4	5		4,5
19	5		5			5,0
21	5	5	5	4	3	4,4
23	5	4	5			4,7
25	4	5	4	5		4,5
27	5		5			5,0
29	5	3	4			4,0
31	5	4	5	5		4,8
33	5	4	3			4,0
35	5	4	3			4,0
Guruhning umumiy bali:						4,5

II-GURUHNING BAHOLASH JADVALI

Natijalar						
Topshiriq turlari	Teskor savol-javob	Test	Tarqatma	Ijodkorlik, qo'shimcha topshiriqlar va hokazo	Uy vazifasi	O'quvchilar umumiy bali
2	5	4	5			4,7
4	4	5	4	5		4,5
6	5		5			5,0
8	5	3	4			4,0
10	5	4	5	5		4,8
12	5	4	3			4,0
14	5	5	5	4	3	4,4
16	5	4	5			4,7
18	4	5	4	5		4,5
20	5		5			5,0
22	5	5	5	4	3	4,4
24	5	4	4			4,3
26	4	5	4	5		4,5
28	5		5			5,0
30	5	3	4			4,0
32	5	4	5	5		4,8
34	5	4	3	3		3,8
36	5	4	3			4,0
Guruhning umumiy bali:						4,7

- O'qituvchi ertalab 8:00 da maktabga kelishi, dars jadvaliga qarashi, konspektni tasdiqlatishi, dars xonasiga kirish bo'lishidan 2 daqiqa avval kirishi va hazozolar.

Dars jarayonini olib borishi:

- O'quvchilarning psixologik holatini hisobga olgan holda darsga tayyorlash (masalan, fanga qiziqtiruvchi biror bir ma'lumot, yoki umuman, o'quvchilarning darsni tinglash holatiga olib keluvchi g'oyani topish)

- O'quvchilarni darsga jalb etish maqsadida o'tilgan mavzularni takrorlash, ularning soniga qarab hamda o'zlashtirish darajasi hisobga olib bittadan tezkor savol berish va ularning javobini eshitish (beriladigan savollar har bir o'quvchining bilimini hisobga olgan holda individual tayyorlanishi lozim);

- 5 ball tizimida baholash. Bunda guruh sardorlariga baholash jadvali qog'ozga chiqarib beriladi. Sardorlar o'qituvchining og'zaki baholashini qog'ozga tushirib boradi.

Ballar e'loni quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

- javob to'liq bo'lsa "a'lo darajada javob berdingiz" (5 ball);
- javob deyarli to'liq bo'lsa "juda yaxshi javob berdingiz" (4 ball);
- javob qoniqarli bo'lsa "qoniqarli tarzda javob berdingiz" (3 ball);

- javob chala bo'lsa "javob berishga harakat qilayapsiz" (2 ball).
- javob xato bo'lsa "javobga yaqinlashdinsiz yoki biroz o'ylab ko'ring" (1 ball)

Bu kabi baholash orqali "sen ikki yoki uch olding" deb o'qivchi uchun keyingi savollarga javob berishdagi to'siqning oldi olingan bo'ladi. Sardorlar o'qituvchining yaqinida bo'lishi shart, chunki jadval to'g'ri to'ldirilishinia o'qituvchi nazorat qilib turishi kerak bo'ladi;

- Yangi mavzudagi yangi bilimlar va muhim tushunchalar o'qituvshi tomonidan tushuntirib o'tiladi;

- Ikkala guruh sardorlari doskaga chaqariladi. Birinchi sardorga yangi mavzudagi ba'zi tushunchalar ketma-ketligi aralash tarzda berilib, ularni tartib bilan joylashtirish talab etiladi (bu tushunchalar o'qituchi tomonidan avvaldan qog'ozda tayyorlab qo'yilgan bo'ladi). O'quvchi tushunchalarni doskaning bir burchagiga tartib bilan joylashtiradi. Ikkinchi sardorga esa ushbu tushuncha izohi yozilgan qog'ozlarni tushunchalarga moslab joylashtirish talab etiladi. So'ngra ikkala sardordan navbati bilan tushunchalarga o'z fikrlarini bildirish so'raladi. Ushbu jarayonda sardorlar ham baholanadi.

- O'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga qarab 3 ta varianda testlar tuziladi. Bu varianlar jurnalga mos tarqatiladi. O'qituvchi qaysi o'quvchiga berilishi kerak bo'lgan variant oldindan tayyorlangan bo'ladi. Bir dars testida A-variant bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun bo'lsa, B-variant o'rta darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun, C variant esa o'zlashtirishi yuqori bo'lgan o'quvchilar uchun, keyingi darsda esa 3 ta variant nomlarining o'rni almashtirish kerak bo'ladi, sababi o'quvchilar o'qituvchi tayyorlagan testing oson va qiyinligini variant nomidan bilib olmasligi kerak. Savollar 5 tadan bo'lib, har bir savol uchun 1 ball qo'yiladi. O'quvchilar ko'pi bilan jami 5 ball yig'ishi mumkin. Savollar yangi mavzuga doir bo'lishi kerak. Test savollari tarqatma shaklida berilib, sardorlar ikkala guruh test javoblarini yig'ib olishganidan so'ng (shu jarayonda o'quvchilarning kundaliklari ham yig'ib olinadi) o'qituvchi test kalitini sardorlarga beradi. Birinchi guruh testlarini ikkinchi guruh sardori, ikkinchi guruh testlarini birinchi guruh sardori tekshiradi va natijalar qog'ozga va baholash jadvaliga kiritiladi.

- Mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga qarab yuqoridagi kabi uchta variantda (A, B, C) tarqatma beriladi. Tarqatmada bir necha savol va topshiriqlar berilgan bo'lib, o'quvchilar ulgurmanicha darsda javob berishadi. Ulgurmanlarini esa uyga vazifa qilib berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Beriladigan topshiriqlar yangi mavzuga mos bo'lishi kerak.

- Uyga vazifa natijalarini tushurish (o'quvchilarning uy vazifa daftari ikkita bo'lishi maqsadga muvofiq, o'qituvchi bir dars oldingi uyga vazifa daftarini yig'ishtirib olib, uyda tekshiradi va natijalarni baholash jadvaliga kiritadi).

Dars jarayonida o'quvchilar rag'batlantirish:

Dars jarayonida doimo ham o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan harajat talab etadigan sovg'alar bera olish imkoniyati mavjud bo'lavermaydi. Bunday hollarda ball yozilgan kartochkalarning orqa tomoniga olgan baliga qarab hikmatli so'zlar yoki maqollar, umuman, o'quvchini ruhlantiruvchi jumlar yozib berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, 5 balli kortchkaga – "Yuksaklika erish uchun kuchli bilim va tafakkurni yoshlikdan o'rganmoq lozim", 4 balliga – "Maqsadga erishishni eng to'g'ri yo'li bilimli va irodali bo'lishdir", 3 balliga – "Dunyodagi yuksak ishlar – oddiy muammolar yechimini yechish orqali takomillashadi" va hakozi.

Birinchi o'rinni olgan guruhga o'qitilayotgan fanni chuqurroq o'rgatuvchi elektron manbalar to'plami yozilgan disk, ikkinchi o'rinni olgan guruhga esa ingliz tilini chuqurroq o'rgatuvchi elektron manbalar to'plami yozilgan disk taqdim etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'qituvchilarga tavsiyalar:

- Dars jarayonida bazi bir sodda so'zlashishlarni ingliz tilida talqin etish;
- Har bir o'quvchini nazardan chetda qoldirmaslik;
- Adolat bilan ball berish;
- Hamma o'quvchi ham shu fanni chuqur bilavermaydi, o'quvchining qobiliyatiga qarab mavzuga mos savol va topshiriqlar berish (masalan, uchburchak mavzusida teoremlarni hayotiy misollar bilan yetkazishni so'rash yoki o'quvchilarni doskaga chaqirib uchburchak rasmini chizdirish, ularning uchlari, ularning burchaklari, tomonlari nechta, hayotimizda qanday uchburchak shaklidagi narsalardan foydalanamiz kabi sodda savollar bilan mavzuga qiziqtirish kerak);
- O'quvchilarga beriladigan savol va topshiriqlar ko'proq kundalik hayotimizda uchraydigan misollar olinishi (albatta, mavzuga tegishli yoki yaqin bo'lishi shart);
- O'qituvchi qo'gozdagi barcha baholash jadvallarini yig'ib borishi kerak. Bu holda keyingi darslarga topshiriqlarni berish uchun o'quvchilar o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aniqlab borish mumkin bo'ladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, o'qituvchi asosan rejisyor kabi asosiy ishga urg'uni kadr ortida berishi kerak bo'ladi. Maktabda esa o'qituvchi faqatgina kuzatuvchi, darsni tashkillashtiruvchi va boshqaruvchi siyosida aks etgan holda dars jarayoning asosiy ishtirokchilari o'quvchilar bo'lishi lozim. Mana shu tartibda dars jarayonini olib borgan o'qituvchi nafaqat dars samaradorligiga, balki dars mazmunini ochib berishga, o'quvchilarni ijodkorlik va erkin fikrlay olishiga hamda darsda do'stona muhitni tashkil etishga erishadi.

**Eshmuratova Sevara Ro'zimurotovna,
Boynazarova Muxayyoxon Baxtiyorovna
(Jarqo'rg'on, O'zbekiston)**

**BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INNOVASION TA'LIMNING
AFZALLIKLARI HAMDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

Bugungi kunda butun dunyoda har tomonlama globallashuv va integratsiya jarayonlari kuchayib bormoqdaki, O'zbekiston ham bu jarayonlar oqimidan mustasno emas. Xalqaro siyosiy doiradagina emas, balki ichki siyosiy muhitda ham farovon va barqaror jamiyat qurish uchun kuchli va malakali, siyosiy va huquqiy bilimlarga ega kadrlar kerak.

Hozirgi kunda o'quvchilar, talabalar, tinglovchilar aqliy ta'limini rivojlantirish uchun ta'lim va tarbiya birligiga beriladigan bilimning ilmiy bo'lishi, bilimning sistemali va izchil bo'lishi barobarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga erishilmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish yuzasidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda pedagogik va axborot texnologiyalaridan uyg'un foydalanish muhim vazifa sifatida belgilangan. Darhaqiqat, axborotlar globallashgan davrda ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish samaradorligini oshirish dolzarb muammo sanaladi.

Har bir dars o'quvchi uchun yangi axborotdir. Ayniqsa, yangi o'quv materiali orqali o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarini shakllantirish asosiy ta'lim sifatini ta'minlovchi omildir. O'quvchilarga yangi bilimlarni berish va olingan yangi bilimlar asosida ko'nikmalarni shakllantirish uchun kichik guruhlarda ishlash, vizuallashtirish, mustaqil ijodiy ishlash, o'yin mashqlari va rolli o'yinlar kabi noan'anaviy ta'lim metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Mana shularni hisobga olgan holda, ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish borasida bugungi kunda juda ko'plab amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. O'quv jarayonining markazida o'quvchi shaxsi va qadri, ma'naviyati turar ekan, har bir o'qituvchi bu jarayonni samarali va qiziqarli qilib tashkil qila olishi kerak. Shuni e'tiborda turish kerakki, shaxsga qaratilgan ta'lim, o'quvchining o'quv-biluv mehnatini tashkil etishni harakatlantiruvchi, uning qiziqish, xohish, talab-istaklarini ro'yobga chiqaruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi shaxsiga qaratilgan ta'lim, o'quvchining faolligini oshirish, mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, mustaqilligi va erkinligini ta'min etish, qiziqishlari asosida ish yuritish, ichki imkoniyatlarini ishga solish, o'z qiziqishlari orqali qo'shimcha ta'lim olishga yo'llash, o'z-o'zini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Aynan mana shu jarayonda katta natijalarga erishish maqsadida hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish-innovatsion pedagogikani maydonda olib chiqdi. "Innovatsion pedagogika"termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQSHda 60-yillarda paydo bo'ldi. "Innovatsiya" (inglizcha innovation)-yangilik kiritish, yangilikdir. Ya'ni ta'lim tizimini tashkil qilishda har ikki tomon ya'ni o'qituvchi va o'quvchi orasida yangi metodla orqali darslarni tashkil qilish, turli interfaol usullar orqali bilimlar berish- bir so'z bilan aytganda ta'lim jarayonida yangilik yaratishdir.

Interfaol ta'lim jarayonida dars o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida amalga oshiriladi. Interaktiv ingliz so'zidan olingan bo'lib, "Interakt", ya'ni, Inter- bu "o'zaro", "akt"-harakat, ta'sir, faollik ma'nolarini bildiradi. Interfaol metod-ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati, ta'siri ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari-norasmiy bahs-munozalar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil bayon etish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, o'quvchilarni tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalardan iborat. Interfaollik-o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi-o'qituvchi, o'quvchi-o'quvchi (sub'ekt-sub'ekt) suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi-o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlari ishga solishga muhit yaratadi.

Tabiiy fanlar, jumladan, biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalardan foydalanish uchun biologiya ta'limi mazmunining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish zarur: tirik ob'ektlar bilan ishlash, ularda kechadigan hayotiy jarayonlarni kuzatish, tajriba qo'yish va b.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan o'zgartirishlar va yangiliklar asosida pedagog xodimlarga qo'yilayotgan zamonaviy talablar ta'lim va yoshlar to'g'risidagi xukumat tomonidan qabul qilingan qarorlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushunib yetadigan hamda targ'ibot qiladigan; o'z fanini chuqur biladigan, pedagogik jarayonlarda o'quvchilarning sub'ektivligini va faolligini oshirishga alohida ahamiyat qaratadigan; o'zaro do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'lgan; pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, o'quvchilar va pedagoglar hamkorligini shakllantirish va muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlarda motivlashtirish, refleksiv faoliyat jarayonlarini tashkil etish asosida refleksiv ta'limiy muhitni shakllantirish yo'nalishlarida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi shaxsini shakllantirishni taqozo etadi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini barqaror rivojlantirishda o'qituvchilarning faoliyati samaradorligi asosan ularning pedagogik jarayonlar va ularni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalari darajasiga hamda ularning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatleri, shuningdek, qobiliyatlari, mahorati va kasbiy tajribasiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik jarayonlarni ilmiy asoslarda tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi zamonaviy talablar ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilarning o'z bilimlari, ko'nikma malakalarini uzluksiz rivojlantirib borishini taqozo etadi. Bu o'z navbatida uzluksiz malaka oshirish jarayonining samaradorligini ta'minlashda quyidagilarni inobatga olish zarur bo'ladi:

- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- ijodiy hamkorlikni ta'minlovchi refleksiv ta'limiy muhitni vujudga keltirish;
- axborotlarning yangiligi va ishonchligini ta'minlash.

- barcha sohalar bo'yicha bilim berishda axborotlashtirishni rivojlantirishni loyihalash va yaratish;

- axborotlashtirish sohaslarida meyoriy bazalarni yaratish (koordinatsiyalar, metodlar, ilmiy-metodik va h.k.);

- texnik ta'minotni-kompyuterlar, axborot texnologiyalarning boshqa qurilmalari, ularga xizmat ko'rsatish uchun kerakli materiallarni yaratish.

Axborot texnologiyalar o'qituvchilarning kasbiy o'sishi uchun ularga o'z fanlari bo'yicha o'qitishning yangi usullarini kiritishga, yangi yondashuvlarni qo'llashga, g'oyalarni ro'yobga chiqarish va yangi ko'nikmalarni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Biologiya fanini o'qitishda axborot texnologiyalarining yuqorida qayd etilgan vazifalarini e'tiborga olgan holda, ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish yo'llarini belgilash va amaliyotga joriy etish bugungi kunda dolzarb vazifa sanaladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning oldidagi muhim vazifalardan biri o'quvchilarning fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish asnosida ularning barkamoliligini ta'minlash sanaladi. Ushbu muammolarni hal etishda innovation texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Innovation texnologiyalaridan foydalanilgan darslar axborotlarga boy, ko'rgazmali, interfaol bo'lib, vaqtdan unumli foydalanish, har bir o'quvchining o'z tempi bo'yicha bilim olish, o'qituvchida esa, o'quvchilar bilan tabaqalashtirilgan va individualashtirilgan ta'limni amalga oshirish imkoniyati vujudga keladi, shu bilan bir qatorda o'qitishda natijalarini nazorat qilish va baholash uchun zamin yaratadi.

O'quvchilarning axborot dasturlari bilan ishlashi natijasida o'quv va aqliy mehnat ko'nikmalari rivojlantiriladi;

nazorat: biologiya ta'limining barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari darslarda, shuningdek, darsning barcha bosqichlarida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash, nazoratning haqqoniyligi, muntazamliligi, keng qamrovliligi, takrorlanuvchanligini amalga oshiradi;

rivojlantiruvchi: o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish dasturlaridagi o'quv topshiriqlarning qiyinlik darajasiga ko'ra: reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli va ijodiy xarakterda bo'lishi o'quvchilarning topshiriqlarni bilimi, ehtiyoji va qiziqishiga mos holda keyingi bosqich topshiriqlarini bajarishga bo'lgan intilishini orttiradi;

ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish: tabiat va undagi ob'ektlarni o'rganish ikkita olam (makro va mikroolam)ga ajratilib, biologiya fani o'zining mazmuniga ko'ra, aksar hollarda mikroolam: hujayrada boradigan jarayonlar, masalan, modda va energiya almashinuvi, fotosintez, oqsillar biosintezi, biotexnologiya va gen muhandisligiga doir o'quv materiallarini animatsiyalar orqali o'rgatib, o'quvchilarning abstrakt tafakkuri va ilmiy dunyoqarashini rivojlantiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi o'quvchilarning hujayra, to'qima, kimyoviy elementlar, atom, molekulaning tuzilishi, modda va energiya almashinuvi, fotosintez, oqsillar biosintezi kabi jarayonlar haqida tasavvur qilishlari, abstraktsiyalash va xotirada saqlash imkonini kengaytiradi; o'quvchilarning motivlari va o'zlashtirish darajasi ehtiborga olingan holda zarur hollarda takroran o'rganish va o'quvchilarning bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirish imkonini beradi; biologik jarayonlarni animatsiyalar tarzida virtualashtirish o'quvchilarning ko'rgazmali-obrazli fikr yuritish va o'quv materialini to'liq o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi; biologiya darsida

animatsiyalardan foydalanish darsning barcha bosqichlarida o'quvchilarning bilish-faoliyatini faollashtirishga olib keladi.

Biologiya fanini o'qitishda quyidagilardan foydalanish mumkin: har bir mavzu mazmuniga asosan ko'rgazmalilikni amalga oshirish, ya'ni multimediali taqdimot materiallari; biologik jarayonlarning animatsiyasi; virtual laboratoriya va amaliy ishlar; ishlab chiqarish korxonalariga virtual ekskursiya; biologik jarayonlarning modellashtirilgan dasturlari; biologik jarayonlarning ta'limiy dasturlari; o'quvchilarning mavzular bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash uchun nazorat dasturlari;

o'quvchilarning mustaqil ta'limi va ishi uchun o'quv-axborot saytlari; didaktik o'yinga asoslangan animatsiyalar; qiyinchilik darajasi turlicha bo'lgan ijodiy topshiriqlar dasturi; modul dasturlari orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish-boshqarish; qo'shimcha materiallar to'plash va ular ustida mustaqil ishlash; didaktik o'yinlar, boshqotirmalarni yechish. Demak, biologiya fanini o'qitishda innovasion texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlari va ehtiyojarini rivojlantirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. A. T. G'ofurov, Tolipova J. «Umumiy biologiyani o'qitishning norasmiy usul va shakllari», «Toshkent»/
2. J. Tolipova, A.T.G'ofurov «Biologiyadan yangi pedagogik texnologiyalar»/
3. Yu. N. M. Verzilin, M. Korsunskaya «Biologiya o'qigishning umumiy metodikasi», «O'qituvchi».

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. Sh. A. Amonashavili, S. N. Lisenkova va boshqalar «Pedagogik izlanish», «O'qituvchi».
2. A. Zunnunov va boshqalar «O'rta Osiyoda pedagogik fikr tarakkiyotidan lavxalar», «Fan».
3. J. Tolipova, A. T. G'ofurov «Biologiya o'qitish metodikasi» metodik qullanma. Akadem litsey va kasb hunar kollejlari uchun.

**Eshqurbonova Xadicha Absamatovna, Sattorova Mavluda Ismoilovna,
Berdiyeva Mavluda Ibodullayevna
(Sariosiyo, O'zbekiston)**

DARSLARNI INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Jamiyatimizda XXI asr ma'naviy, tarbiyaviy, iqtisodiy-ijtimoiy texnik, texnologik sohalar islohatlari bosqichma–bosqich amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta'lim-tarbiya jarayonlarining pedagogik texnologiyalar va didaktik o'yinlar asosida o'tkazish, erkin shaxsni tarbiyalashdan iborat. Lekin bu jarayon oson kechmaydi. Bugun ixtiyoriy tarzda qurilayotgan va amaliyotga tadbiiq etilayotgan o'qitish tizimini qa'tiyani ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylantirish lozim. Ushbu jarayonni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhi bilan sug'orish, mazmunini takomillashtirish, tuzish ijodkor o'qituvchilar oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi. Pedagogik texnologiyalar asosida qolipda turmagan turli shakllarga tushirib dars o'tishni taqoza etarkan, o'qituvchilardan katta mahorat talab qiladimi? Degan savol tug'iladi.

Agar o'qituvchi quyidagilarga amal qilsa:

- a) Pedagogik texnologiya oldindan loyihalangan bo'lsa,
- b) Tayyor loyihani amaliyotga to'ri tadbiiq eta olsa, katta mahorat talab qilinmaydi.

O'zbekiston respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonun hamda kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim tarbiyaning sifat va samaradorligini ko'tarish maqsadida ta'lim mazmunini yangilash yosh avlodni aqliy intellektual rivojlanishini ta'limnig yangi modelini ilmiy pedagogi jihatdan ta'minlangan holda muntazam takomillashtirib boorish yetakchi vazifa qilib qo'yilgan. Bu borada DTS da majburiy minimal daraja belgilab berildi. Har bir sinf o'quvchisi DTS da ko'rsatilgan majburiy minimal talablarga javob bera olsin. "Matematika fani shunchalik jiddiyki, uni qiziqarli qilishning iloji bo'lib qoldimi uni qo'ldan boy bermaslik kerak"-degan B. Paskal. Ana shularga tayangan holda o'qituvchi izlanuvchanlik bilan o'quvchilarga ijodiylik matematika faniga bo'lgan hissini uyg'ota bilishi zarur. Darslarda o'quvchilani mustaqil fikrlashlariga turli uslublaridan foydalanib erishishimiz zarur. O'qituvchi o'quvchida "Menga matematika zarur, uni bilish, hayotda qo'llashning uddasidan chiqishim kerak"-degan intilishni uyg'otsin. Bunday qiziqishni uyg'otish uchun albatta didaktik o'yinlarning ahamiyati katta va ularni o'z o'rnida qo'llay olish uchun pedagogda katta mas'uliyat yuklaydi. Didaktik o'yinlar ta'limni ko'rgazmaliligini, o'qituvchi nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga olishi orqali o'quvchilar tinglay bilish, ko'rish, teri sezgisi, nutqini ravonlashishiga ko'maklashadi. Didaktik o'yinlar bolalarning his tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinni zo'r mamnuniyat bilan ijro etadi va o'yin boshlanishini esa sabrsizlik bilan kutadilar ularning ongida beixtiyor ertangi darsning quvonchli manzarasi gavdalanadi.

Didaktik o'yinlar jarayonida bolalarda uyushqoqlik, iloji boricha vaqtinitejay bilish xislatlari tarbiyalanadi.

Texnologiya bion-bir jarayonni mohirona, sa'natkorona loyilashtirish demakdir. Pedagogik texnologiya jarayon, usul emas. Pedagogika quydagilarni o'z

ichiga oladi:

- 1) maorif
- 2) sa'nat
- 3) ma'naviyat
- 4) fanlar pedagogikasi
- 5) bola tarbiyalash
- 6) odobnoma bular pedagogi tizim bo'ladi.

Pedagogik tizim ichida ketayotgan jarayon pedagogic texnologiya deb yuritiladi. 1971-yilda Yaponiya pedagogic texnologiya maorifga kirib keldi. Pedagogik texnologiya bu shahsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o'z ichiga oladigan hamda yakuniy natijalarini ta'minlay oladigan pedagogic faoliyatdir. Ikkinchi tamondan pedagogik texnologiya aqliy rivojlanish qonunlarini o'z ichiga olgan holda pirovard natijalarni kafolatlaydigan pedagogik tadbirlar yig'indisidir. Pedagogik texnologiya oldindan belgilab qo'yilgan aniq maqsad yo'lida o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan tadbirlar yig'indisidir. Pedagogik texnologiyada nazariya bilan amaliyot birligini ta'minlash pedagogik texnologiyaning asl mohiyatining ochib beradi. Amaliyot o'qituvchining sinfda mavzu bo'yicha o'quv elementlarini tushuntirish maqsadida bajargan ishlar yig'indisi bo'lib, o'qitish jarayonining ushbu bosqichida tugallangan qismini tashkil etadi. Matematika o'qitishda quyidagilarga ahamiyat berilishi kerak. matematik tushunchalar, ta'rif, teoremlar, formulalarni o'rganish va amaliyotga tadbiriq etish. Matematikaga oid asboblarni tuzilishi va ularni amaliyotga qo'llanilishi sinfdagi bolalar fe'li, xarakteri qiziqishi aniqlanib, keyin pedagogik texnologiya qo'llaniladi. O'quvchini mustaqil fikrlashga olib kelishi kerak. Ilg'or pedagogik texnologiyalardan biri modulli texnologiya katta ahamiyat kasb etmoqda. Modulli dastur bir necha turga bo'linadi. O'uvchilar olgan bilimni qo'llay olsin. Masalan silindir hajmi formulasini bilsayu, silindrik ishdagi yog'ni o'ichay olmasa.

Ta'lim jarayonini boshqarish yangi pedagogik texnologiyani yadrosi deyiladi. Bu tizim pedagogik texnologiyalash inson salhiyatini texnika vositalari bilan birgalikda olib borishdir. Yangi pedagogik texnologiya deb-ta'lim jarayonida qisqa vaqt ishida kam energiya sarflab yuqori samaraga erishish jarayoniga aytiladi. Barkamol shahsni shakllantirishda yangi texnologiyani ahamiyati kerak.

Hozirgi tez o'zgarayotgan dunyoda yoshlarimizni hayotga tayyorlashda ularni shahsiy va jamoa oldiga kutilmaganda qo'yilgan muammolarning maqbul yechimini topa oladigan, mustaqil ravishda zaruriy axborotlarni izlab topadigan va ulardan tahlil asosida zaruriylarini ajratib oladigan, barcha bilan muloqatga kirisha oladigan, ta'lim muassasida olgan bilimlarini hayotiy ehtiyojlarida qo'llay oladigan xususiyatlarga ega holda tarbiyalash zarur bo'ladi. Bunday ishni maktabda amalga oshirilmasa keyinchalik mazkur xususiyatlarini shakllantirib bo'lmaydi. Har bir pedagog o'qituvchi his tuyg'ularini ifodalashda, boshqalar bilan muloqotda, fikr almashishda, o'z faoliyatini olib borishda nutqning ahamiyati katta ekanligini bilmog'i lozim. Nutqni aniq, to'g'ri, chiroyli, ixcham va sof tuzish uchun esa tilni, uning imkoniyatlarini yaxshi bilish talab etiladi. Har kimning nutqi o'ziga xos bo'ladi. O'sha insonning kimligi, uning saviyasi, dunyo qarashi, ma'naviy olami va ichki dunyosini uning nutqi orqali bilib olish mumkin. Ayniqsa, ta'lim-tarbiya jarayoni bilan shug'ullanuvchi pedagog o'qituvchilarning nutqi namunali bo'lishi kerak. Chunki

o'qituvchi nafaqat bilim beradi, balki u o'quvchilarni tarbiyalaydi ham. Shu ma'noda pedagog nutqi ravon, aniq, lo'nda, tushunarli va mazmunli bo'lishi shart.

Pedagogik texnologiyaning maqsadi — o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil etib natijaga erishish, o'quv jarayonida o'quvchining mustaqil fikrlay olishi, ijodiy ishlay olishi, izlanishi, tahlil eta olishi va xulosa chiqara olishi, shuningdek, o'ziga, guruhga, guruh esa unga baho bera olishi kerak. O'qituvchining esa bunday faoliyat uchun imkoniyat va sharoit yarata bilishi o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir darsning mavzusi, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. Pedagogik texnologiya yakka tartibdagi jarayon bo'lib, o'quvchi ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

O'quvchi qo'yilgan maqsadga mustaqil, o'zi faol ishtirok etgan holda yakka, juftlikda, guruhlarda javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, yozadi, so'zga chiqadi. Dalil va asoslar orqali fikrini yoritib berishga harakat qiladi. Har qanday matematik tushuncha yoki nazariy mavzu o'quvchilarga ma'lum bir metodlar asosida tushuntiriladi. Ana shunday metodlar ikki yo'nalishda bo'lib, ulardan biri o'qituvchining tushuntirish metodlari, ikkinchisi esa o'quvchilarning qabul qilish metodlaridir. O'qituvchining tushuntirish metodlari ma'ruza, suhbat va mustaqil ishlardan iborat. O'qituvchi bir soatlik darsi jarayonida ana shu uchta metoddan foydalanib dars jarayonini olib boradi. O'qituvchi tomonidan tushuntirilgan mavzuni o'quvchilar reproduktiv, evristik va izlanish metodlari yordamida qabul qiladilar.

Agar o'qituvchi dars jarayonida mavzuni ma'ruza metodi bilan tushuntirsa, o'quvchilar reproduktiv metod bilan qabul qiladilar. Bunda mavzu materialining mazmuni mantiqiy tahlil qilinmaydi, ma'ruza metodi bilan dars o'tishda o'qituvchining o'zi juda faol bo'lib, talabalar esa faol bo'lmaydi. Agar o'qituvchi mavzuni suhbat metodi bilan tushuntirsa, o'quvchilar evristik metod bilan qabul qiladilar. Bunda talabalarning tushuntirilayotgan mavzu materialiga nisbatan faolligi oshadi, chunki o'qituvchi mavzu mazmunini mantiqiy ketma-ketlikka ega bo'lgan savollar asosida o'quvchilar bilan birgalikda ochib beradi, bunda bevosita o'quvchilar ham savollarga javob berish orqali dars jarayonida faol ishtirok etadilar. Umuman olganda suhbat metodi bilan dars o'tishning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi tomonidan sinf o'quvchilari uchun o'tiladigan mavzu materialining mazmuni muammo qilib qo'yiladi, so'ngra maqsadga tomon yo'naltiruvchi savollarni o'quvchilarga berish orqali qo'yilgan muammo hal qilinadi.

Agar o'qituvchi mavzuga doir misol yoki masala echmoqchi bo'lib dars jarayonini rivojlantirgan bo'lsa, u mustaqil ishlash metodi bilan dars o'tadi, bunda o'quvchilar qo'yilgan masala yoki misolni echish uchun fikrlaydilar, izlanish metodi bilan mavzuni o'zlashtiradilar. Bunday dars jarayonida o'quvchilar juda faol bo'ladi, chunki ular echish uchun doskaga o'qituvchi tomonidan yozib qo'yilgan misol yoki masala yuzasidan mustaqil holda fikrlaydilar, o'ylaydilar va mantiqiy xulosa qiladilar, bu bilan ularda mantiqiy fikrlash rivojlanadi.

O'qituvchining tushuntirish va o'quvchining qabul qilib olish metodlari asosida ular ongida bilish deb ataluvchi psixologik jarayon hosil bo'ladi. Bugun ta'lim-tarbiya jarayonini davr talablariga mos ravishda amalga oshirishning eng zarur omili bo'lgan zamonaviy darsning har biri o'quvchi-yoshlar uchun o'ziga xos quvonch doirasiga, har bir ta'lim dargohi esa shodlik maskaniga aylanishi lozim. Xususan, darsga ishonch bilan kelib, o'z o'qituvchisini alohida hurmat va e'zoz bilan

kutib olish tuyg`usini shakllantirish bugungi kun ta`lim-tarbiya jarayonining asosiy mezonlaridandir. Uqituvchi dars paytida o`quvchilarga to`g`ri yo`l-yo`riq berib tursa, o`zlashtirishi qiyin bo`lgan bolalar faol ishtirokchiga aylanganini o`zlari bilmay qoladilar.

Ma`lumki, o`quvchi faoliyati butun ta`lim-tarbiya jarayonining asosi hisoblanib, o`qituvchi turli-tuman usullardan foydalangan holda o`quvchi faoliyatini aniq maqsadlar tomon yo`naltirib turadi. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov aytganidek - «Ta`lim-tarbiya—ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta`lim-tarbiya tizimini o`zgartirmasdan turib, ongni o`zgartirib bo`lmaydi. Ongni, tafakkurni o`zgartirmasdan turib esa biz ko`zlagan oliy maqsad — ozod yurt, bo`lmaydi»

Yangi pedagogik texnologiya jarayondir, bu jarayonni darslarda qo`llaymiz darslarni amaliy mashq mustaqil ishlash, guruhlash, tanlovlar, aqliy hujum, baxs-munozara va boshqa ucullarni mavzuga mos qilib o`quvchilarga o`rgatishimiz, shu bilan birga didaktik o`yinlardan joyida foydalanish o`quvchilar faolligini oshiradi. Men dars tashkil qilishning ko`pincha maqbul usullaridan biri guruhlarga bo`lib, dars o`tish, deb hisoblayman. Guruhlarga bo`lishda albatta har bir guruhga a`lochi o`quvchilardan tenglab o`tkazaman. Bu hol esa o`rtacha o`qiydigan erkin fikrlashni bilmaydigan, o`quvchini harakatlantirishga olib keladi. Guruhga ijobiy ta`sir uyg`otishga sabab bo`ladi. Natijada darsda ishtirok etmaydigan yo`qotishga sabab bo`ladi. O`quvchilar qanchalik darsga qiziqsa ularni bilimi ortadi. Bizni vazifamiz turli usullardan va didaktik o`yinlardan foydalanib o`quvchilar bilimini oshirishdir.

ADABIYOTLAR:

1. N. N. Azizxo`jaeva Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.
2. И. Каримов Узбекистан, устремленный в XXI век – Т.: Узбекистан.
3. 5-sinf matematikasi dars qo`llanmasi.
4. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

**Jurayeva Dilnoza Raxmatullayevna, Begaliyeva Matluba Ismoil qizi,
Abrayev Suyun Djanbutayevich, Xayitova Fazilat Narziqulovna
(Surxondaryo, O'zbekiston)**

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR QO'LLASHNING AHAMIYAT

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llabquvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lida xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O'zbekiston Respublikasida qo'yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta'limi tizimida ta'lim sifati baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishini misol sifatida keltirish mumkin.

Qariyb 60 yildan ko'proq vaqt mobaynida IEA tashkiloti ta'limni qiyosiy o'rganish sohasida yetakchi tashkilot bo'lib kelmoqda. Mazkur tashkilot ta'lim tizimida davlat siyosati va amaliyotning ta'sirini chuqurroq o'rganish maqsadida ta'lim sohasida keng miqyosli tadqiqotlar olib boradi. Bu tadqiqotlar ta'lim jarayonlari va natijalarini ko'rib chiqib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi o'zaro bog'liq omillarni qiyosiy tahlil qiladi.

Davlat ta'lim standartining vazifalaridan biri davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash etib belgilangan. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartining asosiy prinsiplaridan biri rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanishdir.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimini o'rganish, ularning ilg'or tajribalarini milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda amalda qo'llash dolzarb vazifa sanaladi. Quyida bir qator rivojlangan xorijiy davlatlarning ta'lim tizimi, xususan, biologiya ta'limi mazmuni yoritilgan. Buyuk Britaniyada 5 yoshdan 16 yoshgacha ta'lim olish majburiy hisoblanadi.

Ammo, chet ellik oila farzandlari 7 yoshdan maktabga qabul qilinadi.

Ta'lim bosqichlari: 1) maktabgacha ta'lim (3-5 yosh); 2) boshlang'ich ta'lim (5-11 yosh); 3) o'rta ta'lim (11-16 yosh); 4) oliy ta'lim.

Ta'lim tizimi 2 tarmoqqa ajratilgan: davlat byudjeti hisobidan bepul ta'lim (state school), unda bolalarning 93% i o'qiydi hamda xususiy, pullik ta'lim (private school)da bolalarning 7% i o'qiydi. 7-11 yoshli bolalar boshlang'ich maktab (junior school yoki preparatory school) da o'qishadi.

Maktabda matematika, ingliz tili, geografiya, tarix, musiqa va san'at o'qitiladi.

Asosiy o'qitilayotgan fanlardan Common Entrance Examination (CEE) – umumiy kirish imtihonini test sinovlari ko'rinishida va IQ topshiriladi. 11 yoshdan 16 yoshgacha davlat yoki xususiy maktablarda o'qitish o'quvchilarning GCSE (General Certificate of Secondary Education) – o'rta ma'lumot haqidagi shahodatnoma yoki GNVQ (General National Vocational Qualification) — kasbiy malaka haqidagi milliy guvohnomani olishga qaratilgan.

14 yoshdan 16 yoshgacha o'quvchilar, odatda, 7-9 ta fandan imtihon topshirishga va o'rta ma'lumot haqidagi sertifikat GCSE ni olishga tayyorlanishadi. Britaniya maktablarining asosiy vazifalaridan biri ijodiy, o'ziga ishongan, mustaqil insonni tarbiyalashdir.

O'quvchilar ta'limning maxsus umumiy siklini o'tib bo'lgach, imtihon (Common Entrance Examination) topshirishadi. Imtihondan muvaffaqiyatli o'tish yuqori maktabga o'tishning majburiy sharti sanaladi. Majburiy ta'limdan so'ng 16 yoshli o'smirlar ish boshlashlari yoki universitetga o'qishga kirish uchun o'qishni davom ettirishlari mumkin. Maktabda biologik ta'limning maqsadi o'quvchilar biologiya fanidan egallagan bilim, malakalarini maktab ta'limining oxirgi bosqichida namoyish eta olishidir.

Barcha fanlardan o'quv maqsadlari ortib boruvchi qiyinlik darajasi bilan ifodalanadi. Buyuk Britaniya biologik ta'lim tizimida o'qitish natijasining muhim jihatlardan biri fanni o'zlashtirganlik darajasi sanaladi. Bu o'quvchilarning fanni nafaqat o'qish jarayonida, balki biologiya kursini tugatganlaridan so'ng ham ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishda tadqiqot metodlarini to'g'ri tanlash muhimligini anglaydilar.

O'quvchilar maktab davrida o'z o'quv tadqiqotlarining kuzatish natijalari yuzasidan hisobot tayyorlaydilar, maktab biologiya kursidan o'rin olgan biologik hodisalarning dalillariga tanqidiy fikr bildiradilar, mazkur dalillarga qo'shimcha dalillarni mustaqil topish imkonini beradigan usullarni tushuntirishga harakat qiladilar. Shuningdek,

Buyuk Britaniyada biologiya kursini o'qitishda interfaol o'qitish shakllari va metodlardan foydalaniladi.

Zoologiya va botanikadan laboratoriya ishlarini o'tkazishda kompyuter texnologiyalari qo'llaniladi, chunki tajribalar o'tkazishda tirik preparatlardan foydalanish qonun tomonidan ta'qiqlangan. Finlyandiya. 15 yoshli maktab o'quvchilarining tabiiy fanlardan savodxonligini o'rganuvchi PISA xalqaro dasturining 2012 yilgi natijalariga ko'ra, Finlyandiya Xitoy, Singapur, Yaponiyadan keyin 4-o'rinni egallagan.

Finlyandiya Konstitutsiyasida mamlakatning har bir fuqarosi 7 yoshdan 17 yoshgacha majburiy ta'lim olishi belgilangan. Fin ta'limining asosiy jihatlari:

- o'rta maktabda tabaqalashtirilgan sinflarning ta'qiqlanganligi;
- teng yoshdagi barcha o'quvchilarga fanlar bir xil o'qitiladi, ixtisoslashtirilgan, maxsus sinflar yo'q;
- individual yondashuv (Finlyandiya har uchta o'quvchining bittasi alohida fanlardan u yoki bu shaklda maxsus yordam oladi), bu esa kuchli va kuchsiz o'quvchilar o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirishga imkon beradi;
- o'qitishning umumiy maqsadi – jamiyatning ma'naviy javobgar a'zosini shakllantirish. Kundalik hayotda zarur bo'lgan bilim, ko'nikmalarga alohida e'tibor qaratiladi;

- ta'limning milliy maqsadlarini va har bir fanni o'qitishga ajratilgan soatlarni hukumat belgilab beradi. Barcha pedagoglar yagona milliy dasturni amalga oshiradilar. Ammo o'qitish metodlari, usullari, vositalari, o'quv qo'llanmalarini tanlashda ularga chegara qo'yilmagan.

Finlyandiya majburiy ta'lim ikkita bosqichda amalga oshiriladi:

1. Boshlang'ich maktab (elementary school) 1-6-sinflar.

2. Asosiy umumiy ta'lim (lower secondary school) 7-9 sinflar. Asosiy maktabni tamomlagach, o'quvchilar tugallangan umumiy o'rta ta'lim beradigan gimnaziyada (3 yil) yoki kasbiy-texnik o'quv yurtida o'qishlari mumkin. (1-4 yil). Maktab ta'limi o'rtacha o'quvchiga, gimnaziyada esa o'quv dasturi murakkab bo'lib, kuchli o'quvchilarga mo'ljallangan. Gimnaziyani tamomlashda o'quvchilar ona tilidan (fin yoki shved tili), davlatning ikkinchi tili chet tili, shuningdek, matematika yoki ijtimoiy fanlardan davlat imtihonlarini yozma holda topshiradilar. Fin o'qitish tizimining yutuqlarini neyropedagogika prinsiplariga mos kelishi bilan ham bog'lash mumkin.

Bolalarni turli manbalar (internet, kitoblar)dan bilimlarni "egallash"ga o'rgatiladi, shuningdek, tadqiqot va loyihalash ta'limining turli shakl va metodlaridan foydalaniladi. Asosiy maktabda biologiyani o'qitish quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1-4-sinflarda biologiya fani asoslari "Atrof olam va tabiiy fanlar" ("Environmental and Natural Studies") doirasida o'qitiladi. Bu integrativ kurs bo'lib, geografiya, fizika, kimyo fanidan tushunchalarni va sog'liqni saqlash yuzasidan tavsiyalarni o'z ichiga olgan.

Kurs inson va tabiatning barqaror taraqqiyoti asoslarini o'rganishga yo'naltirilgan. Muammoli va tadqiqot darslarini o'tkazish tavsiya etiladi. Kurs va uning modullarining maqsadi o'quvchilarni ularni o'rab turgan olam bilan tanishtirish, tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlarni tushunishdir. O'quvchilarning atrof-muhit, o'zlarining salomatliklari haqida egallagan bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlariga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar baholanmaydi;

- 5-6-sinflarda biologiya alohida fan sifatida o'qitiladi (haftasiga 1 soat). Hayot va uning hodisalari o'rganiladi.

O'quvchilar tomonidan tadqiqot loyihasingin bajarilishi sifatiga ko'ra baholanadi;

- 7-9-sinflarda biologiya va geografiya fanlari har yarim yilda navbat bilan o'qitiladi. 7- va 9-sinflarda haftasiga 2 soat, 8-sinfda esa 3 soat. Fakultativ sifatida haftasiga qo'shimcha 2 soatdan o'tilishi ham mumkin. Fanning mazmuni modul tuzilishga ega. Fanni o'qitish o'rganish va pragmatik modellarning xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Mazkur modelga ko'ra, o'qituvchi ta'lim oluvchilarni ilmiy faktlar (ba'zan turli ilmiy soha ma'lumotlari)dan tashkil topgan darslarda qatnashishga chorlaydi, savollar beradi va bu savollarga javob oladi, shuningdek, laboratoriya ishlari o'tkaziladi. Yuqori sinflarda alohida fanlar o'qitilmaydi. Tabiiy-ilmiy fanlar bloki bir-biri bilan bog'liq modullar ko'rinishiga ega.

O'quvchilar biologiyani o'rganishda ikkita majburiy va ikkita ixtiyoriy modullarni o'zlashtirishlari zarur. Bitta modulni o'rganish 5 haftani tashkil etadi. Maktabdan tashqarida o'qitishga katta e'tibor qaratiladi. Bolalar ilmiy-ko'ngilochar markazlarga, masalan, Xelsinki'dagi "Evrika"ga boradilar. "Evrika"dagi barcha ekskursiyalar va maxsus loyihalar umumiy ta'lim dasturlarini to'ldiradi.

Buning uchun pedagoglar "Evrika" xodimlari bilan hamkorlikda ishlaydilar:

sinfdan tashqari mashg'ulotlarning rejasini birgalikda tuzadilar va mavjudlariga tuzatishlar kiritishadi. Ta'lim amaliy yo'naltirilgan: bolalar qiziqarli o'yin shaklida chiqindilarni saralashni o'rganishadi, muzliklarning erishi qanday oqibatlarni keltirib chiqarishini ko'rishadi, hayvonlarda shartli reflekslarning hosil bo'lishini kuzatishadi va h.k. AQSH ta'lim tizimlari.

AQSHda "strategik fanlar" (matematika, kimyo, fizika, kompyuter texnikasi)ni o'qitishga alohida e'tibor qaratiladi. Maktablarda yagona dastur mavjud emas. Boshlang'ich maktab 6 yillik, unda fizika, kimyo, geografiya, astronomiya, botanika, fiziologiya fanlarining ma'lumotlarini qamrab olgan tabiatshunoslik haftasiga 2 soatdan o'qitiladi. Boshlang'ich maktabning o'ziga xosligi o'quv materialining kompleks tuzilganligidir. Pedagogikada bilimlarning integratsiyasi markaziy o'rinni egallaydi.

O'quv materialining fan ko'rinishidagi tuzilmasi mavzular majmuasi yoki amaliy vazifalar ko'rinishida dastur bilan uyg'unlashgan. Dasturlar spiral tuzilishiga ega, ya'ni bir xil mavzular har bir sinfdan murakkablashgan holda o'qitiladi. Barcha sinflarda tabiatshunoslik kursining mavzulari ro'yxati:

- tirik tabiat (o'simliklar, hayvonlar);
- yer (havo, suv, ob-havo);
- osmon (quyosh, oy, yulduzlar);
- energiya shakllari va mashinalar (issiqlik, tovush, yorug'lik va rang, magnitlar, elektr toki, mashinalar);
- odam (salomatlik, xavfsizlik).

Gigiena va jismoniy tarbiyaga katta e'tibor qaratiladi: tanani parvarishlash, to'g'ri ovqatlanish, yuqumli kasalliklar, sanitariya, dam olish va uyqu, qad-qomat, kiyim, xavfsizlik.

Umuman olganda, o'quv materialining tor amaliy yo'nalganligi va yengilligini qayd etish mumkin. Xorijiy davlatlar ta'limida biologiya fanini o'qitishning ilg'or tajribalari sifatida shuni qayd etish mumkinki, fanni o'qitishda o'quvchilarga "tayyor" bilimlarni "berish"dan ko'ra, o'quvchilarning bilimlarni "egallashlari", o'qitishning reproduktiv metodlaridan ko'ra, amaliy, muammoli, tadqiqotchilik metodlari ustunlik qiladi. Fanni o'qitishga bunday yondashuv esa zamon talabi bo'lgan intellektual salohiyati yuqori shaxsni tarbiyalash imkonini yanada oshiradi.

Kutlimuratova Nargiza Rustamovna
(Urganch, O'zbekiston)

HAMKORLIK PEDAGOGIKASI VA UNING ASOSIY MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada hamkorlik pedagogikasi, bilimlarni birgalikda o'zlashtirish "pedagog-o'quvchi" munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar. ta'limiy hamkorlik, individual yondashish, juftlik va kichik guruhlarda ishlash.

Аннотация. В статье рассматриваются педагогика сотрудничества, особенности совместной организации отношений «учитель-ученик».

Ключевые слова. образовательное сотрудничество, индивидуальный подход, парная и малая групповая работа

Annotation. The article discusses pedagogy cooperation, especially the joint organization of relations "teacher-student"

Keywords. educational cooperation, individual approach, pair and small group work.

Pedagogik hamkorlik g'oyalari bugungi kunda pedagogik texnologiyalar mazmuniga singdirilgan va "XXI asr ta'lim Konsepsiyasi" asosini tashkil etadi. Hamkorlik pedagogikasi insonparvarlik pedagogikasi bilan uzviy va o'zaro aloqadordir. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi ko'pdan qo'llab kelinmoqda. Bu g'oya ilk bor D.Dyui tomonidan XX asrning 20 yillarida ilgari surilgan. Lekin ushbu pedagogikaning metodik tavsifi 70 yillarning oxiri, 80 yillarning boshlarida dunyoning turli mamlakatlarida Rossiya, Buyuk Britaniya, Kanada, G'arbiy Germaniya, Avstriya, Gollandiya, Yaponiya, va Isroilda matbuotda e'lon qilingan.

Hamkorlik ta'limi – o'quv jarayonida o'quvchilarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, "pedagog-o'quvchi(lar)" munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ifodalovchi ta'lim bo'lib, uning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini jamoada, kichik guruhlarda yoki juftlikda birgalikda, o'zaro hamkorlikda bajarish sanaladi

Hamkorlik ta'limi yo'nalishlari quyidagicha:

- ta'limiy hamkorlikka asoslanuvchi munosabatlarni tashkil etish;
- o'quvchilarga insonparvarlik g'oyalari asosida individual yondashish;
- ta'lim jarayonida kasbiy va ma'naviy birlikning qaror topishiga erishish.

Hamkorlik ta'limi texnologiyalari – o'quv jarayonida o'quvchilarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, shuningdek, "pedagog-o'quvchi(lar)" munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ta'minlovchi ta'limiy xarakterdagi texnologiyalar.

Hamkorlik ta'lim texnologiyasining tarkibiy elementlari:

1. Tayanch konspekt (fizik, matematik va kimyoviy formulalar, tezislar, izohlovchi suratlar, qisqacha xulosalar, ramziy belgilar, sxemalar, grafiklar, jadvallar,

diagrammalar)dan foydalanish.

2. Bilimlarni test asosida sinovdan o'tkazish.

3. O'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini baholash.

Hamkorlik ta'lim texnologiyasi tamoyillari:

- juftlik va kichik guruh a'zolarining o'zaro birligi;

- juftlik va kichik guruhda har bir a'zoning shaxsiy va guruh muvaffaqiyati

uchun javobgarligi;

- kichik guruhda hamkorlikka asoslangan o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish;

- guruh va jamoa ishining umumiy baholanishi.

Hamkorlik ta'lim texnologiyasining belgilari:

- o'quvchi shaxsi, individualligiga e'tibor qaratish;

- tayyor bilimlarni o'zlashtirish va ularni qayta ishlab chiqishni inkor qilish;

- o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish;

- pedagogga va tengdoshlarga nisbatan ijobiy munosabatning yuzaga

kelishini ta'minlash;

- o'quvchilarda madaniy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish;

- hamkorlik va o'zaro tenglikka asoslangan muhitni yaratish.

Hamkorlik ta'lim texnologiyasini qo'llashda o'quvchilar quyidagi shakllarda ta'lim oladilar:

1) jamoada;

2) kichik guruhda;

3) juftlikda

Hamkorlik ta'lim texnologiyasini qo'llashda o'quvchilardan quyidagilar talab etiladi:

- sherigi va guruhdoshlari bilan hamkorlikka erishish;

- faol ishlash, topshiriqqa nisbatan mas'uliyatli yondashish;

- sherigi yoki guruhdoshlariga ijobiy munosabatda bo'lish;

- nafaqat o'z yutug'i, balki sherigi va guruhining muvaffaqiyati uchun

javobgarlikni his qilish;

- juftlikda va guruhda ishlash – jiddiy va mas'uliyatli mehnat ekanligini his

qilish. [2. 188].

Hamkorlik ta'lim texnologiyasi "pedagog-o'quvchi hamkorligi" tamoyiliga asoslanib, quyidagi shakllarda qo'llaniladi:

- kichik tadqiqotlarni olib borish;

- fan bo'yicha tashkil etiladigan musobaqada ishtirok etish;

- fan olimpiadalariga tayyorlanish;

- hamkorlikda loyihalar tayyorlash;

- ijodiy hamkorlikda ilmiy maqolalar chop etish;

- ijodiy hamkorlikda o'quv manbalarini yaratish.

Hamkorlik ta'lim texnologiyasini qo'llash tartibi:

- o'quvchilar (4-5 kishi) kichik guruhlarda ishlaydi;

- jamoa uchun yagona o'quv materialini taqdim etiladi;

- har bir guruh alohida savolga javob topadi;

- Ekspert guruhi shakllantiriladi;

- bu guruh har bir guruh ishi bilan batafsil tanishadi;

- ekspert guruhi har bir o'quvchining faoliyatini individual baholash imkoniyatiga ega;

- o'quvchilar to'plagan ballar umumlashtirilib, kichik guruhning faoliyati baholanadi;

- eng yuqori ball to'plagan jamoa g'olib sanaladi. [2. 189].

Pedagogik hamkorlik ta'lim jarayoni subektlari faoliyatida yangicha sifat o'zgarishlarining shakllanishi va namoyon bo'lishiga ko'maklashadi. Pedagogik hamkorlikning muhim jihati shundaki, u ta'lim jarayoni subektlari faoliyatini muayyan tarzda uyg'unlashtirishga hizmat qiladi. Pedagogik hamkorlik jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi faoliyati uyg'unlashadi, ijodiy xarakter kasb etadiki, u ta'lim jarayoni subektlari faoliyatidagi o'ziga xos har bir jihatni hisobga olishni taqozo qiladi. "O'qituvchi-o'quvchi" munosabatlaridagi hamkorlik, bu faoliyatning borishi va natijalarining birgalikdagi tahlili, ma'naviy dunyoda bir-biriga samimiylik, o'zaro bir-birini mustahkam tushunish, kattalar va bolalarning hamkorlikdagi rivojlantiruvchi faoliyati g'oyasi. An'naviy ta'lim pedagogik jarayonda o'qituvchining subekt sifatida, o'quvchini esa obekt sifatida ishtirokiga asoslangan. Bu qoida o'quvchi o'z o'quv faoliyatining subekti haqidagi tasavvur bilan almashinadi. "O'quvchi-o'quvchi" munosabatlari hamkorlikning turli shakllari (hamkorlik, birga qatnashish, birga qayg'urish, birga ijod qilish, birgalikda boshqarish)da qabul qilingan umumiy jamoa hayotiy faoliyatida amalga oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizxojaeva N. N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". Toshkent-2006 yil
2. Ishmuhamedov R. J. «Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari», Toshkent, 2004 yil
3. Saidaxmedov N. S. «Yangi pedagogik texnologiyalar», Toshkent, 2004 yil.

**Makhmadiyarova Ruzigul Nurmukhamedovna,
Ismoilova Sanobar Mamadamin kizi
School № 33, English teachers
(Jarkurgan, Uzbekistan)**

APPLICATION OF MODERN WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING

Resume: *Traditional English language teaching at school is focused on reading, understanding and translation of various texts, including learning grammatical features of scientific style.*

Key words: *language teaching, skills, innovative methods, foreign languages.*

Teachers with a good command of a foreign language should be trained in a short time. The most important thing is to go to the meeting of the set task, i.e. to teach a schoolboy to understand, speak, listen and extract various information from original sources in a short time, combining innovative and traditional methods of teaching.

The main emphasis has now shifted to developing oral communication skills. Oral speech consists of reading, understanding, listening and reproducing what is read and listened to. This applies to both written and oral speech.

The scheme for teaching oral communication should be based on the following: determining the signs of oral communication and the means of expressing these signs, determining the type of communication, comparing the means of expression and choosing the types for active or passive use; analyzing texts aimed at communication and developing effective exercises for training; searching for the vocabulary, grammar and lexical types that are necessary for understanding, reading, perceiving, speaking and listening, using various modern means such as audio, video and video.

The English teacher at school is obliged to investigate all the features of scientific and technical texts in the required specialty, there should be special terminology, special general scientific vocabulary, various complex grammatical constructions.

For the realization of communicative abilities of speaking, texts are distinguished: by the nature of presentation (message, discussion, description), by the type of attitude to the specialty (various scientific articles and texts from textbooks, reference books, dictionaries, etc., as well as by the means of transmission (oral and written).

It is necessary to start with elementary descriptions and characteristics, processing them in a monological form, and further to use texts more complex in structure and style which will help to develop in pupils an algorithm of activity in a mode of communication the teacher/audio and multimedia - schoolboy and schoolboy - schoolboy. Teaching material should be selected on the basis of the learner's preliminary knowledge of the language and specialization, the purpose and type of communication, and the level of education.

Communicative and oral-oriented exercises include the following: availability

(presentation) of the source material or model; explanation of the material or model (optional); simulation of the model; reproduction of the model in different ways; own communication. The main thing is the ability to select the main topic of the problem, correctly describe, formulate and express opinions.

When developing oral skills, the monological element is not inferior to the dialogic one; therefore, gradually increasing the volume of monological replica in a dialogue, later on we will move to purely monological forms of oral speech - summary, abstract, annotation, description of a scheme, phenomenon or process with further recording of what we have heard.

Thus, innovative technologies of teaching foreign languages at school consist of a combination of traditional and intensive teaching methods based on a functional communicative linguistic model of the language and the development of a holistic system of teaching speech communication on professional topics. Today, when computer technologies have covered all spheres of human activity, there is a need to improve the process of teaching a foreign language, since the knowledge of a foreign language is one of the factors influencing the competitiveness of a young specialist on the world labor market.

The improvement of the learning process means the use of innovative methods, in particular, the introduction of modern innovative technologies - computer and network facilities. The implementation of modern innovative technologies in the process of foreign language teaching can be achieved by using the Internet technologies. The diversity of Internet information resources allows schoolchildren to perform various types of search and research tasks.

In addition, the Internet provides schoolchildren with a unique opportunity for visual communication with native speakers in real time, which contributes to the correct perception of live speech based on authentic sounds, mimics and gesticulation. Another advantage of using the Internet in the learning process is to test students' learning by testing them in real time.

The teacher should not only motivate pupils to use modern innovative technologies in performance of some tasks, but also actively to apply these technologies in spoken speech.

The methods and techniques that make up the technological arsenal of a personality-centered approach should be dialogical, have an activity-creative character, support the individual development of the child, and provide the necessary space and freedom for students to make independent decisions. It is the personally oriented approach that creates the most favorable atmosphere for increasing the cognitive interest in learning a foreign language, since it represents the lesson material and the whole subject as a whole in a personally significant light for the student. This shows the significant potential of this approach for increasing student motivation.

Thus, learning a foreign language at school makes an important contribution to the overall development of students and thus contributes to the development of their emotional, creative, social, cognitive and linguistic skills.

REFERENCES:

1. Mukhina S. A. Non-traditional pedagogical technologies / S. A. Mukhina. - Rostov-on-Don, 2014. — 287p.
2. Nazarova T. S., Polat E. S. Means of training: technology of creation and use. M.: URAO, 2013. — 387 p.
3. Passov E. I. Foreign language teacher Mastery and personality / E. I. Passov, V. P. Kuzovlev, V. B. Tsar'kov. - M.: Education, 2015. — 242 p.

Muhammadiyeva Matlyuba Madjitovna
(Termiz, O'zbekiston)

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QITISHDA INNOVATSIYON TA'LIM
TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING AHAMIYATI**

XXI asr fan-texnika, axborotlashtirish asri bo'lishligi bilan bugungi jadallashib borayotgan ilm-fan yutuqlari kechagi oldimizga qo'yilgan rejalarning natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda butun dunyoda ro'y berayotgan globallashuv sharoitida mamlakatimiz barqaror taraqqiy yetib borish uchun har tomonlama modernizatsiyalashgan tizimli yondashuvni taqozo qilayotganligi munosabati bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohasini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinib, Harakatlar strategiyasining to'rtinchi "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi"ning to'rtinchi "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish" bandidan kelib chiqqan holda uzluksiz malaka oshirish tizimiga alohida e'tibor qaratildi.

Shu asosda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentyabrda «Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Unda uzluksiz malaka oshirish tizimi samaradorligini yanada takomillashtirish, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini doimiy rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasida "Boshlang'ich ta'lim jarayonini rivojlantirishda o'qituvchining kasbiy kompetentligi va o'qimishlilik darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va bu sohadagi ilg'or tajribalar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi va kompetensiyaviy yondashuv asoslarini bilishi boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega" ekanligi takidlangan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-siyosiy va madaniy sohalardagi islohotlarning asl maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyatimiz uchun munosib – bilimli, yuksak intellektual salohiyatga ega, ma'naviy jihatdan barkamol insonlar qilib voyaga yetkazish bo'lib, bu vazifalar har tomonlama salohiyatli, boy tajribaga ega, zamon talablari asosida faoliyat yurituvchi sharaffli kasb egalari – o'qituvchilar zimmasiga yuklanadi. Shu bois ham bugungi kunda xalq ta'limi xodimlari, pedagog, tarbiyachilarning ijtimoiy yetukligi, faolligini yuksak darajaga ko'tarish mustaqil yurtimiz kelajagini hal qiluvchi muhim strategik masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Hozirgi zamon o'qituvchisi ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda o'quvchilarning pedagogik-psixologik tabiatiga e'tiborini qaratishi va ta'lim jarayoniga innovatsiyani olib kirishi, hamkorlik asosidagi bahs-munozaraga imkon yaratishi, hamkorlik asosidagi iroda mustahkamligini, muomala madaniyatini, iste'dodini tarbiyalashi lozim.

Boshlang'ich ta'limning samaradorligini ta'minlashda o'qituvchining shaxsiy sifatлари va pedagogik mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi ko'p jihatdan o'quvchi uchun o'rnakdir. Shuning uchun ham, u birinchi navbatda, ularni o'ziga jalb eta olishi kerak.

Innovatsion faoliyat bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimi bo'lib, u ma'lum doiradagi muammolarni echish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni echish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo'lishdir.

O'qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat. Innovatsion faoliyat – uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. O'qituvchi innovatsion faoliyati xususiyatlarini o'rganib chiqqan pedagog olimlar fikrlariga tayangan holda, quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin: ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash; mualliflik kontseptsiyalarini yaratish qobiliyati; tajriba-sinov ishlarni rejalashtirish va amalga oshira olish; o'zidan boshqa tadqiqotchipeдагоglar tajribalarini qo'llay olish; hamkasblar bilan hamkorlik; fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik; ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish; yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish.

O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosiga murojaat etish jamiyatda innovatsion jarayonlar dinamikasining o'sib borayotganligini tushunish natijasida vujudga keldi. Uning tahlili faqat fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishni o'z ichiga olmasdan, balki yangiliklarni izlash, yaratish, moslashtirish, tatbiq etish va olingan natijalarni qayta tekshirish kabi jarayonlarni ham qamrab oladi. Innovatsion faoliyatning tuzilishini o'rganib chiqqan olimlardan biri V. Slastenin uni quyidagicha tuzilishga ega deb ko'rsatib o'tadi: «Innovatsion faoliyatning tuzilishi-ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, muomala madaniyati.

Innovatsion faoliyatning darajalari: reproduktiv, evristik, kreativ bo'lishi mumkin». Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, tom ma'noda ta'lim jarayoniga kirib keladi.

Shu sababli ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonga kiritish 4 bosqichda amalga oshiriladi: Muammoni tahlil asosida aniqlash. Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash. O'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish. O'zgarishlarni amalga oshirish. Innovatsion faoliyatga tayyorlashdan maqsad-o'qituvchining yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o'z ustida ishlash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashq'ulotlarni o'tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat. «Innovatsion faoliyat o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi.

U o'qituvchi tomonidan u yoki bu pedagogik vazifani hal qilishda qandaydir to'siqqa duch kelinib, uni muvaffaqiyatli hal etishga intilish asosida yuzaga keladi». Innovatsion faoliyat yangi q'oyani izlashdan boshlanadi. Pedagogik innovatsiya ta'limtarbiya jarayonidagi muhim va murakkab masala echimiga yo'naltirilganligi sababli o'qituvchidan yangicha yondashuvni talab qiladi.

O'qituvchi innovatsion faoliyati tuzilishini taqil qilishga turli xil yondashuvlar

mavjud. Masalan, A.Nikolskayaning fikricha, faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya'ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi. O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashda bir qator psixologik to'siqlar mavjud. Bularning birinchisi o'qituvchining o'zi ko'nikkan faoliyat chegarasidan tashqariga chiqishi juda qiyinligi, ya'ni o'qituvchilarda ijodkorlikning etarli emasligi bo'lsa, yana bir sabab yangi va noma'lum narsalar qar doim odamlarda cho'chish va xavfsirashni keltirib chiqarishidir.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda shunday xulosaga kelish mumkin. O'rganib chiqilgan ilmiy ishlarning aksariyatida «innovatsion faoliyat» tushunchasiga ta'rif berilgan bo'lsada, bu sohada hammaga ma'qul keladigan va innovatsion faoliyatning to'liq mazmunini ochib beradigan yagona ta'rif yaratilmagan, shuningdek, bu faoliyatni shakllantirish jarayoniga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas.

Xulosa qilib aytganimizda, innovatsion faoliyat – bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba – sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratish bo'lib, uning pragmatik xususiyati shundaki, u q'oyalar maydonida ham va alohida bir sub'ektning harakat maydonida ham amalga oshirilmaydi, balki bu faoliyatni amalga oshirish tajribasi kishilar hayotida hammabop bo'ladigan holdagina haqiqiy innovatsion hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo'lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi–loyihaga, loyihani – texnologiyaga aylantirishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Innovatsion faoliyatda ilmiy tasavvurlar akademik ilm mantiqi bo'yicha tuq'ilmaydi, balki rivojlanish jarayonining modifikatsiyalari qo'llab-quvatlanishi natijasida rivojlanayotgan amaliyot mulohazasidan paydo bo'ladi.

**Normurodova Nargiza Uralovna
(Angor, Uzbekiston)**

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH ASOSLARI

Boshlang'ich ta'lim uchun zarur va ustuvor yo'nalishlardan biri ta'lim mazmuning yangilanishi, darsni ilg'or tajriba va g'oyalarga tayanib, zamonaviylashtirilgan, takomillashtirilgan hamda ilmiy- pedagogik texnologiyalar asosida o'tish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Chunki dars ta'lim-tarbiya berishning asosiy o'zagidir. O'quvchining o'quv fanlarini chuqur o'rganib borishi davomida uning bilimi mustahkamlanadi, savodxonligi oshib boradi. Ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblangan boshlang'ich sinf o'quvchilarini sog'lom avlod qilib voyaga yetkazishda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar muhim vosita hisoblanadi.

Bolaning shaxsi shakllanadi, munosabatga kirishishi o'sib boradi. Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida inson faoliyatining shakllanishi rivojlanib, mehnatga layoqati va mas'uliyati shakllanib boradi. Ayniqsa, bola shaxsining psixologiyasi shakllanishida yordam beradi. Interaktiv metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari hamkorlikda ishlashni o'rganadilar.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Ulug' donishmandlardan biri «...kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari –

mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamidida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda **«Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay»** kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi.

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar beramiz. Siz undan ijodiy yondashgan holda foydalanasiz va birinchi prezidentimizning: **«Har qarichi muqaddas bo'lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g'urur va iftixor, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko'raylik»** [1], - degan fikrlariga javoban ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishishga o'z hissangizni qo'shasiz degan umiddamiz.

«Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi...) ortiqcha» metodi

O'quvchilar mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- O'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;
- hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita,...) va taalluqli bo'lmagan bitta tushunchaning o'rin olishiga erishish;
- o'quvchilarga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- o'quvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mazkur metod o'quvchilardan o'rganilayotgan mavzu (yoki bo'lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi.

Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o'qituvchi o'zaro teng nisbatda mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;
- o'quvchilar mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo'lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;
- o'quvchilar o'z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchilar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

«Videotopishmoq» metodi

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'quvchilar e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;
- o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O'quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi.

Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga

yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Bizningcha, ta'limiy o'yinlarga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Ta'limiy o'yinlar o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi kerak;
2. O'yinlar o'tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga mutanosib bo'lishi lozim;
3. Ta'limiy o'yinlarni o'tkazish vaqti aniq belgilanishi shart;
4. Ta'limiy o'yinlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak;

5. Ta'limiy o'yinlarning o'tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim.

Yuqoridagi talablarga amal qilingandagina dars samaradorligi ortadi va zamonaviy texnologiyalar ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi.

«Aqliy xujum»

Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod sanalib, u mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o'z tasavvurlari va g'oyalardan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni xosil qilishga rag'batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulot jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. «Aqliy xujum» metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma'lum qadriyatlarini aniqlash, ayni vaqtda ularga muqobil bo'lgan g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Mashg'ulotlar jarayonida «Aqliy xujum» metodidan foydalanishda bir necha qoidalarga amal qilish talab etiladi. Ushbu qoidalar quyidagilar:

1. Mashg'ulot ishtirokchilarini muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish.

2. Har bir ta'lim oluvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g'oyalar miqdori rag'batlantirilib boriladi. Bu esa bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi yangi fikr yoki g'oyalarning tug'ilishiga olib keladi.

3. Har bir ta'lim oluvchi o'zining shaxsiy fikri yoki g'oyalari asoslanishi hamda ularni o'zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikr (g'oya)larni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikr (g'oya)larning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

4. Mashg'ulotlar jarayonida ta'lim oluvchilarning har qanday faoliyatlarini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo'l qo'ymaydi. Agarda ularning fikr (g'oya)lari baholanib, boriladigan bo'lsa, ta'lim oluvchilar o'z diqqatlarini, shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda ular yangi fikrlarni ilgari surmaydilar. Mazkur metodni qo'llashdan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag'batlantirish ekanligini etibordan chetda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

Mashg'ulot jarayonida ushbu metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagilarga amal qilish lozim:

1. Mashg'ulot ishtirokchilarining o'zlarini erkin his etishlariga sharoit yaratib berish.
2. G'oyalarni yozib berish uchun yozuv taxtasi yoki varaqalarni tayyorlab qo'yish.
3. Muammo (yoki mavzu)ni aniqlash.
4. Mashg'ulot jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan shartlarni belgilash.
Shartlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:
 - a) ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan xar qanday g'oya baholanmaydi;
 - b) ta'lim oluvchilarning mustaqil fikr yuritishlari, shaxsiy fikrlarini ilgari surishlari uchun qulay muxit yaratiladi;
 - v) g'oyalarning turlicha va ko'p miqdorda bo'lishiga ahamiyat qaratiladi;
 - g) boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni yodda saqlash, ularning fikrlariga tayangan holda yangi fikrlarni bildirish, bildirilgan fikrlar asosida muayyan xulosalarga kelish kabi harakatlarning ta'lim oluvchilar tomonidan sodir etilishiga erishiladi.
5. Bildirilayotgan g'oyalarni ularning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish.
6. Muayyan qog'oz varaqlari g'oya (yoki fikr)lar bilan to'lgandan so'ng ularni yozuv taxtasiga osib qo'yish.
7. Bildirilgan fikrlarni yangi g'oyalar bilan boyitish asosida ularni quvvatlash.
8. Boshqalar tomonidan bildirilgan fikr (g'oya) lar ustida kulish, ularga nisbatan kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo'l qo'ymaslik kerak.
9. Ta'lim oluvchilar tomonidan yangi g'oyalar bildirilishi davom etayotgan ekan, muammoning yagona to'g'ri yechimini e'lon qilishga shoshilmaslik.
Aqliy xujum metodi to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

«Fikriy hujum» metodi

Bu metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonida faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlashdan ozod etish muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish, yechish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yechishga o'rgatish uchun xizmat qiladi. «Fikriy hujum» metodi. A.F. Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulot (bahs)ning xar bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad ta'lim oluvchilarning mashg'ulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi. «Fikriy hujum» metodidan foydalanish chog'ida ta'lim oluvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg'ulot bir soat tashkil etilishi mumkin.

«Fikrlarning shiddatli hujumi» metodi

Mazkur metod Ye.A. Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G.Ya. Bush tomonidan qayta ishlangan. «Fikrlarning shiddatli hujumi» metodining mohiyati jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir ta'lim oluvchining

shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish hamda ta'lim oluvchilarda ma'lum jamoa (guruh) tomonidan bildirilgan fikrga 2 qarshi g'oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iboratdir.

Ushbu metoddan foydalanishga asoslangan mashg'ulot bir necha bosqichda tashkil etiladi. Ular quyidagilardir:

1-bosqich. Ruhiy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan ta'lim oluvchilarni o'zida birlashtirgan hamda son jihatdan teng bo'lgan kichik guruhlarini shakllantirish.

2-bosqich. Guruhlarga hal etish uchun topshirilgan vazifa yoki topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqadigan maqsadlarni aniqlash.

3-bosqich. Guruhlar tomonidan muayyan g'oyalarning ishlab chiqilishi (topshiriqlarning hal etilishi).

4-bosqich. Topshiriqlar yechimlarini muhokama etish, ularni to'g'ri hal etilganligiga ko'ra turkumlarga ajratish.

5-bosqich. Topshiriqlar yechimlarini qayta turkumlashtirish, ya'ni ularni to'g'ri darajasi, yechimini topish uchun sarflangan vaqt, yechimlarning aniq va ravshan bayon etilishi kabi mezonlar asosida baholash.

6-bosqich. Dastlabki bosqichlarda topshiriqlar yechimlari yuzasidan bildirilgan muayyan tanqidiy mulohazalarni muhokama etish hamda ular borasida yagona xulosaga kelish.

Yuqorida mohiyati bayon etilgan «Fikrlarning shiddatli hujumi» metodini ijtimoiy, gumanitar va tabiiy yo'nalishlardagi fanlar yuzasidan tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida birdik muvaffaqiyatli qo'llash mumkin. Metodni qo'llash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

1. O'quvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish;

2. Vaqtni iqtisod qilish;

3. Har bir o'quvchini faollikka undash;

4. Ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish.

Ko'rinib turibdiki ushbu metod ta'lim oluvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish, vaqtni iqtisod qilish, har bir ta'lim oluvchini faollikka undash, ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirishga yordam beradi.

«Yalpi fikriy hujum» metodi

Mazkur metod J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uni bir necha o'n (20, 40 va 60) nafar ta'lim oluvchilardan iborat guruh (sinf)larda qo'llash mumkin. Ushbu metod ta'lim oluvchilar tomonidan yangi g'oyalarning o'rta tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har bir 5 yoki 6 nafar ta'lim oluvchilarni o'z ichiga olgan guruhlariga 15 daqiqa ichida ijobiy xal etilishi lozim bo'lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi. Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy xal etilgach, bu haqda guruh a'zolaridan biri axborot beradi. Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o'qituvchi va boshqa guruhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg'ulot jarayonida guruh a'zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholab boriladi.

«Bilaman. Bilib oldim. Bilishni xohlayman»

Sinf o'quvchilari beshita guruhga bo'linadilar, guruhlar nomlanadi. Yozuv taxtasi uch qismga ajratiladi. Birinchi bandning yuqori qismiga «Bilaman», ikkinchi bandning yuqori qismiga «Bilib oldim», uchinchi bandning yuqori qismiga esa «Bilishni xohlayman» degan so'zlar yoziladi. So'ngra o'qituvchi o'quvchilardan mavzu yuqasidan qanday ma'lumotlarga ega ekanliklarini so'raydi va bildirilgan fikrlarni «Bilaman» nomli bandga yozib qo'yadi. Ushbu xarakteristik guruhlar tomonidan fikrlar to'la bayon etilganga qadar davom etadi. Mazkur jarayonda guruhlarining barcha a'zolari faol ishtirok etishlariga ahamiyat berish zarur. O'quvchilar tomonidan bildirilayotgan noto'g'ri fikrlar ham inkor etilmasligi zarur (zero bunday xarakteristik o'quvchilarning faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi). Keyingi bosqichda o'quvchilarga mavzuga oid matnlar tarqatiladi. Ushbu matn mavzu bo'yicha eng asosiy tushunchalarni o'z ichiga oladi. O'quvchilar matn bilan tanishib chiqqandan so'ng fikr yuritishlari hamda mavzuga oid yana qanday ma'lumotlarni o'zlashtirganliklarini aniqlashlari lozim. O'quvchilar o'z xulosalari asosida fikrlarini bayon etadilar, ushbu fikrlar «Bilib oldim» nomli ustunga yozib boriladi. So'ngi bosqichda o'qituvchi o'quvchilaridan yangi mavzu bo'yicha qanday ma'lumotlarni o'zlashtirish istagida ekanliklarini so'raydi va o'quvchilarni yana o'ylashga da'vat etadi. Guruhlardan navbati bilan fikr so'raladi. O'quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlar «Bilishni xohlayman» nomli ustunga yozib boriladi. i qismini puxta o'zlashtirib «mutaxisis» ga aylanadi. Dars oxirida har bir kichik guruhdagi «mutaxisis» lar uchrashuvi qayta tashkil etilgan guruhlarda o'tkaziladi. O'quvchilar bilimi test savollari yordamida individual tarzda o'tqazilib nazorat qilinadi va baholanadi. Guruh a'zolarining ballari jamlanadi, eng yuqori ball to'plagan guruh g'olib sanaladi. Namuna sifatida quyidagi jadvalni keltiramiz:

«Bumerang» texnologiyasi

Bu texnologiya o'quvchi-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin xolda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchi-talabalarni baholay olishga qaratilgan. Maqsad: trening davomida tinglovchilarga tarqatilgan materiallarni ular tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda o'zaro suhbat munozara orqali, turli savollar, tarqatma materiallar va undagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganini nazorat qilish. Trening davomida o'quvchi-talabalar tomonidan baho ballarini egallashga imkoniyat yaratish.

«Zigzag» strategiyasi metodi

Sinf o'quvchilari 7 ta guruhga bo'linadilar va guruh nomlanadi. Guruhlarda yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn qismlarga ajratiladi va ajratilgan qismlar mazmuni bilan tanishib chiqish vazifasi guruhlariga topshiriladi. O'quvchilar matnlarni diqqat bilan o'rganadilar va gapirib beradilar. Vaqtini tejash maqsadida guruh a'zolari orasidan liderlar belgilanadi va qayd etilgan vazifa ular tomonidan bajariladi. Liderlarning fikrlari guruh a'zolari tomonidan to'ldirilishi mumkin. Barcha guruhlarining o'quvchilari o'zlariga topshirilgan matn mazmuni xususida so'zlab berganlaridan so'ng, matnlar guruhlararo almashtirilib, avvalgi faoliyat takrorlanadi. Guruhlarga bir necha matnlar taqdim etiladi. Shu tarzda barcha matnlar mazmuni guruhlar tomonidan o'rganib chiqilgach o'quvchilar o'tilgan mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni ajratadilar, ularning o'zaro mantiqiy bog'liqligini aniqlaydilar, yuzaga

kelgan g`oyalar asosida mavzuga oid sxema ishlab chiqiladi. So`ngra o`zlashtirilgan bilimlar asosida o`quvchilarning o`zlariga shunday sxemalarni ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

Kichik guruhlarni tashkil etish

Sinf guruhlarida ishlaydigan birinchi mashg`ulot hal qiluvchi mashg`ulot xisoblanadi. U keyinchalik guruhli ishlarga yo`nalish beradi. Shuning uchun mana shu birinchi martada qator shartlarga rioya qilish juda muhim.

Birinchi guruh uchun:

1. O`qituvchi guruhni belgilaydi.
2. Qat`iy rahbarlik qilishi mumkin bo`lgan eng faol yoki boshqa o`quvchilar haqida o`ylab ko`ring.
3. Eng zehni yoki juda qobiliyatli o`quvchilardan tanlab har bir guruhga kiriting.

4. Zehni o`tkir bo`lmagan o`quvchilarni ham tanlab, har qaysi guruhga taqsimlang.

5. Guruhni 4 ishtirokchi bilan (nazaringizda bir-biriga munosib) to`ldiring.

6. Rahbari guruh bilan oldindan uchrashtiring va ular vazifasini tushuntiring.

7. Mashg`ulotlarda guruh vazifasini va rahbar vazifasini tushuntiring.

8. Har bir guruh doira shaklida o`tirsin. Har bir ishtirokchi hammani ko`rmaguncha guruh ish boshlay olmaydi.

9. Ish vaqtida doimo hap bir guruh atrofida yuring.

Muhokama oxirida o`z kuzatuvlaringizni ayniqsa har bir guruhdagi yaxshi g`oyaga e`tiborni qaratib gapirib bering.

Kichik guruhlarida ishlash uchun maslahatlar:

1. O`quvchilar ishni bajarishi uchun bilim va malakaga ega ekanligiga ishonch hosil qiling.

2. Guruhga aniq yo`riqlar ko`rsating. Gypuhlar 1 yoki 2 yo`riqdan (hatto) juda tushunarli bo`lsa ham) ko`piga rioya etishi amrimahol.

Z. Kichik guruh uchun berilgan vazifaning bajarilishiga yetarlicha vaqt bering. Boshqa gypuhlarga nisbatan vazifasini erta bajargan guruhni band qilish yo`llarini o`ylab ko`ring.

4. Murakkab dasturni ishlab chiqish kerak bo`lganda guruhni 2-5 kishidan tuzing. Kichik guruhda muhokama qilish uchun 5 kishi yetarli.

5. Kichik guruhdagi ishlarni sinf uchun me`yorga aylantiring.

6. Baholash va mukofotlash tizimingiz kichik guruhdagi ishlarga qanday ta`sir qilishi haqida o`ylab ko`ring. Muvaffaqiyatli guruhiy ish uchun guruhga mukofot tayyorlang.

7. Guruh ishi natijalarining qanday topshirilishini aniq tushuntiring. Guruh ishi haqida sinfga kimdir e`lon qilishi kerak bo`lsa, uni oldindan tanlab qo`ying.

8. Jamoa bo`lib o`rganish vaqtidagi shovqinga ko`nikish uchun tayyorgarlik ko`ring.

9. Guruh tashkil qilayotganda o`quvchilarga «tazyiq» ko`rsatmang. Odatda turli xil guruhlar maqsadga muvofiq.

10. Har qanday sharoitda ham guruh bilan samimiy munosabatda bo`ling, guruhda ro`y berayotganlarni kuzating va baholang.

«Komandada o'qitish» metodi

Komandada o'qitishda o'quvchilar teng sonli ikkita komandaga ajratiladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a'zolari o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o'quvchi mavzudan ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga e'tiborni qaratadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo'lgan R. Slavinning ta'kidlashicha, o'quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko'rsatma berilishi yetarli emas. O'quvchilar o'rtasida tom ma'nodagi hamkorlik har bir o'quvchining qo'lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining kundalik natijasi avval qo'lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi.

Shundaygina o'quvchilar o'zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishni anglagan holda mas'uliyatni his qilib, ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirishga intiladi.

Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish

Bu yondoshuvda kichik guruhlar 4 ta o'quvchidan tashkil topadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O'quvchilarga berilgan o'quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o'quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o'quvchi o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi. O'quvchilarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.

Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi

Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi 1976-yili Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sharan tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda ko'proq o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishiga e'tibor qaratiladi. O'quvchilar alohida-alohida yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o'rganish lozim bo'lgan o'quv materialini kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir o'quvchiga taqsimlanadi. Shunday qilib, har bir o'quvchi umumiy topshiriqning bajarilishiga o'z xissasini qo'shadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o'tkaziladi. Guruh a'zolari birgalikda ma'ruza tayyorlaydi va sinf o'quvchilari o'rtasida o'z ijodiy izlanishlari natijasini e'lon qiladi. Kichik guruhlar o'rtasida o'tkazilgan o'quv bahsi, munozara o'quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi, yakuni sanaladi. Hamkorlikda ishlash natijasida qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasining har bir o'quvchining muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, kichik guruhlarini, umuman sinf jamoasini jipslashtirishga, avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llanib, yangi bilimlarning o'zlashtirishiga bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN MANBAALAR:

1. Karimov I. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T: «O'zbekiston», 2009, 15-bet.

2. N. Salohiddinova. Boshlang'ich sinflarda interfaol darslarni qay tarzda tashkil etilsa samara beradi. Maqola.
3. U. Madjonova. Boshlang'ich sinfda o'qitishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish usullari. Maqola.
4. Ziyonet.uz

**Nuriyeva Saltanat Ozodovna, Butayeva Dilfuza Tuxtayevna
(Termiz, O'zbekiston)**

INGLIZ TILI DARSLARINI INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISH USULLARI

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Хулоса қилиб айтганда Самарқанд ўрта асрларда диний, дунёвий илмлар юксак даражада тараққий этган шаҳар, шарқнинг гавҳарига айланган бўлса, бугун қадимий бу жойда меъморчилик ёдгорликлари таъмирланиб, асл қиёфасига қайтди ва Самарқандда диний бағрикенглик анъаналари юксакликка кўтарилиб, бунинг оқибатида шаҳарда миллатлараро тотувлик ҳукмрондир.

⁶ Отамуратов С., Ҳусанов С., Раматов Ж. Маънавият асослари. Т.: 2002.Б. 121

Маматов Мамаджан Аҳмаджанович
Фарғона давлат университети
(Фарғона, Ўзбекистан)

ТАСАВВУФ ВА СИНЕРГЕТИКА: ДУНЁҚАРАШЛАР ЧОРРАҲАСИ

Аннотация: мазкур мақола икки таълимот - теология ва синергетика фанлари ҳадларидаги ҳолат масалалари тадқиқ қилинган. Диний, илмий дунёқарашлар ва уларнинг замонавий жамият тараққиётига муносабатларида маълум бир парадигмаларининг ўхшашлиги илмий таҳлили асосида диний бағрикенглик ва комил инсон шахсини шакллантиришга янгича ёндашувлар тавсия қилинади.

Таянч сўзлар: ислом, тасаввуф, синергетика, эзотерик, дунёқараш, бифуркация, аттрактор, флуктуация.

СУФИЗМ И СИНЕРГЕТИКА: ПЕРЕКРЕСТОК МИРОВОЗРЕНИЙ

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию вопросов соприкосновения на перекрестках двух учений - теологии и синергетики. На основе анализа религиозного, научного мировоззрений и сходности отдельных их парадигм развития взглядов на современное общество, рекомендуются новые подходы к формированию религиозной толерантности и воспитанию гармонично развитой личности.

Ключевые слова: ислам, суфизм, синергетика, эзотеризм, мировоззрение, бифуркация, аттрактор, флуктуация.

Abstract: This article is devoted to the study of the issues of contact at the crossroads of two doctrines - theology and synergetics. Based on the analysis of religious and scientific worldviews and the similarity of their individual paradigms for the development of views on modern society, new approaches to the formation of religious tolerance and the education of a harmoniously developed personality are recommended.

Keywords: islam, sufism, synergetics, esotericism, worldview, bifurcation, attractor, fluctuation.

Ислом оламнинг машхур уламси Шайх Муҳаммад Саид Рамазоний ал Бутий сўзларига кўра, “Аниқ ва ростмона маънодаги тасаввуфаслида ислом негизи ва унга сидқидилдан ишонувчининг онги замирида мавжуд моҳиятдир. Бу негиз бўлмаса, ислом фақат маросимларга, улар кўмагида одамлар бир-бирининг олдида ўзини ижобий ҳолатда намоён қилишга интиладиган урф-одатларга, исломга содиқликнинг ташқи кўринишларига айланиб қолади”.

Фалсафада воқеликнинг мантиқий таърифи, тасаввуфнинг илми ладун ва унга эга бўлиш усуллари, инсон руҳиятида юз бериши мумкин бўлган ҳол даражаси тўғрисидаги ақидалари ўртасидаги тафовут ва узоқ йиллар бу зиддиятнинг бартараф қилиш имкони йўқлиги тўғрисидаги фикрлар сўнгги йилларда аниқ фанлар базасида яратилган синергетика тамойилларини ижтимоий фанларга ҳам жорий этиш натижасида борлиқ ва уни англашда

диний ва дунёвий дунёқарашларнинг анча яқинлашганини кузатиш мумкин. Унинг вакиллари номувозий, ночизикли ҳаракатлар тўғрисидаги хулосалари билан фан тараққиётида бутунлай янги йўналишни вужудга келтирдилар. Мазкур тамойиллар асосида сўфиёна ва фалсафий дунёқарашлар анча уйғунлашади.

Синергетика фани “очиқ системаларда вужудга келувчи тузилма (кичик система)нинг элементлари ўртасидаги алоқаларини ўрганади, мувозанатсиз шароитлардаги атроф-муҳит билан модда ва энергиянинг интенсив алмашинуви сабабли юзага келувчи очиқ системага эътибор қаратади. Бундай системаларда кичик системаларнинг мослашган хатти-ҳаракати кузатилади. Бу жараёнда синергетика қайси ўзгариш натижасида унинг тартибланганлик даражаси ошади, яъни энтропияси камайишига олиб келишини изоҳловчи ўз-ўзини ташкиллаштириш назарияси сифатида намоён бўлади [1; 35-б.].

Бу фан асосчилари Г. Хакен, И. Пригожинларнинг таъкидлашича, “Синергетика–ўз-ўзини ташкиллаштириш назарияси, янги дунёқарашдир, у ўз-ўзини ташкиллаштириш, ночизиклилик, глобал эволюция, “хаос орқали тартибланиш” феноменларини ўрганиш бўйича тадқиқотлар билан боғланган бўлиб, бифуркацион ўзгаришлар, вақт қайтмаслиги, беқарорликнинг эволюция жараёнлари асосий характеристикаси сифатида намоён бўлишини акс эттиради” [2; 618-б.]. Мазкур таърифнинг аниқ фалсафий моҳияти, унинг онтологик ва гносеологик жиҳатларини Г. Хакен Синергетика бу “Катта миқдордаги кичик системаларнинг ўзаро ҳаракати, умумий коллектив эффект бўлиб, мураккаб системаларда турғун тузилмалар ва ўз-ўзини ташкиллаштиришга олиб келувчи” [3; 9-б.] жараёнларни англашда қўлланиши мумкинлигини таъкидлаб, унинг ижтимоий ҳаётни тадқиқ қилишдаги ролини шундай таърифлайди: “Синергетика кўп кичик системалардан ташкил топган системаларни ўрганади. Булар, асосан, электронлар, атомлар, молекулалар, ҳужайралар, нейронлар, механик элементлар, фотонлар, органлар, ҳайвонлар ва ҳатто одамлардан ташкил топгандир” [4; 320-б.].

Ўзбек олими О.Файзуллаевнинг фикрича, синергетика ҳар бир нарсани система деб қарайди ва у, ўз навбатида, ёпиқ ва очиқ системаларга ажралади. “Оламдаги жонсиз системалар ёпиқ, жонли системалар очиқ деб ҳисобланади” [5; 92-б.]. Мазкур ёндашувда очиқ ва ёпиқ системанинг яхлит илмий манзараси изоҳлаб ўтилган. Бунга кўра, ижтимоий ҳодиса, яъни очиқ система сифатида тасаввуф таълимотини синергетика тамойиллари воситасида талқин қилиш унинг фалсафий моҳиятини теранроқ англашда мақсадга мувофиқ бўлади.

Келтирилган фикрлардан шундай хулоса қилиш мумкинки, тасаввуф илми ҳам очиқ система сифатида ислом дини таркибида шаклланганлиги, унинг бир неча аср давомида анъанавий эътиқодга муҳолиф ёндашув сифатида қаралгани билан, пировард натижада, унинг ижобий воқелик эканлиги тан олинганлиги, Аллоҳга яқинлашувнинг ундаги ўзига хос усуллар, амалиёт кенг тарқалгани, жамиятдаги диний дунёқарашнинг таркибий қисмига айланганлиги, бизнингча, етарли далил бўла олади.

Шунинг учун ҳам синергетика илмий тадқиқот доирасини маълум маънода бўлса ҳам ижтимоий, жумладан, фалсафий, диний фанлар соҳасида қўлланилиши биринчидан, инсоннинг билим фаолиятига нисбатан

синергетиканинг асосий ҳолатлари, маълум шаклда бўлса ҳам юқори даражада яқинлашганини билиш, иккинчидан, фалсафадаги дунёқарашнинг долзарб муаммоларини ўз-ўзини ташкил қилиш назарияси позициясидан туриб таҳлил қилиш учун имкон яратади. Учинчидан эса, синергетика ижтимоий ҳаётнинг баъзи соҳаларини тахмин қилиш ва бу борада турли лойиҳаларни ишлаб чиқиш имкониятини беради [8; 31-б.].

Синергетика фанининг асосий тамойилларидан бири аттрактор (ингл. attract – жалб қилмоқ, ўзига тортмоқ деган маънони билдиради) деб, вақт ўтиши билан динамик система интиладиган ҳаракат режими ва тартиботига айтилади. Аттрактор ҳолати “руҳий оламда ҳам кузатилади. Психологларнинг фикрига кўра, ўз-ўзини охиригача тиклаш, қуриш эффекти интуицияга ҳам хосдир. Масалан, биз муаммонин бир қисмини инobatга оламыз, қолган қисмини эса интуиция ёрдамида тасаввур этамыз холос. Шунинг учун ҳам биз интуицияни табиатнинг инсонга берган инъоми сифатида тушунамиз” [5; 46-б.]. Тасаввуф таълимоти бунга Аллоҳ ўзи муносиб кўрган бандаларига берган неъмат, деб таърифлайди. Сўфийликда диний дунёқараш жараёнида Аллоҳнинг висолига етишиш тўғрисидаги ғояга мусулмонларнинг маълум бир қисми эргашишини ҳам эътиқодда аттрактор тамойили воситасида теранроқ англаса бўлади.

Синергетиканинг яна бир тушунчаси бифуркация (лотинча bifurcus – иккиланган, бўлинган), деб аталади. Бифуркация турли ижтимоий-сиёсий, маданий ўзгаришлар ҳамда улардаги танловни амалга оширишда ишлатилади. Мавжуд далилларга эътибор берсак, бифуркация ҳақида халқ афсона ва асотирларида ҳам сўз кетади. Масалан, эртақ қаҳрамони йўллар бўлиниб кетган жойга келиб йўл танлаётган сюжет, қайси йўлни танласа ҳам унинг келажагини ҳал қилади, демак буни биз инсон ҳаётидаги бифуркацияга кўрсатмали намуна дейишимиз мумкин.

Онтологик жиҳатдан замон-макон бифуркацияси сўфийлар амалиётида маълум бир шароитда уларнинг руҳий ҳолатида юз бериши мумкин бўлган бифуркация нуқтаси – кескинлиги, система мувозанатидан чиқиши ҳолатида намоён бўлади. Бифуркация нуқтасида система “танлов” имкониятига эга бўлади, чунки унда тасодиф унсурлари мавжуд, у системанинг кейинги ривожини башорат қилиб бўлмайдиган ҳолатга олиб келади. Тасаввуф илмида ҳам тариқатни танлаган мурид ҳам ўз амалиётида шариат аҳкомларини, сайри сулукни, нафсни ўзига бўйсундириш каби талабларни сидқидилдан ўтаган бўлса-да комилликнинг айнан қайси мақомига эриша олиши тайин эмас. Бизнингча, Қуръони каримнинг “Балад” сураси 10-оятда “Ва ҳадайнахун најдайн, яъни, ва биз уни (инсонни) икки: яхши ва ёмон йўлга йўллаб қўйдик”, дейилиши билан бифуркация ҳолатини асосланади.

“Флуктуация” тушунчаси ҳам синергетикада муҳим аҳамият касб этади.

Флуктуациялотинча тебраанишдеган маънони беради ва физик катталикларнинг ўртача ҳолатидан тасодифий оғишлар, кўп сонли қисмчаларга эга системани англатади. Бифуркация нуқтаси теварагида флуктуациялар салмоғи кўққисдан орта бошлайди ва улар маълум бир вақтда ҳеч қандай тартибсиз равишда умуман қутилмаган йўналишда тизим эволюциясининг тараққиётини таъминлаши мумкин. Тасаввуфда таъкидланишича, ибодатга астойдил берилиш – зикр, самъо ва бошқа бир

ҳолатларда ташқи муҳитга ҳеч қандай алоқаси бўлмаган бир ҳолатга – олий ҳол даражасига тушган сўфийга, Аллоҳ насиб этса, илҳом воситасида маълум бир илм кашф этиши мумкин.

И. Рахимов ва А. Ўтамуродовлар синергетиканинг кенг имкониятлари ҳақида фикр юритиб, уни: “Ўзаро ҳамкорлик, маънавий биродарлик даврнинг моҳиятини ифодаловчи тамойил бўлиб бормоқда. Чунки “ёки-ёки” фалсафаси, идеализмми ёки материализм, диалектиками ёки метафизиками, деган фалсафа ўз умрини тугатди. Дунё халқларининг ўзаро дўст-биродар бўлиб яшаш фалсафаси тантана қилгандагина бу таҳликали дунёни сақлаб қолиш мумкин. Терроризм, турлича экстремистик, худбинлик ақидапарастлик сингари бало-қазодан дунёни холи қилиш мумкин” [6; 5-6].

Демак, синергетика фанининг маълум тизимга солинган парадигмалари инсон, табиат, жамият ва инсоннинг ўз-ўзи англаш орқали сўфийларнинг олий мақсади – комилликка эришиш жараёнига доир ноанъанавий, яъни тасаввуфий қарашлар билан уйғунлиги ҳам эътироф этилиши лозим. Синергетик илмий методологик хулосаларни тасаввуф таълимоти тамойиллари билан солиштирилганда, уларнинг нақадар ўхшашликларини ҳис қилиш мумкин.

Дастлаб рационализм, шунингдек, расмий дин томонидан ҳам инкор этилган бундай билиш шаклини XX асрнинг сўнгги чорагида пайдо бўлган янги фан “Синергетика” тамойиллари воситасида энди илмий асослаш мумкин. Бу фан тамойиллари, парадигмалари ва ҳақиқатни аниқлашнинг ўзига хос методологияси ижтимоий фанлар, жумладан, тасаввуф илмининг хусусиятларини тадқиқ қилишда ўз ўрнини топди.

“Оламни Табиат-Жамият-Инсон руҳи каби учбирликда илмий тафаккур этишда... постноклассик қараш шуни таъкидлайдики, тизим-муҳит интерактивлигида сабабийлик ва тизимлиликнинг ўзаро чизиқли муносабатлари нисбати шаклланаётган, ҳаракатланаётган, ривожланаётган, вужудга келаётган, ўз-ўзидан ташкил бўлаётган бу учбирлик интерактивлиги навбатма-навбат бир-бирининг ўрнини эгаллайдиган шакл-мазмун-шакл жараёнида хаос-тартиб олам илмий манзарасининг синергетик англанишини билдиради” [7; 222-б.].

Энди тасаввуфни фалсафий англашга доимо халақит бериб келган расмий мантиққамуқобил тарзда унинг синергетик талқини қабул қилинса, инсоннинг руҳий оламини илмий англашда яна бир одим ташланган бўлади. Чунки, бу янги фан билиш назарияси ривожини давомида ечиб бўлмас муаммога айланган эзотерик дунёқарашнинг ўзига хос талқинини илмий муомалага киритди. Бу янги фаннинг илк қадамларидан биридир.

Келажақда фан оламини англашга сўфиёна ёндашувлар ҳам ҳақли эканлигини исботлайдиган жиддий далилларга эга бўлиши мумкин. Бунга, далил қилиб, муқаддам анча вақт на фан ва на дин қабул қилмаган тасаввуф ғояларининг вақт ўтиши билан имом Ғаззолийнинг дин ва тасаввуф илмини ярашишга эриштирган таклифлари бу масалада диссипатив ҳолатни пайдо қилгани, яъни илм аҳли ва руҳонийлар орасида сўфиёна дунёқарашга нисбатан кўникмалар ҳосил бўлганини мисол қилиб келтиради [8; 66-б.].

Ғарбнинг таниқли олимларидан бири А. Е. Акимовнинг “оламни билишнинг йўлларида бири шарқона усул бўлиб, бунда билим эзотерик йўл

билан, масалан, медитация ҳолатида олинади. Бу йўл нима сабабдандир унутилиб кетган эди ва шунинг учун ҳам бошқа - фавқулдда мураккаб ва ҳақиқатга жуда секин олиб борадиган ғарб йўли шаклланди. Биз минг йил мобайнида шу кейинги йўл билан бориб, Шарқда уч минг йил олдин маълум бўлган билимларга етиб келдик” [6; 24-25-б.], деб тан олаётгани ҳам воқеликка синергетик ёндашишни билдириб, юқоридаги фикрни тасдиқлайди.

Сўфийлар Ҳақиқатга яқинлашишда ақлгагина эмас, руҳий интуиция ва ёришувга ҳамда руҳий тажрибага суянганлар ва онгни ўз олий ҳол мақомига етказадиган йўлларига эга бўлганлар ва Аллоҳни фақатгина индивид ўз бошидан кечирадиган ички тажриба воситасида юз берадиган экстатик ҳолда билиш мумкин деган хулосага келганлар.

Бу жараён илмий таҳлили синергетиканинг юқорида зикр этилган “бифуркация”, “флуктуация”, “аттрактор”, “диссипация” каби парадигмалари ёрдамида амалга оширилсагина, тасаввуфнинг фалсафий-илмий талқини ҳақиқатга яқинроқ бўлиши мумкин [6; 24-25-б.].

Диалектиканинг узвий давоми сифатида синергетика ҳамфанларнинг охирига ва мутлақ услуби эмас, балки тараққиёт натижасида ўзгариб борадиган ва муттасил такомиллашадиган ижодий тафаккур мевасидир.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Большой энциклопедический словарь: В 2-х т. Т.2. – М.: Сов. Энциклопедия, 1991. 768 с.
2. Хакен Г. Синергетика: Иерархии неустойчивостей в самоорганизующихся системах и устройствах. – М.: Мир, 1985. - 423 с.
3. Хакен Г. Тайны природы. Синергетика: наука о взаимодействии. – Москва-Ижевск: Институт компьютерных исследований, 2003. - 320 с.
4. Файзуллаев О. Фалсафа ва фанлар методологияси.//Ўзбекистон Республикаси ФА Фалсафа ва ҳуқуқ институти. –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ. 2006. – 110 б.
5. Бозаров Д. Синергетика парадигмасининг фалсафий методологик таҳлили. Фалс. фан. ном. ...дисс. –Т.: 2010. - 139 б.
6. Акимов А. Е. Физика признаёт сверхразум. –М.: //Чудеса и приключения. №5. - С. 24-25.
7. Бобомуродов Э. Жовлиев Ж. А. Синергетика таълимоти диалектика асосида шаклланган усулдир.”Фалсафа ва тасаввуф: маърифий дунёқарашни шакллантириш муаммолари ва ечимлари” Республика илмий-назарий анжумани материаллари тўплами. – Бухоро. 2019.
8. Маматов М. Тасаввуф таълимотининг тарихий-фалсафий моҳияти. – Т.: Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёт-матбуот бирлашмаси, 2018.

Мирзаева Мохира Курбановна, Яздонова Соҳиба Курановна
Самарқанд давлат университети
(Самарқанд, Ўзбекистан)

ШАРҚ ВА ҒАРБ ИЖТИМОЙ-МАДАНИЙ АЛОҚАЛАРИ **ИНТЕГРАЦИЯЛАШУВИДА БУЮК ИПАК ЙЎЛИНИНГ РОЛИ**

Аннотация: Мақолада Шарқ ва Ғарб маданий алоқалари, илмий кашфиётлар ва Ўзбекистоннинг ғарб билан интеграциялашуви жараёнида буюк ипак йўлининг роли илмий фалсафий таҳлил қилинади. Бундан ташқари дунё халқларининг ижтимоий-иқтисодий тараққиёти учун янги имкониятлар ипак йўли орқали очилиб, бу жараёнда халқлар, миллатлар бир бирларининг қадриятлари билан танишганлиги, улар ўртасидаги дўстлик, ҳамкорлик муносабатлари, энг муҳими, мамлакатлараро тинчлик, барқарорлик мустақамланганлиги очиб берилади.

Калит сўзлар: Шарқ, Ғарб, маданият, илм, интеграция, буюк ипак йўли, ижтимоий-иқтисодий тараққиёт, халқ, миллат, қадрият, дўстлик, ҳамкорлик, тинчлик, барқарорлик

Мирзаева Мохира Курбановна, Яздонова Соҳиба Курановна
Самарқандский государственный университет
(Самарқанд, Ўзбекистан)

РОЛЬ ВЕЛИКОГО ШЕЛКОВОГО ПУТИ В ИНТЕГРАЦИИ СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ **ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ВОСТОКОМ И ЗАПАДОМ**

Аннотация: В статье рассматривается научно-философский анализ роли великого шелкового пути в процессе интеграции Узбекистана с западом и научные открытий, культурные отношений Востока с западом. А также анализируется что, благодаря Великому Шелковому пути были открыты новые возможности для социально-экономического развития народов мира. В ходе которого народы и нации узнали о ценностях друг друга, дружбе и сотрудничестве между ними, а главное о укреплении международного мира и стабильности.

Ключевые слова: Восток, Запад, культура, наука, интеграция, великий шелковый путь социально-экономический развитие, народ, нация, ценность, дружба, сотрудничества, мир, стабильность

Биз биламизки ҳозирги кунда дунё мислсиз даражада ўзгариб, ижтимоий, маданий, маънавий муносабатлар интеграциялашуви бир мунча тезлашиб кетди ва бир қатор умумбашарий муаммоларнинг пайдо бўлиши, табиийки, бутун жаҳон халқларини ташвишга солмоқда.

Дарҳақиқат Ўзбекистон Президенти Ш. М. Мирзиёев “Дунё шиддат билан ўзгариб, барқарорлик ва халқларнинг мустақам ривожланишига раҳна соладиган турли янги таҳдид ва ҳавфлар пайдо бўлаётган бугунги кунда маънавият ва маърифатга, ахлоқий тарбия, ёшларнинг билим олиш, камолга интилишга эътибор қаратиш ҳар қачонгидан ҳам муҳимдир. Айнан таълим ва

маърифат башарият фаровонлигининг асосий омилларидан ҳисобланади, инсонларни эзгуликка даъват этади, саховатли, сабр-қаноатли бўлишга ундайди”⁷, дейди.

Шу боис сиёсий, ижтимоий-иқтисодий, экологик хавф-хатарларнинг салбий таъсирини олдини олиш, ёшлар онгини ҳимоя қилиш учун, умуммиллий ва умуминсоний мерослар, қадрият ва анъаналардан оқилона фойдаланиш бугунги куннинг долзарб вазифасидир. Бу жараёнда эса Шарқ ва Ғарб халқлари учун «Буюк Ипак йўли» ижтимоий заруриятга айланиб, миллатлар ўртасидаги ижтимоий, сиёсий, иқтисодий, маданий алоқаларга, минтақавий ҳафсизликка ва ижтимоий-сиёсий барқарорликни таъминлашга хизмат қилиши, жамиятнинг тадрижий ривожланиши, жаҳон тизимига интеграциялашуви учун асосий негиз ва шарт шароит яратиши шубҳасиздир.

Дарҳақиқат Марказий Осиё халқлари инсоният цивилизацияси тараққиётининг энг олдинги босқичларидан бирида бўлган XI–XII ва XIV–XV асрлар Шарқ уйғониш даврининг биринчи ва иккинчи босқичларида юзага келган бир қатор асарларнинг умумийлиги, фалсафа, бадиий адабиёт, мусиқа, фан, меъморчилик ва санъатнинг ўрнатилган ва бир-бирига яқинлиги Марказий Осиё, Яқин ва Ўрта Шарқ халқлари маданиятининг ўзаро алоқадорлиги ва таъсирчанлигини кўрсатди. Ижтимоий–сиёсий ҳаётдаги зарурият, иқтисодий ва маданий алоқалар бу халқларнинг маданиятини бир–бирига яқин ва маълум даражада муштарак маданиятга айлантирди. Масалан, Форс–тожик классик адабиётининг мероси ҳисобланмиш Фирдавсий, Ҳайём, Хофиз, Саъдий, Жомий ва бошқаларнинг асарлари бир неча асрлар давомида бутун Марказий Осиё халқлари учун маълум даражада умумий бўлиб келди ҳамда Озарбайжонлик шоир ва мутафаккир Низомий, Ҳиндистонлик Амир Хусрав Деҳлавийларнинг ижодий таъсири остида ўзбек шоирлари ва мутафаккирларининг энг яхши асарлари вужудга келди.

Навоний ижоди хусусан, «Хамса» асари XVI–XVIII асрлардаги барча туркий ва форс–тожик бадиий адабиёти ижтимоий фикрларининг ривожига жуда катта таъсир кўрсатди. Бу даврларда яшаб ижод этган Турк, Озарбайжон, Хоразм, кўқон хонликларидаги, шарқий Эрон ва Афғонистондаги шоир–уламолар Навоний маънавий хазинасидан илҳомландилар ва баҳраманд бўлдилар ва ундан ўргандилар. Ижтимоий маданиятнинг бу ўзаро таъсири халқлар ижтимоий миллий маданиятининг ривожланиши ва бойишига олиб келди.

Форобий, Хоразмий, Фарғоний, Юсуф Хос Ҳожиб, қошғарий, Ал Беруний, Ибн Рушд, Ибн Сино, Рудакий, Румий, Ҳофиз, каби мутафаккир олимларнинг ижоди Шарқ билан Ғарб мамлакатлари ўртасида ижтимоий, иқтисодий, сиёсий алоқаларнинг кучайиши, интенсификациясига, халқлар маданиятларини ўзаро интеграциялашувига катта таъсир кўрсатди. Масалан, Форобий қадимги юнон илми ва фалсафасини айниқса Арасту асарларини мукамал билган, унинг таълимоти билан янги Афлотун таълимотини бирлаштира олган, ислом фалсафасига оламшумул ҳисса қўшган ва шулар боис Арастудан кейинги «Иккинчи муаллим» (ал муаллим ас соний) номи

⁷ Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон 2017.

билан машхур бўлган буюк олим сифатида танилди.

Бу даврда Шарқ ва Ғарб ижтимоий-маданий муносабатларни ўрнатишда техник жиҳатдан содда транскомуникациялардан фойдаланилган бўлса ҳам бу жараён тез суръатлар билан ривожланди. Айниқса, илм фан соҳасидаги интеграциялашуви шунда кўринадики, Марказий Осиё мутафаккирларининг асарлари XII асрдан бошлаб Европада илмий-адабий тил ҳисобланган латин тилига таржима қилина бошланди, сўнг ХУII–ХУIII асрда инглиз, испан, немис, француз тилларига таржима қилинди. Форобийнинг Аристотелга ёзган шарҳларини Берлин академияси нашр қилди. ХУIII аср охирларида Ф.Дитереци унинг фалсафий трактатларини, айниқса унинг сиёсий фалсафасини (ал-мадинат ал-фазила) синчиклаб ўрганди. Асли Сирдарёда дунёга келган аллома олим Форобий умрининг анчасини Халабда, Ҳамадонийлар саройида ўтказган бўлиб, «Уд» созининг ихтироси сифатида ҳам танилди, шу сабаб уни немис файласуф шоирлари ўзларининг шеъриясида мусиқа файласуфи этиб талқин этадилар. Фридрих Рюкерт «Morgenlandische sagen und Geshichten» («Шарқона ривоятлар ва афсоналар») асарида Форобийнинг бир куй ижро этиб барчани шоду хуррам қилгани, иккинчи куй билан кўз ёш тўкишга мажбур этгани, учинчи куй воситасида эса уларни ухлатиб қўйганини тасвирлайди. Бу ҳолат Форобийнинг ғарб санъати ва ижтимоий маданияти ва дунёқарашига қанчалик катта таъсир этганини кўрсатади.

Шарқнинг Ғарбга таъсири масаласи неча асрлардан буён тараққийпарвар зиёлилар томонидан мушоҳада қилиниб, баъзи ғарбдаги тадқиқотчилар бу масалага шубҳа билан қарайдилар. Таниқли олима Ф. Сулаймонованинг барча нурулар Шарқдан таралишини ифодаловчи «Шарқ ва Ғарб» номли монографиясида таҳлил этилганидек, «ипак йўли» атига Шарқ ва Ғарб ўртасидаги савдо-иқтисодий алоқалар воситаси эмас, айтиб чоғда Европани маънавий уйғотган ҳаётбахш йўл ҳамдир. Самарқанд, Бухоро, Хива, Фарғона, Кеш, Термиз каби шаҳарларда ойлаб, йиллаб истиқомат қилган, ажнабий савдогарлар халқимизнинг турмуш тарзи, урф-одатлари ва маънавиятга хос қирраларини ўрганиб, маъқул бўлганларини ўз юртларига бориб тарғибот қилишга ҳаракат қилганлар».⁸

Мавжуд адабиётлар таҳлилидан кўринадики, «Ипак йўли» орқали Шарқдан ўзлаштирилган илғор аънаналар ва қадриятлар Ғарбга қандай наф келтирганлигини умумлаштириб кўрсатишга мойиллик сезилмайди. Лекин Ғарбдаги ўз даврининг етук алломалари «Шарқ ва Ғарб сингиша олмайди, барча илмлар Ғарбда пайдо бўлган, шарқликлар росмана илмий тафаккур қилишга қодир эмаслар» руҳидаги «европамарказчилик» ақидаси зарарли оқибатлар келтириб чиқаришини пайқашди ва тарихга холисона муносабатда бўлишди.

Чунончи, Г. Гердер, В. Гёте, А. С. Пушкин, Н. Чернишевский, Э. Ренон, И. Голдцихер, Е. Бертельс, А. Крачковский, А. Мец, Н. И. Кондрад жаҳон маданияти тараққиётида Шарқнинг, хусусан «Ипак йўли» минтақаларининг ўрни, интеграцияси хусусида илмий асосланган фикрларни билдиришди.

⁸ Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. -Т.: Фан, 1994,1998. Инсон борлиқнинг гултожи, шарафи.\\ «Соғлом авлод учун», 1998..№10-11 -Б.-22.

Эринбург (Шотландия) университетининг профессори Уолт Монтгомэри Уоот ҳам одилона фикр юритиб, «Шарқ... Фарбий Европа билан нафақат ўзининг моддий маданияти ва техникавий кашфиётларда эришган ютуқларини баҳам кўрди, у нафақат Европада илм–фан ва фалсафа тараққиётига рағбат берди, балки Европанинг ўзини-ўзи ҳақида янги тафаккур яратишига олиб келди»⁹ - дейди.

Шарқ ва Фарб ижтимоий-маданий интеграциялашувида, фан ва маданиятни юқори чўққига кўтаришда Ибн Синонинг ўрни беқиёсдир. Унинг тиббиёт илмининг юқори чўққиларга кўтарилишида хусусан «Ал қонун фиттиб» асари катта ўрин тутгани маълум. Унинг асарлари табиатшуносликнинг инсонни ўрганадиган соҳасига киришга йўл очди. Ибн Синонинг фаолиятини ўрганиш борасида немис олимлари асосан табиий фанлар соҳасида муҳим илмий тадқиқот ишлари олиб бордилар. Ўрта аср ислом табиатшунослиги мутахассиси Айльхард Видеманн «Ибн Синонинг кўриш жараёни ҳақидаги тасаввурлари» деган тадқиқот иши яратди. Липперт алломанинг офтальмология соҳасидаги тажрибалари устида иш олиб борди. Макс Хортен Ибн Синонинг камалак ҳақидаги тушунчалари билан бирга, унинг метафизикасини ҳам ўрганди. Швейцариялик Х.Сутер эса шу мавзунини кенгрок тадқиқ этди.

Фарбда Аверроэс номи билан танилган Ибн Рушд, Аверроизмда илми ақлиянинг чўғларини илк бор кўзга ташлади. Бу илми ақлия кейинчалик Декарт, Спиноза, Лейбниц каби буюк ақл эгаларининг етишиб чиқишига сабаб бўлди ва улар тафаккурнинг янги қатламларини кашф этдилар.

Шарқ ва Фарб ўртасидаги илмий-маданий муносабатларнинг ипак йўли орқали ривожланиши ва интеграциялашувида Марказий Осиё олимларининг фаолияти беқиёсдир. Ал Фарғоний Европада Ал–Фраганус номи билан Фарб олимларини ҳайратга солди ва уларнинг янги-янги кашфиётлари учун асос яратди. Абу Райхон Беруний Маҳмуд Ғазнавийнинг ипак йўлидаги Ҳиндистонга уюштирган бир неча сафарларида ҳамроҳлик қилди. У ўздан кейин ўлкан ва бой илмий-маданий мерос қолдирган олимдир. Фарб шарқшунослари кўп йиллар давомида шу меросни ўрганиш билан шуғулландилар. Дастлаб Эдуард Захау Берунийнинг «Осорул - боқия» (Шарқ халқлари хронологияси) трактатини таҳрир ва таржима қилди. Бу асар ханузгача тарихчи, файласуф олимлар учун тенгсиз манба бўлиб хизмат қилиб келади. Бундан ташқари, Э. Захау «Китоб Фи л-Ҳинд» асарини ҳам чоп этди ва уни инглиз тилига таржима қилди. Бу китоб, муболағасиз айтиш мумкинки, бегона маданият, дин ва фалсафани холисона тадқиқ этишнинг илк юсак намунасидир, унда баён этилган ҳаётга ҳиндий дунёқараш таҳлили то ханузгача асосли эътибор касб этиб келади. Бу икки йирик асар Берунийнинг номини шарқшунос-олимлар доирасидан ташқарида ҳам машхур этди.

Берунийнинг асарлари Шарқ ва Фарб халқлари маданияти ва маънавиятининг интеграциялашуви ва юксалишига катта таъсир кўрсатди. Унинг фарб олимлари ижодига таъсири ўрта асрларда бўлгани каби XIX ва XX асрларда ҳам давом этди. Махс Майерхоф 1932 йилда Берлинда

⁹ Кўчирма А.Шернинг «Соғлом авлод учун» журналидаги сўнги сўздан олинди. 1998, 10-11сон, -Б.23

«Берунийнинг фармакогнозиясига кириш» асарини таржима қилиб нашр эттирди. И.Франке «Берунийнинг астролобиялар ҳақидаги трактати» номли илмий иш ёзди. Илмий-маданий интеграция натажасида Бонн университети, кўп йиллар Беруний ҳақидаги илмий тадқиқотлар маркази ҳисобланиб, бу даргоҳда унга бағишланган янги асарлар ғояси туғилди ва яратилди.

Шулардан бири Вили Хартнер ва Маттлас Шрамм буюк табиатшунос ҳақидаги янги маълумотларни тақдим этдилар. 1925 йилдаёқ Шой «Беруний астрономияси ҳақида» илмий мақолалар ёзди. Шу билан бирга Паул Каленинг ташаббуси билан Германияда ишлаган араб ва турк олимлари ҳам Берунийнинг улкан илмий меросидан айрим хос соҳаларни ўргана бошладилар. Масалан, Суриялик Яҳё Ҳашмий «Берунийнинг тошлар ҳақидаги китоби» мавзусида илмий диссертация ёқлаб, бу илмий иш билан /арб олимларини ҳайратга солди. Ёки 1974 йилда Нью-Йорк университетида Беруний ва Румий ижодига бағишлаб ўтказилган илмий конгрессда Ханс Роберт Рёмер Беруний ҳақида Европада, хусусан, Германияда яратилган илмий тадқиқотлар тўғрисида фойдали тавсиф берди.

Юлиус Руска Беруний асарларидаги табиий-илмий масалаларни ўрганди. Хельмут Риттер Берунийнинг «Патанжали йог сутрасидан қилган таржималари» номли илмий тадқиқоти билан (oriens 1954й), берунийшуносликнинг янги қиррасини очди.

Хулоса қилиб айтганда шарқдаги илмий кашфиётлар, маданий ҳаётдаги ютуқларнинг ғарб билан интеграциялашуви объектив жараён бўлиб, транскомуникацияларнинг етарли даражада ривожланмаганлигига қарамасдан ипак йўли орқали амалга оширилган ижтимоий-маданий муносабатлар заруриятга айланди. Бундан ташқари ижтимоий-маданий ва илмий муносабатларнинг интеграциялашуви Шарқ ва Ғарб халқларининг ижтимоий-иқтисодий равнақи ва тараққиётининг истиқболи учун янги-янги уфқларни очиш имкониятини бериб, бу жараёнда халқлар, миллатлар, элатлар турмуш тарзи, қадриятлари, анъаналари билан танишди, ўзларига хос хулосаларга келиб, мосларини ҳаётларига татбиқ этиш, муайян дунёқарашни шаклланишига асос бўлди ва халқлар ўртасидаги дўстлик, ҳамкорлик муносабатларини ўрнатишга, энг муҳими, мамлакатлараро тинчлик, барқарорликни сақлаб туришга хизмат қилади.

Муҳитдинова Бадиа Муслиҳиддиновна
Самарқанд Давлат университети
(Самарқанд, Ўзбекистан)

**ВАСЛИЙ САМАРҚАНДИЙНИНГ “ТУҲФАТУЛ-АҲБОБ”
АСАРИДА АҲЛОҚИЙ ВА МАЪРИФИЙ ҒОЯЛАР ТАЛҚИНИ**

Аннотация. *Ушбу мақолада Сайидахмад Васлий Самарқандийнинг «Тухфатул-аҳбоб» девонидаги миллатни уйғотиш, мактаб-маорифни ислоҳ қилиш, илм ўрганиб, дунёни, ўзликни анлаш, жаҳолатдан қутулишга даъват ғоялари талқини ҳамда девоннинг илмий ва маърифий қиммати ёритилади*

Калит сўзлар: *девон, матбуот, ижтимоий-маърифий, миллий кадрият, ватанпарвар, миллатпарвар, маънавий камолот, илму адаб*

XIX аср иккинчи ярми ва XX аср бошларида яшаб ижод этган шоир Сайидахмад Васлий Самарқандийнинг туркий назмиётдан намуналар ўз даври матбуотининг қарийб барча нашрларида эълон қилинган бўлса-да, бу шеърий мероснинг асосий қисми унинг “Тухфат ул-аҳбоб” деб номланган туркий девонида жамланган. Бу девон ўз даври адабий ҳаётининг муҳим воқеасига айланган “Тухфатул-аҳбоб” нашр этилишидан бироз илгарироқ, “Туркистон вилоятининг газети”нинг 1909 йил 2 август (№58) сонида Васлийнинг Самарқандда чоп этилган уч тилдаги шеърий девони ҳақида хабар берилади. Девон араб, форс-тожик ва туркий тилдаги шеърлардан иборат. 1913 йилда эса «Туркистон вилояти газети» Васлийнинг “Тухфат ул-аҳбоб” номли девони ҳақида хабар бериб, девондан ўрин олган “ё Раб”, “арзурму” радифли ва қимиз васфига бағишланган уч ғазални газетхон эътиборига ҳавола қилади [2; №74].

Девон 1913 йил Тошкентда Порцев матбаасида босилиб чиқади. Унда 1832 байт шеър ўрин олган. Девон ҳажми 132 саҳифадан иборат бўлиб, у чиройли настаълиқ хатида кўчирилган. Хаттот мулло Ўтаб Тошқандий, ношир эса Нозим Котиб исмли шахс. Мужалладнинг биринчи саҳифасида шундай тўртлик берилади:

*Уш “Тухфатул-аҳбоб”и сухандондир бу,
Виждон кўзига кўзгуи ирфондур бу,
Ким истаса аҳволи замон кўрмагини,
Маъни назарила боқса мубайёндур бу.*

“Тухфатул-аҳбоб”нинг жанр таркиби ниҳоятда ранг-баранг. Ундан 102 ғазал, 19 мухаммас, 6 мусаддас, 3 рубоий, 4 туюқ, 2 маснавий, битта мусамман, таржъбанд, таркиббанд, қасида каби жанрлардаги асарлар ўрин олган бўлиб, ҳаммаси 140 тани ташкил этади.

Девон:

*Ё Раб, сангаки хос эрур мажду кибриё,
Изҳори ажзи ҳамдинг учун қилди Мустафо [1; 2-б].*

матлаъли ҳамд билан бошланади. Ғазал 13 байтдан иборат бўлиб, мақтаъда шоирнинг жаннатга тушиш орзуси ифодаланади:

Минг шуқрким, ҳабибинга сен уммат айладинг,

Васлий қулунгни равзасиға еткур, эй Худо [1; 3-6].

Шундан сўнг, яна бир «фидо» радифли 11 байтли ҳамд бор. Сўнг, «Ҳажнома» сарлавҳали шеър келтирилади. 20 байтли бу шеър Ҳазрати Муҳаммад Мустафо (с.а.в.) васфларига бағишланган. Бу ғазаллардан кейин мувашшаҳлар бошланади. Кетма-кет келтирилган уч мувашшаҳдан бири Мухторхон исмига, иккинчиси Муҳиддин, яна бири Қори Нажмиддин исмига боғланган.

Кейинги шеър муножот бўлиб:

*Саҳарда хоби ғафлатдин мени бедор қил, ё Раб,
Дилимға бир боқиб ганжинаи асрор қил, ё Раб [1; 7-6].*

матлаъи билан бошланади, у 11 байтдан иборат. Кейин эса, девонда «адаб» радифли «Насихат» сарлавҳали ва «мактаб» радифли «Тарғиб» сарлавҳали шеърлар келтирилади. Девонда мувашшаҳларга кўпроқ ўрин берилган. Шунингдек, китобдан диний-тасаввуфий руҳдаги ғазаллар, муножотлар ҳам ўрин олган.

Маълумки, Васлий яшаган давр адабиётида ижтимоий-маърифий мавзу етакчи ўринга чиқади. Давр адабий ҳаётининг бундай руҳ касб этишида кўпчилик ижодкорлар қатори Васлийнинг ўзига хос ҳиссаси мавжуд. Васлий ижтимоий, маданий-маърифий соҳалардаги фикрларини ўзига хос услубда очишга ҳаракат қилади. Масалан, инсоннинг иқтисодий манфаат учун ҳаддан зиёд ҳаракат қилиб, маърифатдан бебахра қолиши мумкинлиги ҳақида уйлар экан, унга соф диний нуқтаи назардан шундай дейди:

*Эй банда, санга Розиқи Мухтор берур ризқ,
Ахтарма, агар истасанг охтор берур ризқ.
Ризқинг азалийдур емагил беҳуда андуҳ,
Авқот учун қилмагил афғор берур ризқ.
Бошқа кишидин уз тамаъингни кеча-кундуз,
Ўз лутфи илан Ҳазрати Жаббор берур ризқ [1; 33-6].*

Васлийнинг хизмати шуки, у исломни янги ҳаётдан қувғин қилмай, умуминсоний ҳаётсевар тафаккур маҳсулларида фойдаланиб, миллий қадриятлар уйғунлигида янги ижтимоий ҳаётни қуриш, маърифатнинг тарихий илдиэларидан бошлаб баҳраманд бўлиш ғояларини илгари суради.

Шоир шариятнинг оёқости бўлганлигини миллатнинг маънавий таназзули, деб билади. Чунки шарият бу – поклик ва тартиб-интизом мезонидир. Дастурсиз, мафкурасиз миллат эса халқ эмас, оломон бўлиб қолаверади. Мустамақачининг асосий мақсади ҳам миллатни мафкурасидан ажратиш эди. Васлий ўз даврида исломдан бошқа мафкурани тасаввур эта олмайди. Шунинг учун, ўз онги даражасида фикр юритиб, миллат умуман мафкурасиз бўлгандан кўра, исломни ўзига дастур қилса мақсадга мувофиқ бўларди, деган қарорга келади:

Муножот бар даргоҳи Қозийулҳожот
*Айлагил исломни ҳифзу ҳимоят, ё Ҳафиз,
Заъф тобди шаръимиз бер анга қувват, ё Ҳафиз.
Ўйла бир ҳола дучор ўлдуқ, тараҳхум чоғидур,
Ҳолимизға айлагил лутфу июнат, ё Ҳафиз... [1; 28-6].*

Ушбу манзума Васлий Самарқандийни ватанпарвар, миллатпарвар шахслардан бири сифатида тасаввур этишга, ўзига хос бир тарзда ижодкор

руҳиятига, инсон қалбига кира олишига имкон беради. Шу жиҳатдан, биз шоир шахсини исломий дунёқараш билан Ватан, миллат, халқ ғамини ўйлаган тараққийпарвар олим сифатида талқин этамиз. Чунончи, бир шеърда шоир миллатга хизмат қилмоқ инсон маънавий камолотининг чўққиси эканлигини эътироф этади:

*Кими миллатга хизмат қилди ошти кўкдин қадр,
Фалак узра чиқиб олий муъалло бўлди хизматдин [1; 48-б].*

Девондан ўқувчига завқ бағишлагувчи бадий юксак рубойлар ҳам ўрин олган. Бироқ улар бир туркум қилиб эмас, балки бошқа жанрлардаги шеърлар билан бирга жойлаштирилган.

*Эй сарвқади, сиймтан, орази моҳ,
Лайливаши Юсуфсифат, олий чоҳ.
Кўзунг ғазабини кўркусидин дедим:
«Ла ҳавла ва ла қуввата илла биллаҳ» [1; 83-б].*

Мазмуни: Эй, хушқомат, ойюзли, гўзал Юсуфсифат, олий мартабали, кўзининг ғазабидан кўркүб, дедим: «Куч ва қувват олий ва буюк Аллоҳдандир».

Кўринадики, рубойнинг аввалги икки мисраси тожик тилида бўлса, учинчи мисра ўзбек тилида, тўртинчи мисра араб тилидадир. Аммо мисралар мазмунан бир-бирига мос ва асарнинг енгил бир юмористик руҳ касб этгани ҳам ўқувчини хушнуд этади. Девонга иккита дидактик мавзудаги катта ҳажмдаги шеърлар киритилган: бири “Ўқуғучи бир бола оғзидан”:

*Мен бир боламен ўзгинам ёш,
Ёшимга ярошти ушбу кенгош [1; 120-б].*

байти билан бошланади. Бири эса, «Мактабга муҳаббатлик бола», деб номланади:

*Борармен эрта бирлан мактабимга,
Борубон ўлтуруб ўз мансабимга [1; 121-б].*

Маснавий шаклида ёзилган икки шеър бир-бирини тўлдиради. Ўн етти байтлик “Ўқуғучи бир бола оғзидин” шеърда илм олишнинг буюк аҳамияти, мактаб тарбиясининг ҳаёт ва инсон камолоти учун зарурлиги айтилади:

*Кичкиналик замонда ҳар кас,
Ўз бошича бир нимарса билмас.
Ёш-ёш болаларки билмаюрлар,
Мактаб сориға қадам кўюрлар.
Мактабда билурлар ҳар на лозим,
Устодга бўлсалар мулозим [1; 120-б].*

Бола қалбининг мактабга, илмга ташналиги, устоз-муаллимдан миннатдорлиги, китобга муҳаббати йигирма байтлик иккинчи шеърда янада равшанроқ ва таъсирчанроқ очиб берилади. Бола мактабга бир қувонч, шодлик билан интилади:

*Тўлур мактабда кўнғлум шодликдин,
Бўлурман шод бу ободликдин...
Ўқумоқни чунон яхши кўрурман,
Ки ҳар дарсимда бир шайъ¹⁰ ўрганурман [1; 121-б].*

¹⁰ Шайъ - нарса

Ўқувчи устозини ота-онасидай яхши кўради, чунки меҳр ила илм ўргатади, ақлини пешлаб саводхон қилади, у эса олим бўлиш, оламни таниш иштиёқида ёнади. Васлийнинг фикрича, турли билимлардан хабардор бўлиш зарурлиги ҳақида шундай дейди:

*Манга ҳар нарса билмақ бўлса вожиб,
На вожиб, балки ҳар илми муносиб.*

Боланинг илм хазинаси бўлган китобга муносабати ҳам чиройли тасвирланади:

*Яна яхши кўрарман китобим,
Китобимдур чароғим, офтобим.
Анинг нури ила кўнгалумдадур нур,
Китобим жаннату қоғозлари ҳур [1; 121-б].*

Шоир танлаган усул, яъни мактаб боласининг тилидан сўзлаши ўзига хос тарғиб-ташвиқ усули эди. Чунки кўп болалар саводсиз, мактабларга бормас, илму адабдан, демак, замондан беҳабар умр ўтқарарди. Мақсад ана шу болаларни мактабларга жалб этиш, миллат келажаги бўлган ёшлар қалбига илм нурини киритиш эди. Васлий ҳар икки шеърда ҳам илмсевар боланинг ўзига хос образини яратган деса бўлади. Шубҳасиз, бунда маориф жонкуяри, илму ирфон орқали халқни уйғотишга бел боғлаган одамнинг интилишлари, пок нияти ўз аксини топган.

Девонга “Муҳтамилот”¹¹ сарлавҳаси остида тўртта тўртлик ўрин олган. Жанр хусусиятига кўра, бундай шеърлар туюқнинг бир тури. Тўртликлар «айзан», яъни «яна» «мана бу ҳам» маъносидаги сўзлар билан ажратилган [1; 122-б]. Шундан сўнг, шоир «Озгина рубойи» деб яна икки рубойи келтиради. Бу девоннинг ниҳояси бўлиб, муаллиф Аллоҳ таолога ҳамд ва унинг ҳабиби пайғамбар алайҳиссаломга салавот айтиб, китобга нуқта қўяди. Мажалладнинг кейинги саҳифаларида «Китобатдан сўнгра бўлмиш мувашшаҳлар» сарлавҳаси билан 5 та мувашшаҳ жойлаштирилган [1; 124-б]. Охириги саҳифаларда девоннинг тартиб берилган санасига бағишланган таърихлар келтирилган. Бу таърих шеърлар муаллифлари Қори Абдулмунис Самарқандий, зодаи замон Мулло Абдулқайюм Қурбий Самарқандий, Қори Нажмиддин Нажмий Самарқандий, Сайид Ҳайбатуллоҳ хожа Хислат Тошкандий, мулло Сирожиддин маҳдум Шавкат, Мулло Аллаёрбек Таслим Самарқандий Қоратепагий, Мулло Мир Сарвар Ургутий қаламларига мансубдир.

Сайидахмад Васлий ўз миллати, халқининг келажаги учун қайғурган, ташвишланган маърифатпарвар ва ватанпарвар шоир эди. Агар шоир ижодий меросини чуқурроқ таҳлил этадиган бўлсак, унинг мумтоз адабиёт анъаналари, ғоявий услуби ва образларидан фойдаланиб, ғазал, мухаммас, мусаддас, мусамман, маснавий, таржеъбанд, таркибанд, рубойи, мувашшаҳ, қасида каби жанрларда сермаҳсул ижод қилган асарларидан кўра, шу жанрлар шаклларида фойдаланиб, ўз замонаси маърифат аҳли ва маориф тизими ҳолатини реалистик услубда ифода этиб, тараққиётга ташвиқ этувчи ғояларни илгари суриб ёзган асарлари салмоғи анча устун эканлигининг гувоҳи бўламиз. Васлий Самарқандийнинг мазкур асарида ҳам даврнинг долзарб ижтимоий

¹¹ Муҳтамилот - эҳтимол, мумкин нарсалар.

муаммолари дардли - эҳтиросли оҳангда баён этилган. Миллат ғами, унинг ўтмиши, ҳозирги аҳволи ва келажаги шоирни чуқур ўйлашга мажбур этади. Асар худди шундай сатрлар билан бошланади:

Миллат ғамида ўлди қадим чархдек дуто,

Қон оғларам шафақ каби кўнғлумдадур ано [1; 102-б].

Шу тариқа, шоир ҳар бандни замонаси кишиларининг нуқсонини баён этиш билан бошлаб, афсус-надоматлар чекиб, бу иллатларнинг сабабини очиб кўрсатишга интилади. Ғафлат, нодонлик, илмсизликнинг ҳалокатли оқибатларини излайди. «Мактаблар ичра бир ғўзал авлод» йўқлигидан ривожу равнақ тўхтагани, «миллатнинг инқирозига бу бир гувоҳ» эканлигини ачиниб ёзади.

Шоирнинг кузатишлари реал ҳаётнинг инъикоси эканлигини шу ҳам тасдиқлайдики, «ўн минг нафарнинг бир нафари ўлди аҳли илм, ул ҳам ҳамisha мотам андуҳ ила низор». Яъни, ўқимишли, саводхон, оқ-қорани таниганлар жуда кам, лекин шулар ҳам хору зор яшамоқда.

Васлийнинг фикрлари Фитрат, Бехбудий, Чўлпон, Ажзий каби тараққийпарвар зиёлилар қарашлари билан ҳамоҳанг эди. Васлий жаҳолатни, илмсизликни миллат, халқнинг душмани, деб билади. Жоҳиллар ишбоши, мажлисларнинг раиси, улар ўз манфаатидан бошқа нарсани ўйламайди, фитна-фасодни авж олдиради. Жоҳил одамда олий мақсад йўқ, у ахлоқни, динни ҳам оёқ ости қилиб кетаверади.

Ҳар шаҳру куйқамаледур жаҳл таверидан,

Анвои шару шўр иладўлди бу замон [1; 108-б].

Шоирнинг бу сатрлари замирида огоҳлантириш ва ўз миллатига дардли даъват ётади. Девоннинг фазилатларидан бири шуки, унда ҳамду наътлардан кейин «Насиҳат», «Тарғиб», «Тилсими ибрат», «Ташвиқ», «Фи-т-таваккул», «Фи-р-ризо» каби сарлавҳалар билан маърифий-дидактик асарлар келтирилади. Бу бевосита девоннинг илмий ва маърифий қимматини оширади.

Хулоса шуки, Сайидаҳмад Васлий Самарқандий ижодиёти замонаси ва даври хусусиятлари билан изоҳланиши лозим бўлган айрим камчиликлар ва қарама-қаршиликлардан холи бўлмаса-да, у ўзига хос бадиий ҳаётлари, маърифий-тарбиявий аҳамияти, тарихий қиммати билан халқчиллик ғояларининг тарғиб этилиши нуқтаи назаридан бугунги давр адабиётшунослиги эътиборидан асло четда қолмаслиги лозим бўлган ҳодисадир.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Васлий Самарқандий. Тухфатул-аҳбоб. – Тошкент.: Порцев матбааси, 1913. – 132 б.
2. Васлий Самарқандий. Шеърлар. “Тухфатул-аҳбоб” тўпламидан олинган шарҳи // Туркистон вилоятининг газети. 1913. – №74.

POLISH SCIENCE JOURNAL

Executive Editor-in-Chief: PhD Oleh M. Vodiany

ISSUE 6 (27)

Part 1

Founder: "iScience" Sp. z o. o.,
NIP 5272815428

Subscribe to print 28/06/2020. Format 60×90/16.

Edition of 100 copies.

Printed by "iScience" Sp. z o. o.

Warsaw, Poland

08-444, str. Grzybowska, 87

info@sciencecentrum.pl, <https://sciencecentrum.pl>



ISBN 978-83-949403-3-1



9 788394 940331